

L. X. Bozorova, N. S. Suyundikov, H. X. Xolmatov

LOTIN TILI

QAYTA ISHLANGAN II NASHRI

*Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi farmatsevtika
instituti talabalari uchun o'quv qo'llanmasi
sifatida tavsiya etgan*

Toshkent
O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi
«Fan» nashriyoti
2005

81. 2 Lat
B 80

Taqri zchilar:

Farmatsevtika fanlari nomzodi, dotsent
M. M. Miralimov;
Birinchi Toshkent Davlat Tibbiyot instituti
chet va lotin tillar kafedrasining katta
o'qituvchisi **N. I. Ovcharenko.**

Muharrirlar:

K. A. Abdullayev, filologiya fanlari nomzodi, dotsent,
Yu. A. Muza'ffarxo'jayev

B 80 Bozorova L. X.
Lotin tili: Farmatsevtika instituti talabalari uchun
o'quv qo'llanma. / Mualliflar: L.X. Bozorova,
N.S. Suyundikov, H. X. Xolmatov – Qayta ishlan-
gan II nashri. – T.: Fan, 2005. 228 bet.
I. I, 2 muallifdosh.

BBK 81. 2 Lat - 923

№ 391–2005
Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston
Milliy kutubxonasi.

Mazkur o'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi farmatsevtika instituti talabalari uchun tasdiqlagan dastur asosida tuzilgan.

Qo'llanma 35 ta darsdan iborat. Har bir darsga ko'plab fonetik, leksik va grammatik mashqlar; lotin tilidan o'zbek tiliga, o'zbek tilidan lotin tiliga tarjima qilish uchun retseptlar berilgan. Qo'llanmaga lotincha-o'zbekcha va o'zbekcha-lotincha lug'atlar ham kiritilgan.

ISBN 5-648-03286-2

© L.X. Bozorova, N.S.Suyundikov,
H.X.Xolmatov, Abu Ali Ibn Sino
nomidagi tibbiyot nashriyoti, 2003 y.
© O'zbekiston Respublikasi Fanlar
akademiyasi «Fan» nashriyoti, 2005 y.

SO‘Z BOSHI

Mazkur qo‘llanma farmatsevtika oliy o‘quv yurti talabalariga mo‘ljallangan bo‘lib, amaldagi o‘quv dasturi asosida tuzilgan. Keyingi yillarda qator dorivor o‘simliklar va preparatlarning lotin tilida yangi nomlari qabul qilinganligi sababli bunday nomlarni o‘z ichiga olgan darslikni yaratish zamon talabi bo‘lib qolgan.

Qo‘llanmaning asosiy vazifasi talabalarga lotin tilini o‘rgatishdan iboratdir.

Qo‘llanma 35 ta darsni va lotincha-o‘zbekcha, o‘zbekcha-lotincha lug‘atni o‘z ichiga oladi. Har bir darsga 5-10 tadan fonetika, grammatika va leksikaga oid masalalar va tarjima qilish uchun retseptlar berilgan. ~~Mavzular~~ farmatsevtika institutida o‘quv materiallarining o‘tilishi ketma-ketligida tanlab olingan.

Ushbu qo‘llanmani yaratish jarayonida mamlakatimizda va chet ellarda nashr etilgan darslik hamda qo‘llanmalardan, farmatsiyaga oid adabiyotlardan foydalanildi.

Qo‘llanmadan tibbiyot kolleji farmatsevtika bo‘limi talabarlari ham foydalanishlari mumkin.

Mualliflar

FONETIKA

1-dars

1-§. Lotin tili alifbosi

Lotin tili alifbosida 25 ta harf bor.

Bosma harflar	Nomi	O'zbekcha muqobili	Bosma harflar	Nomi	O'zbekcha muqobili
A a	a	a	N n	en	n
B b	be	b	O o	o	o
C c	se	s yoki k	P p	pe	p
D d	de	d	Q q	ku	u bilan birga [kv]
E e	e	e	R r	er	r
F f	ef	f	S s	es	s
G g	ge	g	T t	te	t
H h	g'e	o'zbekcha g'	U u	u	u
I i	i	i	V v	ve	v
J j	yot	y	X x	iks	ks
K k	ka	k	Y y	ipsilon	i
L l	el	l	Z z	zeta	z yoki s
M m	em	m			

2- §. Unli harflar

Lotin tilida 6 ta unli harf bor.

A a unli harfi [a] deb talaffuz qilinadi:

amarus [amarus] – achchiq;

ana [ana] – teng miqdorda.

E e unli harfi [e] deb talaffuz qilinadi:

gemma [gemma] – kurtak;

gelatina [gelatina] – jelatin.

O o unli harfi [o] deb talaffuz qilinadi:

odor [odor] – hid, is;

os [os] –suyak.

I i unli harfi [i] deb talaffuz qilinadi:

internus [internus] – ichki;

infans [infans] – bola, go‘dak.

U u unli harfi [u] deb talaffuz qilinadi:

unus [unus] – bir;

utilis [utilis] – ishlatishga yaroqli.

Y y unli harfi [i] deb talaffuz qilinadi:

Amygdalus [amigdalus] – bodom;

polyvitamina [polivitamina] – polivitamin.

3-§. Diftonglar

Ikkita turli unli harflarning bir bo‘g‘in sifatida talaffuz etilishiga diftong deyiladi. Lotin tilida 4 ta diftong bor:

«an» diftongi [au] deb o‘qiladi.

Masalan: auris [auris] – quloq;

auscultare [auskultare] – eshitmoq.

«eu» diftongi [eu] deb o‘qiladi.

Masalan: Eucommia [eukommia] – evkommiya;

Eucalyptus [eukaliptus] – evkalipt.

«ae» diftongi [e] deb o‘qiladi.

Masalan: aeger [eger] – bemor, kasal;

Crataegus [krategus] – do‘lana.

«oe» diftongi [e] deb o‘qiladi.

Masalan: Foeniculum [fenikulum] – ukrop, fenxel;

oedema [edema] – shish.

Agar ae va oe diftonglarida e harfining ustiga ikki nuqta qo‘yilgan bo‘lsa, u holda har bir harf o‘zining alohida tovushini ifoda etadi.

oē [oe] – Aloē [aloē] – aloy, sabur;

aē [ae] – aēr [aēr] – havo.


4-§. Undosh harflar

C c - harfi ikki tovush [s] va [k]ni ifoda etadi. Agar **s** harfi ae, oe diftonglari, **e, i, y** unli harflari oldida tursa [s] deb o‘qiladi.

Masalan: cito [sito] – tez;
cera [sera] – mum;
cyclus [siklus] – sikl;
coeruleus [seruleus] – ko‘k.

Agar **c** harfi **a, o, u** unilari va undosh harflar oldida yoki so‘z oxirida tursa [k] deb o‘qiladi.

Masalan: creta [kreta] – bo‘r;
carbo [karbo] – ko‘mir;
cucurbita [kukurbita] – oshqovoq;
lac [lyak] – sut.



H h – harfi o‘zbekcha [g‘] harfi singari talaffuz qilinadi.

Masalan: herba [g‘erba] – o‘t, yer ustki qism;
homo [g‘omo] – odam, kishi.

K k – harfi [k] tovushini beradi, lekin bu harf tibbiy lotin tilida kam qo‘llaniladi:

Kalium [kalium] – kaliy;
Keratinum [keratinum] – keratin.

L l – harfi yumshoq talaffuz qilinadi:

mel [mel] – asal;
lac [lyak] – sut.

X x – harfi [ks] tovushini beradi:

pix [piks] – smola, qatron;
faex [feks] – xamirturush.

Z z – harfi yunonchadan o‘zlashtirilgan so‘zlarda uchraydi va [z] deb talaffuz qilinadi:

rhizoma [rizoma] – ildizpoya;
Glycyrrhiza [glitsiriza] – qizilmiya, shirinmiya.

Lekin Zincum so‘zida **z** harfi [s] deb o‘qiladi:

Zincum [sinkum] – rux.


J j – harfi **a, o, e, u** unli harflari bilan birgalikda quyidagicha o‘qiladi:

jo [yo] – jocus [yokus] – hazil;

ja [ya] – janua [yanua] – eshik;
ju [yu] – juniperus [yuniperus] – archa;
je [ye] – jecur [yekur] – jigar.

S s – harfi ikki tovushni: [z] va [s]ni ifodalaydi. Agar s harfi ikki unli harf o‘rtasida yoki har qanday bir unli bilan m yoki n harflari o‘rtasida kelsa [z] deb, boshqa hollarda [s] deb o‘qiladi.

Masalan: dosis [dozis] – doza
Rosa [roza] – na‘matak;
mensis [menzis] – oy
reumatismus [reumatizmus] – revmatizm;
Solanum [solanum] – ituzum.



Mashqlar

1-mashq. *Diftonglarning o‘qilishiga e‘tibor berib so‘zlarni o‘qing.*

Aërosolum, auctor, anaemia, oedema, praescribo, Foeniculum, Aurum, graecus, saepe, oestrogenus, faex, auris, praeparatum, Crataegus, Eucommia, foetidus, Synoestrolum, aeger, aër.

2-mashq. *Undosh harflarning o‘qilishiga e‘tibor berib so‘zlarni o‘qing va o‘qilish qoidasini tushuntiring.*

Decoctum, acidum, capsula, Glucosum, scatula, briketum, semen, junius, hypnoticus, jam, Ledum, herbaceus, dystonia, hydricus, insolubilis, amurensis.

3-mashq. *Quyidagi so‘zlarni o‘qing va c harfining o‘qilishini tushuntiring.*

Tinctura, fructus, succus, cella, cera, galenicus, bacca, calor, cito, locus, Capsicum, acidum, officina, coeruleus, Cortisonum, bacillus, medicinalis, medicamentum, caecum.

4-mashq. *So‘zlarni o‘qing va s harfining o‘qilishini tushuntiring.*

Spissus, species, destillatus, dens, morbus, elasticus, dystonia, emulsum, internus, massa, latus, resina, reumatismus, Cortisonum, dysenteria, Vaselineum, amarus.

Uyga vazifa

I. Lotin tili alifbosini yod oling.

II. Unli va undosh harflar, diftonglarning o'qilishini eslab qoling va quyidagi so'zlar yordamida o'zlashtirgan bilimlaringizni tekshirib ko'ring.

1. Lotin tili alifbosida nechta harf bor va ular qanday talaffuz qilinadi?

2. Diftong deb nimaga aytiladi va qanday diftonglarni bilasiz?

3. c harfi qanday tovushlarni ifodalaydi?

4. s harfi qanday o'qiladi?

5. j harfi a, o, u, e unli harflari bilan birgalikda qanday talaffuz etiladi?

6. h, l, k, x, z harflarining o'qilish qoidasini ayting.

III. Quyidagi so'zlarni o'qing va ularning transkripsiyasini yozing.

Hypericum, acidum, haemostaticus, cito, ossis, praeparatum, plasma, major, oestrogenus, juvenus, lacteus, Glycerinum, extractum, Cuprum, scabies, oleosus, coeruleus, Ledum, graeca, baccae, Vikasolum, aeger.

2-dars

5-§. Harf birikmalarining o'qilishi

qu – harf birikmasi unli harf oldidan kelganda [kv] deb o'qiladi:

aqua [akva] – suv;

Quercus [kverkus] – dub, eman.

ngu – harf birikmasi unli harf oldidan kelganda [ngv] deb o'qiladi:

unguentum [ungventum] – surtma;

lingua [lingva] – til.

su – harf birikmasi a, e unli harflari oldidan kelganda [sv] deb o'qiladi. Qolgan hollarda esa [su] deb o'qiladi:

suasor [svazor] – maslahatchi;

suillus [suillus] – cho'chqa – i (-si).

ti – harf birikmasi unli harf oldidan kelganda [si] deb o'qiladi:

solutio [solutio] – eritma;

injectio [inyeksio] – in'yeksiya.

ti – harf birikmasi x, s undosh harflaridan keyin kelsa [ti] deb o'qiladi:

mixtio [mikstio] – aralashma;
combustio [kombustio] – kuyish.

sch – harf birikmasi [sx] deb o'qiladi:
Schizandra [sxizandra] – limonnik.

6-§. Digraflar

Digraf deb ikkita undosh harf birikmasining bitta tovush singari talaffuz etilishiga aytiladi. Lotin tilida 4 ta digraf bor. Har bir digrafda **h** harfi mavjud.

ch – digrafi [x] deb talaffuz qilinadi:

Chininum [xininum] – xinin

charta [xarta] – qog'oz

ph – digrafi [f] deb talaffuz qilinadi:

pharmacologia [farmakologiya] – farmakologiya

Morphinum [morfinum] – morfin

rh – digrafi [r] deb talaffuz qilinadi:

Rhamnus [ramnus] – tog' jumrut

rhizoma [rizoma] – ildizpoya

th – digrafi [t] deb talaffuz qilinadi:

Mentha [menta] – yalpiz

Thermopsis [termopsis] – termopsis

Mashqlar

5-mashq. *So'zlarni o'qing va o'qilish qoidalarini tushuntiring.*

Charta, Arachis, Rheum, Quercus, aether, diphthericus, lingua, solutio, camphora, Glycyrrhiza, haemostaticus, Norsulfazolium, praecipitatus, cochlear, Chamomilla, Equisetum, Mentha, aqua, axungia, extractum.

6-mashq. *So'zlarni o'qing va ularning transkripsiyasini yozing.*

Althaea, therapia, Synoestrolum, rhizoma, Phosphorus, majalis, Terebinthina, Helianthus, coquo, Ephedra, Schizandra, Kalanchoë, saccharum, Ichthyolum, frictio.

7-mashq. *C harfi [s] tovushini ifodalovchi so'zlarni topib yozing.*

Carbo, cytologia, cito, Cucurbita, calor, Citrus, bacca, decoctum, baccae, cera.

8-mashq. *Quyidagi so'zlarni o'qing va s harfining [z] tovushidek o'qilishini tushuntiring.*

Anisum, dosis, usus, Vaselinum, narcosis, mensura, gargarisma, suasor, plasma.

7-§. “y” harfining qo‘llanilishi

“y” harfi yunon tilidan o‘zlashtirilgan so‘zlarda old qo‘shimcha, o‘zak va qo‘shimcha sifatida uchrashi mumkin. Shuning uchun quyidagi old qo‘shimcha, o‘zak va qo‘shimchalarni esda saqlash kerak.

hyper - yuqori, ko‘proq; **hypertonia** – qon bosimining ko‘tarilishi;

hypo - past, kamroq; **hypotonia** – qon bosimining pasayishi;

oxy - taxir; **Oxygenium** – kislorod;

hydr - suv; **Hydrogenium** – vodorod;

pyr - issiqlik; **Antipyrinum** – antipirin;

poly - ko‘p; **polyvitamina** – polivitamin;

glyc - shirin; **Glycerinum** – glitserin;

myc - qo‘ziqorin; **Biomycinum** – biomitsin.

Mashqlar

9-mashq. *Quyidagi so‘zlarni o‘qing va ularning transkripsiyasini yozing.*

Hypermanganas, Streptomycinum, anhydricus, Glycosidum, Amidopyrinum, oxydum, Perhydrolum, hyperaemia, hypothermia, mycosis, antipyreticus, Hydrargyrum, peroxydum.

Uyga vazifa

I. Harf birikmalari va digraflarning o‘qilishini eslab qoling va quyidagi savollar yordamida bilimlaringizni tekshirib ko‘ring.

1. **qu** va **nqu** harf birikmalari qanday o‘qiladi?
2. **ti**, **su** va **sch** harf birikmalari qanday o‘qiladi?
3. Digraf deb nimaga aytiladi va qanday digraflarni bilasiz?
4. “y” harfi qaysi so‘zlarda uchraydi?

II. O‘qilish qoidalariga e‘tibor berib, quyidagi so‘zlarni o‘qing va ularning transkripsiyasini yozing.

Planta, calor, oedema, lapis, linimentum, Aloës, Juniperus, Convallaria, majalis, Tetracyclinum, camphora, lingua, latina, infusum, Glycerinum, frictio, combustio, rhizoma, Nux, Quercus, Citrus, Salvia, officinalis, Thymus, Naphthalanum, quinque, briketum, unguentum, tableta, aeger, Chamomilla, Leuzea, rhus, coeruleus, cyclus, major, extractum, mensura, diphthericus.

3-dars

8-§. Soʻzlarning boʻgʻinlarga boʻlinishi

Lotin tilida oʻzbek tilidagidek soʻzlar boʻgʻinlarga boʻlinadi. Soʻzda qancha unli harf boʻlsa, shuncha boʻgʻin boʻladi.

Masalan: Cu-cur-bi-ta; Cha-mo-mil-la.

Tovushlar choʻziq va qisqa talaffuz qilinadi. Tovushning choʻziqligi harf ustiga toʻgʻri chiziqcha, qisqaligi esa yarim oy shaklidagi belgi qoʻyib belgilanadi: ā ā ō ō ē ē.

Tovush va boʻgʻinlarning uzun yoki qisqaligini toʻgʻri aniqlay bilish urgʻuni (') qoʻyish uchun kerak.

Choʻziq unli tovushli boʻgʻin – choʻziq boʻgʻin, qisqa unli tovushli boʻgʻin – qisqa boʻgʻin hisoblanadi.

9- §. Boʻgʻinlarning choʻziqlik va qisqalik qoidalari.

Choʻziqlik qoidasi

1. Agar boʻgʻinda diftong boʻlsa, oʻsha boʻgʻin doimio choʻziq boʻladi:

Crataēgus

2. Agar unli harf ikki yoki undan ortiq undosh harflar oldida kelsa, shu boʻgʻin choʻziq oʻqiladi:

tabulēta

3. x yoki z undosh harflari oldida kelgan unli tovush choʻziq oʻqiladi:

Glycyrrhīza

4. in, ur, at, ar, ut, os, al qoʻshimchali boʻgʻinlar choʻziq oʻqiladi:

Vitam̄num, tinctūra, nitr̄atis, gelatin̄osis.

Qisqalik qoidasi

1. Unli harf oldidan unli harf kelsa, bu boʻgʻin qisqa oʻqiladi:

injectio

2. Digraflar oldida kelgan unli harf qisqa oʻqiladi:

Arāchis

3. **ol, ul, ib, id, il** harf birikmalari bo'lgan bo'g'in qisqa o'qiladi:
fluidus, pilula, solubilis
4. **b, p, d, t** harflari r yoki l harflari bilan birikib kelganda bu harf birikmalaridan oldin turgan unli harf qisqa o'qiladi:
Ephedra, vertebra
5. **h** harfi oldida kelgan unli harf qisqa talaffuz qilinadi:
extraho

10-§. Urg'u

Lotin tilida urg'u so'zning oxiridan ikkinchi bo'g'ini cho'ziq bo'lsa, o'sha bo'g'inning unli tovushiga tushadi. Agar so'zning ikkinchi bo'g'ini qisqa bo'lsa, urg'u so'zning oxiridan uchinchi bo'g'indagi unli tovushga tushadi. Ikki bo'g'inli so'zlarda urg'u hamisha so'zning ikkinchi bo'g'iniga tushadi.


ex-trac-tum
ver-teb-ra
co-la-tu-ra
pi-lu-la

Mashqlar

10-mashq. *So'zlarni bo'g'inlarga bo'ling va urg'u qo'ying.*
Emplastrum, cella, Barium, mixtio, oleum, Tormentilla, folium, saccharum, Oxycoccus, ampulla, bacterium, intravenosus, solutio, scatula, Foeniculum, pharmacopoea, milligramma, tinctura, Potentilla, spiritus, Convallaria, gargarisma, extraho, linimentum, decoctum, acidum, medicina, bulbus.

11-mashq. *Quyidagi so'zlarni urg'u qoidasiga rioya qilib o'qing.*
Suppositorium, Ephedra, sirupus, butyrum, Eucommia, Betula, aqua, Frangula, globulus, Oryza, Althaea, injectio, Penicillinum, amyllum, vitaminum, Belladonna, magister, unguentum, tabuletta, aquosus, signatura.

12-mashq. *Quyidagi jadvalni urg'u qoidasiga binoan to'ldiring.*



Uyga vazifa

I. So'zlarning bo'g'inlarga bo'linishi; bo'g'inlarning cho'ziqlik va qisqalik qoidalarini; urg'u qo'yish qoidasini eslab qoling. Quyidagi savollar yordamida o'zlashtirgan bilimlaringizni tekshirib ko'ring.

1. Lotin tilidagi so'zlar bo'g'inlarga qanday bo'linadi?
2. Bo'g'inlarning cho'ziqlik qoidasini ayting.
3. Bo'g'inlarning qisqalik qoidasini ayting.
4. Lotin tilida urg'u qaysi bo'g'inga qo'yiladi?

II. Quyidagi so'zlarni o'qing!

Scatula, Sanguisorba, coeruleus, medicamentum, Myrtilus, Chenopodium, Allium, aesculus, Oxygenium, Rhamnus, vaccinum, xeroformium, Sinapis, oculus, Absinthium, arborescens, Erythromycinum, hypericum, Amygdalus, Retinolum, Rosaceae, Armeniaca, diplococcus, Gossypium, praeparatum, Streptococcus, curatio, quartus.

III. 11- mashqdagi so'zlarni bo'g'inlarga bo'ling va urg'u qo'ying.

MORFOLOGIYA

4-dars

11-§. Fe'l

Predmetning ish-harakatini ifodalovchi soʻz turkumiga fe'l deb ataladi. Lotin tilida fe'l oʻzbek tilidagidek shaxs-son, zamon va mayl bilan tuslanadi. Lotin tilida fe'llar toʻrtta turda tuslanadi.

Noaniq shaklda:

I tuslanishdagi fe'llar **-āre** qoʻshimchasiga ega: **dāre** – bermoq.

II tuslanishdagi fe'llar choʻziq **-ēre** qoʻshimchasiga ega: **miscēre** – aralashtirmoq.

III tuslanishdagi fe'llar qisqa **-ēre** qoʻshimchasiga ega: **solvēre** – eritmoq.

IV tuslanishdagi fe'llar **-ire** qoʻshimchasiga ega: **audire** – eshitmoq.

Mashq

13- **mashq.** *Quyidagi fe'llarni tuslanishiga koʻra guruhlarga ajratib yozing.*

Addēre, audire, miscēre, curāre, extendēre, colāre, finire, formāre, recipere, dāre, continere, vertere, servare.

12-§. Fe'l negizi

Fe'llarning negizini aniqlash uchun I, II, IV tuslanishdagi fe'llarning noaniq shaklidan **-re** qoʻshimchasini, III tuslanishdagi fe'llarning noaniq shaklidan **-ere** qoʻshimchasini olib tashlash kerak.

Tuslanish	Fe'lning noaniq shakli	Fe'lning negizi
I	dare	da
II	miscere	miscē
III	solvere	solv
IV	audire	audi

14-**mashq.** *Fe'llarning negizini aniqlang.*

Extendere, finire, addere, miscere, sterilisare, recipere, studere, formare, linire, filtrare.

Namuna:

Fe'l	Tuslanish	Negizi
colare	I	cola

13-§. Buyruq mayli

Buyruq mayli *buyurish*, so' *rash* kabi ma'nolarni ifodalab, odatda ikkinchi shaxsga qaratilgan bo'ladi. I, II, IV tuslanishdagi fe'llarning buyruq mayli birlikda fe'l negizidan iborat; III tuslanishdagi fe'lning buyruq maylini hosil qilish uchun fe'l negiziga - e harfi qo'shiladi.

Tuslanish	Fe'lning no-aniiq shakli	Fe'l negizi	Buyruq mayli birlik son
I	dare	da	da-ber!
II	miscere	misc	miscete - aralashdir!
III	solvere	solv	solvite-erit!
IV	audire	audi	audite - eshit!

Buyruq mayli ko'plik sonini hosil qilish uchun I, II, IV tuslanishdagi fe'llarning fe'l negiziga -te qo'shimchasini, III tuslanishdagi fe'llar negiziga -ite qo'shimchasini qo'shish kerak.

Tuslanish	Fe'lning no-aniiq shakli	Fe'l negizi	Buyruq mayli ko'plik son
I	dare	da	date-bering!
II	miscere	misc	miscete - aralashdiring!
III	solvere	solv	solvite - eriting!
IV	audire	audi	audite - eshiting!

15-mashq. Quyidagi fe'llarning buyruq maylini hosil qiling.

Destillare, miscere, extendere, finire, formare, recipere, addere, signare.

Namuna:

Fe'l	Tuslanish	Negizi	Buyruq mayli	
			birlik	ko'plik
dare	I	da	da	date

14- §. Quyidagi fe'llarni yod oling!

I tuslanish

dare – bermoq

depurare – tozalamoq

filtrare – suzmoq, tinitmoq

sterilisare – sterilizatsiya qilmoq

colare – suzmoq

formare – tashkil etmoq

destillare – distillyatsiya qilmoq

signare – belgilamoq

servare – saqlamoq

parare – tayyorlamoq

refrigerare – sovitmoq

conservare – saqlamoq

II tuslanish

continere – saqlamoq, tutmoq

miscere – aralashtirmoq

adhibere – qabul qilmoq, ishlatmoq

III tuslanish

recipere – olmoq

extendere – surtmoq

addere – qo'shmoq

solvere – eritmoq

vertere – aylantirmoq, buramoq, o'girmoq

concidere – kesmoq, qirqmoq

coquere – qaynatmoq

ponere – solmoq, yetkazib qo'ymoq

sumere – qabul qilmoq, dori ichmoq

repetere – takrorlamoq, qaytalamoq

dividere – bo‘lmoq, ajratmoq

contundere – tuymoq

extrahere – ajratib olmoq

vivere – yashamoq

IV tuslanish

finire – tamomlamoq

linire – surtmoq

audire – eshitmoq.

Mashqlar

16–mashq. *Quyidagi zanjirda berilgan beshta fe'lni toping va ularni o'zbek tilidagi tarjimasini yoniga yozing.*

SIGNARE PETER EXTENDER EXTRAHERE FRI
-GERARE

takrorlamoq _____

ajratib olmoq _____

belgilamoq _____

surtmoq _____

sovitmoq _____

17 – mashq. *Quyidagi harflar orasida berilgan yigirmata fe'lni toping va o'zbek tiliga tarjima qiling.*

C O L A R E P E T E R E
O A P O N E R E X Z Y F
Q R V E R T E R E O F I
U C O N C I D E R E I N
E X T E N D E R E N M I
R E F R I G E R A R E R
E X T R A H E R E O D E
P A S I G N A R E I S V
A D A R E S U M E R E I
R D E S T I L L A R E V
A E D I V I D E R E D E
R R M I S C E R E T X R
E E D E P U R A R E Q E

18 –mashq. Quyidagi so‘zlarning antonimlarini toping.

Dare, miscere, addere, extrahere, coquere.

Uyga vazifa

I. “Fe’l, fe’l negizi va buyruq mayli” mavzularini o‘zlashtirib oling va quyidagi savollar yordamida bilimlaringizni tekshirib ko‘ring.

1. Lotin tilida fe’llar nechta turda tuslanadi?
2. I tuslanishdagi fe’llar qanday qo‘shimchaga ega?
3. II tuslanishdagi fe’llar qanday qo‘shimchaga ega?
4. III va IV tuslanishdagi fe’llarning qo‘shimchalarini ayting.
5. Fe’lning negizini qanday aniqlash mumkin?
6. I, II va IV tuslanishdagi fe’llarning buyruq mayli qanday hosil qilinadi?
7. III tuslanishdagi fe’llarning buyruq mayli qanday hosil qilinadi?

II. 14-§ dagi fe’llarni yod oling.

III. Chap ustundagi lotincha so‘zlarning o‘ng ustundagi o‘zbekcha ekvivalentlarini toping.

- | | |
|----------------|--------------------------|
| 1) dare | a) eritmoq |
| 2) sterilisare | b) aralashtirmoq |
| 3) solvere | c) surtmoq |
| 4) depurare | d) bermoq |
| 5) formare | e) qo‘shmoq |
| 6) extendere | f) tashkil etmoq |
| 7) vertere | g) olmoq |
| 8) addere | h) sterilizatsiya qilmoq |
| 9) recipere | i) aylantirmoq, buramoq |
| 10) miscere | j) tozalamoq |

IV. Quyidagi fe’llarning buyruq maylini hosil qiling.

servare, refrigerare, continere, finire.

V. Quyidagi hikmatlarni yod oling!

1. In via est in medicina via sine lingua latina.– Lotin tilisiz tibbiyotga yo‘l yo‘q.

2. Aliis inserviando consumidor.- O‘zgalarga nur berib, o‘zim ado bo‘laman.

VI. To‘g‘ri o‘qishni o‘rganing!

Enfluran, Trichloroethylenum, Aethylchloridum, Cyclopropane, Hexenalum, Cyclobarbitalum solubile, Endodorm, Methylhexarbitalum,

Thiopentalum-natrium, Farmotal, Intraval, Ketamini hydrochloridum, Velonarcon, Methohexital, Propanidide, Sombrevin, Nitrozepam, Nitrenpax, Hipnax, Calsmin, Dormicum, Pacisyn, Nitrosam, Serenex, Flunitrazepam, Narcozep, Sedex, Nuctanol, Lendormin, Halcion, Chlorazolam, Bromisovalum, Zolpidem, Doxylamine, Hemineurin, Phenobarbitalum, Benzonalum, Trimethinum, Ethosuximidum, Puphemidum, Carbamazepine, Acediprolum, Lamotrigine, Felbamate, Chloraconum, Chlorali hydras, Methindionum, Mydocalm, Baclofen, Tizanidine, Myolgin, Aminazinum, Levomepromazine, Metherazinum, Aethaperazinum, Triftazinum, Phthorphenazinum decanoate, Pipotiazine, Thioridazine.

5-dars

15-§. Ot

Predmet nomini bildirib, kim? nima? savollariga javob beradigan soʻz turkumiga ot deyiladi. Otlar lotin tilida uchta rodga ega:

genus masculinum - mujskoy rod,

genus femininum - jenskiy rod,

genus neutrum - sredniy rod.

Otlarning rodleri lugʻatda maxsus harflar yordamida belgilanadi:

m -mujskoy rod,

f - jenskiy rod,

n - sredniy rod.

Lotin tilida otlar ikkita songa ega:

Numerus Singularis - birlik son,

Numerus Pluralis - koʻplik son.

Lotin tilida ham xuddi oʻzbek tilidagidek oltita kelishik mavjud. Farmatsevtika atamashunosligida otlar asosan beshta kelishik boʻyicha turlanadi:

Casus Nominativus – bosh kelishik – kim? nima?

Casus Genetivus – qaratqich kelishigi – kimning? nimaning?

Casus Dativus – joʻnalish kelishigi – kimga? nimaga?

Casus Accusativus – tushum kelishigi – kimni? nimani?


Casus Ablativus – chiqish kelishigi – kimdan? nimadan?

Lotin tilida otlar beshta turlanishga boʻlinadi. Turlanish turi qaratqich kelishigi (**Genetivus Singularis**) ning birlik sondagi kelishik qoʻshimchasiga qarab aniqlanadi.

**Genetivus Singularisning turlanish qo‘shimchalarini
yod oling!**

Turlanish	Gen. Sing.
I	ae
II	i
III	is
IV	us
V	ei

Otlar turlanishlar bo‘yicha quyidagicha taqsimlanadi:



Lug‘atda otlar bosh kelishik birlik soni (**Nominativus Singularis**) da yoziladi, keyin qaratqich kelishigining birlikdagi (**Genetivus Singularis**) qo‘shimchasi va rodi ko‘rsatiladi:

planta, ae, f – I turlanishdagi ot
 sirupus, i, m – II turlanishdagi ot
 liquor, is, m – III turlanishdagi ot
 fructus, us, m – IV turlanishdagi ot
 res, ei, f – V turlanishdagi ot

Otlarni turlashda ularning negizini aniqlay bilish lozim. Otlarning negizini aniqlash uchun **Genetivus Singularis** shaklidan kelishik qo‘shimchasini olib tashlash kerak.

Nom. Sing.	Gen. Sing.	Negizi
betula	betulae	betul
sirupus	sirupi	sirup
liquor	liquoris	liquor
spiritus	spiritus	spirit
species	speciei	speci

Mashqlar

19-mashq. Otlarni o'qing va rodini ayting.

Papaverinum, n; percolatio, f; hepar, n; fructus, m; Plantago, f; cina, f; pulvis, m; gemma, f; Natrium, n; nota, f; provisor, m; antidotum, n; apis, f; Triticum, n; planta, f; patria, f.

20-mashq. Jenskiy roddagi otlarni ko'rsating.

- | | |
|-------------------------|--------------|
| 1) Oryza , f | 4) sorbus, f |
| 2) os, n | 5) hortus, m |
| 3) manus, f | 6) Salep, n. |

21-mashq. Otlarning turlanishini va rodini aniqlang.

- | | |
|----------------------|---------------------|
| 1) Rheum, i, n | 7) Quercus, us, f |
| 2) Chamomilla, ae, f | 8) resina, ae, f |
| 3) Hydrargyrum, i, n | 9) succus, i, m |
| 4) species, ei, f | 10) spiritus, us, m |
| 5) familia, ae, f | 11) serum, i, n |
| 6) sepsis, is, f | 12) creta, ae, f. |

22-mashq. IV turlanishidagi otlarni ko'rsating.

- | | |
|-------------------|------------------|
| 1) globulus, i, m | 4) morbus, i, m |
| 2) habitus, us, m | 5) exitus, us, m |
| 3) sirupus, i, m | 6) succus, i, m. |

23-mashq. II turlanishdagi sredniy roddagi otlarni ko'rsating.

- | | |
|--------------------|-------------------|
| 1) Magnolia, ae, f | 5) decoctum, i, n |
| 2) Ferrum, i, n | 6) ampulla, ae, f |
| 3) aegrotus, i, m | 7) Secale, is, n |
| 4) cornu, us, n | 8) acidum, i, n. |

24-mashq. *Quyidagi Genetivus Singularis da berilgan otlarni ko'chirib yozing, negizini toping va turlanishini ko'rsating.*

Guttae, dosis, infusi, usus, decocti, officinae, carbonis, gustus, emplastri, scabiei.

Namuna:

Genetivus Singularis	Negizi	Turlanishi
plantae	plant	I

25-mashq. *Quyidagi otlarni turlanishlari va rodlari bo'yicha ustunlarga yozing.*

Belladonna, ae, f; Iodum, i, n; tussis, is, f; herba, ae, f; cutis, is, f; Urtica, ae, f; glacies, ei, f; Linum, i, n; habitus, us, m; Oxycoccus, i, m; charta, ae, f; acus, us, f; remedium, i, n; diagnosis, is, f; acetum, i, n; dies, ei, f; hibes, is, n; species, ei, f.

16-§. I turlanishdagi otlar

I turlanishga bosh kelishik birlik soni (**Nominativus Singularis**) da -a, qaratqich kelishik birlik soni (**Genetivus Singularis**) da -ae qo'shimchasiga ega bo'lgan jenskiy roddagi otlar kiradi.

Masalan: gemma, ae, f; aqua, ae, f.

I turlanishdagi otlarning kelishik qo'shimchalari

Casus	Singularis	Pluralis
Nom.	a	ae
Gen.	ae	arum
Dat.	ae	is
Acc.	am	as
Abl.	a	is

Turlanish namunasi

Casus	Singularis	Pluralis
Nom.	gemma	gemmae
Gen.	gemmae	gemmarum
Dat.	gemmae	gemmis
Acc.	gemmam	gemmas
Abl.	gemma	gemmis

Eslab qoling!

Lotin farmatsevtika atamashunosligida dori nomlari va dorivor o'simliklar nomi bosh harf bilan yoziladi.

Masalan: Analginum, i, n - analgin
Betula, ae, f - qayin.

17-§. Quyidagi otlarni yod oling!

tinctura, ae, f - nastoyka ✓
mixtura, ae, f - mikstura
aqua, ae, f - suv ✓
tabuletta, ae, f - tabletka ✓
herba, ae, f - o't, yer ustki qism ✓
tela, ae, f - doka ✓
cera, ae, f - mum ✓
pilula, ae, f - hab dori ✓
scatula, ae, f - quticha ✓
planta, ae, f - o'simlik ✓
gemma, ae, f - kurtak ✓
massa, ae, f - massa ✓
gutta, ae, f - tomchi ✓
gelatina, ae, f - jelatin ✓
glandula, ae, f - bez ✓
materia, ae, f - modda ✓
Valeriana, ae, f - valeriana ✓
Betula, ae, f - qayin ✓
Tilia, ae, f - jo'ka
Farfara, ae, f - oqqaldirmoq
Convallaria, ae, f - marvaridgul
Senna, ae, f - sano
Mentha, ae, f - yalpiz ✓
Chamomilla, ae, f - moychechak
Belladonna, ae, f - belladonna
Urtica, ae, f - gazanda, chayono't
Calendula, ae, f - tirnoqgul ✓

Mashqlar

26-mashq. Jadvaldan foydalanib, quyidagi otlarning bosh va qaratqich kelishik, birlik va ko'plik son shakllarini hosil qiling.
Nastoyka, tabletka, suv, massa, o'simlik, modda.

Namuna:

Nom.Sing.	Turl.	Rod	Gen.Sing.	Nom. Plur.	Gen. Plur.
gemma- kurtak	I	f	gemmae- kurtakning	gemmae- kurtaklar	gemmarum- kurtaklarning


27 –mashq. *O'zbek tiliga tarjima qiling.*

- 1.Date mixturam aegrotae.
2. Colligite plantas.
3. Praeparate tincturas.
4. Depura ceram.
5. Filtra tincturam.
6. Formate pilulas.
7. Exsiccate gemmas.
8. Lavate ollas.
9. Sterilise telam.
10. Da guttas aegrotas.

28 –mashq. *Lotin tiliga tarjima qiling.*

1. Nastoykani tayyorlang.
2. Tabletkani bering.
3. Miksturani bering.
4. Yer ustki qismini yig'ing va quriting.
5. Suvni distillyatsiya qiling.
6. Miksturani suzib tindiring.
7. Bintga surting.
8. Dokani sterillang.

29-mashq. *Quyidagi ot mavzusi bo'yicha berilgan klasterni davom ettiring.*



Uyga vazifa

I. *“Ot va I turlanishdagi otlar” mavzularini o'zlashtirib oling va quyidagi savollar yordamida bilimlaringizni tekshirib ko'ring.*

1. Lotin tilida otlar nechta rodga ega?
2. Lug'atda otlarning rod belgisi qanday ko'rsatiladi?
3. Otlar nechta songa ega?
4. Farmatsevtika atamashunosligida qaysi kelishiklar ko'p qo'llaniladi?
5. Otlarning turlanishi qaysi kelishik qo'shimchasiga qarab aniqlanadi?

6. Otlarning lugʻat shakli qanday yoziladi?
7. Qaysi otlar I turlanishga kiradi?
8. Rod, son va kelishiklarning lotincha nomlarini ayting.

II. 17- § dagi soʻzlarni yod oling.

III. Chap ustundagi lotincha soʻzlarning oʻng ustundagi ekvivalentlarini toping.

- | | |
|-----------------------|-------------------------|
| 1) aqua | a) kurtak |
| 2) gutta | b) joʻka |
| 3) herba | c) valeriana |
| 4) cera | d) yalpiz |
| 5) gemma | e) gazanda, chayonoʻt |
| 6) pilula | f) oʻt, yer ustki qismi |
| 7) Betula | g) nastoyka |
| 8) Valeriana | h) oʻsimlik |
| 9) glandula | i) doka |
| 10) planta | j) moychechak |
| 11) Convallaria | k) suv |
| 12) Montha | l) quticha |
| 13) Chamomilla | m) qayin |
| 14) Urtica | n) marvaridgul |
| 15) Calendula | o) tomchi |
| 16) scatula | p) modda |
| 17) Tilia | q) hab dori |
| 18) tinctura | r) bez |
| 19) tela | s) tirnoqgul |
| 20) materia | t) mum |

IV. Quyidagi otlarning bosh va qaratqich kelishik, birlik va koʻplik son shakllarini hosil qiling: hab dori, yer ustki qismi, mikstura.

V. Quyidagi hikmatlarni yod oling!

1. Dulce et decorum est pro patria mori. – Vatan uchun jon bermoq baxt va sharafdir.

2. Radices doctrinae amarae, fructus dulces sunt. – Ilmning ildizi achchiq, mevasi shirindir.

VI. Toʻgʻri oʻqishni oʻrganing!

Chlorprothixene, Zuclopentixol, Haloperidolè, Thalamonal, Fluspiriline, Penfluridole, Azaleptinum, Carbidinum, Sulpiride, Sibazonum, Nozepamum,

Gidazepamum, Alprazolam, Amizylum, Hydroxyzine, Oxylidinum, Mebicarum, Stressplant, rhizoma cum radicibus Valerianae, Valocormidum, Valosedan, Corvalolum, Valocordin, Dormiplant, Bromcamphora, Pyrazidolum, Tetrindolum, Incazanum, Befolum, Imipraminum, Amitriptyline, Damileni maleinas, Phthoracizinum, Fluoxetine, Fluvoxamine, Sydnophenum, Lithii carbonas, Lithii oxybutyras, Pyracetam, Aminalonum, Pantoganum, Picamilonum, Pyriditolum, Acephenum, Memoplant, Coffeinum natrio – benzoicum, Aethimizolum, Bemithylum, Phenaminum, Sydnocarbium, Sulfocamphocainum, Cordiaminum, Cytisinum, Anabasinum hydrochloridum, Strychninum.

6-dars

18- §. Aniqlovchi

Latin tilida moslashgan va moslashmagan aniqlovchilar qoʻllaniladi. Moslashgan aniqlovchi sifat bilan ifodalanadi va aniqlanuvchi soʻz bilan bir xil rod, son va kelishikda turadi. U “qanday?”, “qanaqa?” degan savollarga javob beradi. Masalan:

oq mum

Moslashmagan aniqlovchi qaratqich kelishigidagi ot bilan ifodalanadi va “nimaning?” degan savolga javob beradi. Masalan:


valeriananing nastoykasi
(valeriana nastoykasi)

Farmatsevtika atamashunosligida atamalarning ikki asosiy turini ajratish mumkin:

moslashgan aniqlovchili atama;
moslashmagan aniqlovchili atama.

Atamalarning har bir turiga shartli tasvir tuzish mumkin:


1. Moslashgan aniqlovchili atama:



Otni O, sifatni S deb belgilaymiz. Atamaning shartli tasviri quyidagicha boʻladi:

.O → S (Nom.)

2. Moslashmagan aniqlovchili atama:




Mashq

30–mashq. *Quyidagi atamalarning shartli tasvirini tuzib, ularning qanday aniqlovchili atama ekanligini aniqlang.*

Yalpiz suvi, cho‘ktirilgan oltingugurt, qaytarilgan temir, jelatinli kapsula, isitmani tushiradigan mikstura, amidopirin tabletkasi, qayin kurtagi, moyli emulsiya, suvsiz lanolin, oqqaldirmoq barglari, novokain eritmasi, analgin tabletkasi.

19-§. Moslashmagan aniqlovchili atamalarni tarjima qilish

Atamani tarjima qilish uchun avval uning shartli tasvirini tuzamiz:



Shartli tasvirga ko‘ra, birinchi ot “nastoyka”ni lotin tiliga tarjima qilganda bosh kelishikda, ikkinchi ot “valeriana”ni qaratqich kelishikda yozishimiz kerak. Tarjima qilamiz: Nom. tinctura Valerianae

Moslashmagan aniqlovchili atamani kelishiklar bo‘yicha turlaganda faqat aniqlanuvchi so‘z o‘zgarib, moslashmagan aniqlovchi esa o‘zgarmasdan qoladi.

Nom. tinctura Valerianae

Gen. tincturae Valerianae.

20 -§. Quyidagi otlarni yod oling!

bacca, ae, f - rezavor meva, danaksiz meva ✓
officina, ae, f - dorixona ✓
ampulla, ae, f - ampula ✓
lingua, ae, f - til ✓
capsula, ae, f - kapsula ✓
pasta, ae, f - pasta ✓
spongia, ae, f - gubka ✓
membranulla, ae, f - parda ✓
camphora, ae, f - kamfora ✓
charta ae, f - qog'oz ✓
Althaea, ae, f - gulxayri
Rubia, ae, f - ro'yan
Glycyrrhiza, ae, f - shirinmiya, qizilmiya
Liquiritia, ae, f - shirinmiya, qizilmiya
Aralia, ae, f - araliya
Sterculia, ae, f - sterkuliya
Salvia, ae, f - mavrak
Tormentilla, ae, f - g'ozpanja
Schizandra, ae, f - limonnik
Sophora, ae, f - tuxumak
Arnica, ae, f - arnika
Ephedra, ae, f - efedra, qizilcha
Gentiana, ae, f - gazako't, erbahosi
Eucommia, ae, f - evkommiya, xitoy guttapercha daraxti
Amygdala, ae, f - bodom
massa pilularum,
massae pilularum - habdori massasi

Mashqlar

31-mashq. *Atamalarning shartli tasvirini tuzib, Nom. va Gen. da lotin tiliga tarjima qiling.*

- | | |
|------------------------------------|--------------------------|
| 1) tirmoqgul nastoykasi | 5) gazako't nastoykasi |
| 2) yalpiz tabletkasi | 6) yalpiz suvi |
| 3) marvaridgulning yer ustki qismi | 7) bodom suvi |
| 4) arnika nastoykasi | 8) belladonna nastoykasi |

pro - uchun - pro aqua - suv uchun;
ex - dan - ex aqua - suvdan;
cum – bilan - cum aqua - suv bilan.

Accusativus va Ablativus da ishlatiladigan predloglar:

in - ga, - da - in aquam - suvga (Acc.)

in aqua - suvda (Abl.)

sub - ostiga, ostida -sub linguam - til ostiga (Acc.)

sub lingua - til ostida (Abl.).

22- §. Bog‘lovchilar

et - va - tinctura et mixtura - nastoyka va mikstura

aut - yoki Convallaria aut Valeriana (ikki xil ma‘noni anglatuvchi so‘zlar o‘rtasiga qo‘yiladi) - marvaridgul yoki belladonna

seu - yoki - Glycyrrhiza seu Liquiritia (bir xil ma‘noni anglatuvchi ya‘ni sinonim so‘zlar o‘rtasiga qo‘yiladi) – shirinmiya yoki qizilmiya.

Mashqlar

35-mashq. Lotin tiliga tarjima qiling.

- | | |
|--------------------------|---------------------------|
| 1) qog‘oz orqali | 6) ro‘yandan |
| 2) nastoykaga | 7) arnika yoki araliya |
| 3) jelatindan | 8) tabletka va ampula |
| 4) rezavor mevalar bilan | 9) dorixonaga |
| 5) mavrakdan | 10) yer ustki qismi bilan |

36-mashq. Chap ustundagi lotincha so‘zlarning o‘ng ustundagi o‘zbekcha ekvivalentlarini toping.

- | | |
|-----------------|-------------------|
| 1) in capsulam | a) til ostida |
| 2) in capsula | b) kapsulada |
| 3) sub chartam | c) qog‘oz ostida |
| 4) sub charta | d) dorixonaga |
| 5) in officinam | e) quticha ostiga |
| 6) in officina | f) kapsulaga |
| 7) sub scatulam | g) dorixonada |
| 8) sub scatula | h) til ostiga |
| 9) sub linguam | i) quticha ostida |
| 10) sub lingua | j) qog‘oz ostiga |

37- mashq. O'zbek tiliga tarjima qiling.

1. Miscete tincturam Valerianae cum tinctura Convallariae. 2. Praeparate capsulas ex gelatina. 3. Filtrate mixturam per chartam. 4. Date aegrotae ampullas cum camphora. 5. Colligite et exsiccate herbas ad officinam. 6. Ponite tabulettam in aquam. 7. Aralia aut Sterculia. 8. Glycyrrhiza seti Liquiritia.

38-mashq. Nuqtalar o'rniga predloglardan mosini qo'yib gaplarni yozing va ularni o'zbek tiliga tarjima qiling.

- | | |
|-----------------------|------------------|
| 1. Sumite tabulettam | horam. |
| 2. Date pilulas | scatula. |
| 3. Praeparate pilulas | massa pilularum. |
| 4. Date ollam | gemmis Betulae. |
| 5. Solve tabulettam | aqua. |

Uyga vazifa

I. "Aniqlovchi; moslashmagan aniqlovchili atamalarni tarjima qilish; predlog va bog'lovchilar" mavzularini o'zlashtirib oling va quyidagi savollar yordamida bilimlaringizni tekshirib ko'ring.

1. Qanday aniqlovchilarni bilasiz?

2. Moslashgan aniqlovchi deb qanday aniqlovchiga aytiladi?
3. Moslashmagan aniqlovchi qaysi so'z turkumi bilan ifodalanadi?
4. Moslashmagan aniqlovchili atama lotin tiliga qanday tarjima qilinadi?
5. Accusativus bilan qaysi predloglar ishlatiladi?
6. Qaysi predloglar Ablativus da ishlatiladi?
7. Qaysi bog'lovchilarni bilasiz?

II. 20-§ dagi so'zlarni yod oling.

III. Chap ustundagi lotincha so'zlarning o'ng ustundagi ekvivalentlarini toping.

- | | |
|-----------------|--------------------------|
| 1) lingua | a) rezavor meva |
| 2) Rubia | b) g'ozpanja |
| 3) Sophora | c) qog'oz |
| 4) bacca | d) limonnik |
| 5) charta | e) til |
| 6) Glycyrrhiza | f) bodom |
| 7) Schizandra | g) tuxumak |
| 8) Amygdala | h) gazako't, erbahosi |
| 9) Gentiana | i) ro'yan |
| 10) Tormentilla | j) shirinmiya, qizilmiya |

IV. *Atamalarining shartli tasvirini tuzib, Nom. va Gen. da lotin tiliga tarjima qiling*

- | | |
|------------------------|--------------------------------|
| 1) limonnik nastoykasi | 3) jelatin massasi |
| 2) araliya nastoykasi | 4) efedraning yer ustki qismi. |

V. *Quyidagi hikmatlarni yod oling!*

1. Mens sana in corpore sano. – Sog'lom tanda sog' aql.
2. Ignoscite saepe alteri, nunquam tibi. – O'zgalarni ko'p kechir, o'zingni aslo.

VI. *To'g'ri o'qishni o'rganing!*

Johimbine, ^{radix}radix Ginseng, ^{ginsana}Ginsana, ^{ecdystenum}Ecdystenum, ^{pentocrinum}Pantocrinum, Cyclodolum, ^{ethylmorphinum}Aethylmorphinum, ^{omnophonum}Omnophonum, ^{morphilongum}Morphilongum, Codeini phosphas, Aethylmorphini hydrochloridum, Nalorphine Hydrochloride, Pentazocine, Butorphanol, Promedolum, Phentanylum, Remifentanil, Aesthocinum, Naloxone, Hydrochloride, Antipyrimum, Propyphenazone, Paracetamol, Ketorolac, Acidum acetylsalicylicum, Natrii salicylas, Methylli salicylas, Butadionum, Ibuprofen, Ortophenum, Naproxen, Piroxicam, Acidum mephenamicum, Sulindac, Diflunisal, Meloxicam, Dimexidum, Chole conservata medicata, Bishofit, Glaucini hydrochloridum, Broncholytin, Bithiodinum, Libexin, Apomorphinum, Dimethpramidum, Ondansetron, Granisetron, Acetylcholinum, Carbocholinum, Cisapride, Pilocarpinum.

7-dars

23-§. Aniqlik va majhullik nisbatlari

Lotin tilida fe'llarning ikkita nisbati bor:

- aniqlik nisbati (Activum)
- majhullik nisbati (Passivum).

Lotin farmatsevtika atamashunosligida aniqlik va majhullik nisbatidagi fe'llar hozirgi zamon III shaxsda qo'llaniladi.

Aniqlik nisbati III shaxs birlik sonini hosil qilish uchun fe'l negiziga - t, ko'plik sonini hosil qilish uchun esa - nt qo'shimchasini qo'shish lozim.

Majhullik nisbati III shaxs birlik sonini hosil qilish uchun fe'l negiziga -tur, ko'plik sonini hosil qilish uchun esa -ntur qo'shimchasini qo'shish lozim.

III shaxs	Activum	Passivum
Singularis	t	tur
Pluralis	nt	ntur

I tuslanish

Dare-bermoq (negizi-da)

Activum

III shaxs birlik

dat –u berayapti

III shaxs ko'plik

dant – ular berishayapti

Passivum

III shaxs birlik

datur – berilsin

III shaxs ko'plik

dantur – berilsin

II tuslanish

Miscere - aralashtirmoq (negizi - misce)

Activum

III shaxs birlik

miscet – u aralashtirayapti

III shaxs ko'plik

miscent – ular aralashtirishayapti

Passivum

III shaxs birlik

miscetur – aralashtirilsin

III shaxs ko'plik

miscentur – aralashtirilsin

III tuslanish

Fe'l negiziga birlik sonda i, ko'plikda – u harflari qo'shiladi.

Solvere - eritmoq (negizi - solv)

Activum

III shaxs birlik

solvit – u eritayapti

III shaxs ko'plik

solvunt – ular eritishayapti

Passivum

III shaxs birlik

solvitur – eritilsin

III shaxs ko'plik

solvuntur – eritilsin

IV tuslanish

Ko'plikda fe'l negizi bilan qo'shimchalarni birlashtiruvchi -u harfi qo'shiladi.

Audire – eshitmoq (negizi – audi)

Activum

III shaxs birlik

audit – eshitayapti

III shaxs ko'plik

audiunt – ular eshitishayapti

Passivum

III shaxs birlik

auditur – eshitilsin

III shaxs ko'plik

audiuntur – eshitilsin.

24-§. Esse - bor bo'lmoq fe'li

Esse - bor bo'lmoq yordamchi fe'lining hozirgi zamon III shaxsda tuslanishi quyidagicha:

Birlik

est - u bor

Ko'plik

sunt - ular borlar.

25-§. Gapda so'zlarning tartibi

Lotin tilida gaplardagi so'zlarning tartibi erkindir. Gaplarda birinchi o'rinda ega, o'rtasida to'ldiruvchi, oxirida kesim keladi.

Masalan: Aegrota tabulettam sumit.- Bemor tabletka qabul qilayapti.

Mashqlar

39-mashq. Jadvaldan foydalanib, quyidagi fe'llarning hozirgi zamon shaklini hosil qiling.

belgilamoq, bo'lmoq, sterilizatsiya qilmoq, surtmoq, tamomlamoq, qabul qilmoq, suzmoq.

Namuna:

Fe'l	Negizi	Praes. Ind. Activi		Praes. Ind Passivi	
		III shaxs birlik	IIIshaxs ko'plik	III shaxs birlik	III shaxs ko'plik
parare	para	parat- u tayyor- layapti	parant - ular tayyorla- shayapti	paratur - tayyorlansin	paratur - tayyorlan- sin

40-mashq. O'zbek tiliga tarjima qiling. Aniqlik nisbatidagi fe'llarning tagiga bitta chiziq, majhullik nisbatidagi fe'llarning tagiga ikkita chiziq chizing.

1. Collam coquit. 2. Colla coquitur. 3. Pilulas conspergunt. 4. Pilulae consperguntur. 5. Massam gelatinae refrigerat. 6. Massa gelatinae refrigeratur. 7. Tincturam Valerianae sumit. 8. Tinctura Valerianae sumitur. 9. Gemmas Betulae servat. 10. Gemmae Betulae servantur. 11. Herbam Convallariae concidit. 12. Herba Convallariae conciditur.

26-§. Retsept va uning tuzilishi

Retsept - shifokorning dori tayyorlash kerakligi to'g'risida dorixonaga xat orqali murojaat qilishi.

Retsept so‘zi “receptum” – “olingan” so‘zidan kelib chiqqan.

Retsept rasmiy hujjat bo‘lib, uni yozgan shifokor, shu bilan birga dorini tayyorlab bergan dorishunos ham retseptning to‘g‘riligi uchun yuridik jihatdan javobgardir. Retseptlar yagona nusxali maxsus varaqalarda aniq va ravshan yozilgan bo‘lishi lozim. Retseptlardagi so‘zlarni tuzatish yoki o‘zgartirishga ruxsat etilmaydi.

Retsept to‘qqiz qismdan iborat:

1. Davolash muassasasining manzili va telefon raqami.
2. “Bolalar uchun” yoki “Kattalar uchun” belgilari.
3. Retsept yozilgan kun, oy, yil.
4. Bemorning ismi, sharifi va yoshi.
5. Shifokorning ismi sharifi.
6. Dorining nomi va miqdori.
7. Farmatsevtga ko‘rsatma.
8. Dorini qabul qilish usuli.
9. Shifokorning imzosi va shaxsiy muhri.

Retseptning oltinchi qismi lotincha qismi bo‘lib, u Recipe – ol (recipere–olmoq fe‘lining buyruq shakli) so‘zidan boshlanadi.

Recipe – so‘zidan keyin yozib berilayotgan dori tarkibiga kiradigan dori moddalarining nomi yoziladi. Har bir ingridiyentning nomi qaratqich kelishikda yangi satrdan bosh harf bilan yoziladi.

Recipe: Tincturae Valerianae 10 ml

Tincturae Convallariae 15 ml

Agar ikki dori moddasining miqdori bir xil bo‘lsa, unda ikkinchi dori nomidan keyin ana – teng miqdorda (qisqacha $\bar{a}\bar{a}$) so‘zi yozilib, so‘ngra dori miqdori ko‘rsatiladi:

Recipe: Tincturae Convallariae

Tincturae Valerianae ana 10 ml

Grammlar va millilitrlar arab raqamlari bilan ko‘rsatib yoziladi: 4,0; 0,5; 0,01 va boshqalar.

Tomchilar miqdori rim raqamlari bilan ko‘rsatiladi. gtt. V (guttas – tomchilar).

Dori moddalarining biologik ta‘sir birligi qisqacha BT shaklida, soni esa arab raqamlari bilan yoziladi.

Retseptning lotincha qismi Da – ber, Signa – belgila so‘zlari bilan tamomlanadi.

27-§. Quyidagi otlarni yod oling!

axungia, ae, f – yog‘, moy ✓
colla, ae, f – yelim ✓
cella, ae, f – hujayra ✓
cellula, ae, f – hujayracha ✓
Terebinthina, ae, f – terpentin
Scopolia, ae, f – skopoliya
Frangula, ae, f – frangula
Polygala, ae, f – istod
Oliva, ae, f – zaytun ✓
Cucurbita, ae, f – qovoq ✓
Inula, ae, f – andiz
Sanguisorba, ae, f – sangvizorba
Rosa, ae, f – na‘matak
Passiflora, ae, f – passiflora
Leuzea, ae, f – levzeyya
Bistorta, ae, f – flonimon toron
Armeniaca, ae, f – o‘rik ✓

28-§. Quyidagi yunonchadan o‘tgan otlarni yod oling!

Aloë, es, f – aloy
Hippophaë, es, f – chakonda
Kalanchoë, es, f – kalanxoy
chole, es, f – o‘t, safro

29 -§. Quyidagi retsept iboralarini eslab qoling!

Da in capsulis.– Kapsula shaklida ber.
Da in tabulettis.– Tabletk shaklida ber.
Da in ampullis.– Ampulada ber.
Da in charta.– Qog‘ozda ber.
Da in scatula. – Qutichada ber.

Retseptlarni tarjima qiling!

1. Recipe: Tincturae Schizandrae 50 ml

Da.

Signa: Kuniga 3 marta 15 tomchidan ichilsin.

2. Recipe: Tincturae Araliae 50 ml
Da.
Signa: Kuniga 3 marta 20 tomchidan ichilsin.
3. Recipe: Tincturae Sterculiae 50 ml
Da.
Signa: Kuniga 3 marta 20 tomchidan ichilsin.
4. Oling: Arnika nastoykasidan 25 ml
Bering.
Belgilang: Kuniga 3 marta 20 tomchidan ichilsin.
5. Oling: Marvaridgul nastoykasidan 15 ml
Bering.
Belgilang: Kuniga 3 marta 20 tomchidan ichilsin.
6. Oling: Qayin kurtagidan
Bering.
Belgilang: 1 osh qoshiq kurtak 1 stakan suvda damlansin.
Kuniga 3 marta 2 osh qoshiqdan ichilsin.
7. Oling: Belladonna nastoykasidan 20 ml
Bering.
Belgilang: Kuniga 3 marta 15-20 tomchidan ichilsin.
8. Oling: Marvaridgul nastoykasidan 10 ml
Valeriana nastoykasidan 10 ml
Aralashtiring. Bering.
Belgilang: Kuniga 3 marta 15-20 tomchidan ichilsin.

Uyga vazifa

I. "Aniqlik va majhullik nisbatlari; retsept va uning tuzilishi" mavzularini o'zlashtirib oling va quyidagi savollar yordamida bilimlaringizni tekshirib ko'ring.

1. Aniqlik va majhullik nisbatlarining III shaxs birlik va ko'plik sonlari qanday hosil qilinadi?
2. Retsept deganda nimani tushunasiz?
3. Retsept necha qismdan iborat?
4. Retseptning lotincha qismi qaysi so'zlar bilan boshlanib, qaysi so'zlar bilan tugaydi?
5. Dorini tezlik bilan tayyorlash lozim bo'lsa qanday lotincha so'zlar yoziladi?
6. Retseptda dori moddalarining nomi qaysi kelishikda yoziladi?
7. Oddiy va murakkab retseptlar deganda nimani tushunasiz?

II. 27, 28, 29- §§ dagi so'z va so'z iboralarini yod oling.

III. Chap ustundagi lotincha so'zlarning o'ng ustundagi o'zbekcha ekvivalentlarini toping.

- | | |
|------------------|--------------------|
| 1) cella | a) zaytun |
| 2) axungia | b) o't; safro |
| 3) Oliva | c) ilonsimon toron |
| 4) Cucurbita | d) hujayra |
| 5) Rosa | e) chakanda |
| 6) Bistorta | f) istod |
| 7) Hippophaë | g) yog', moy |
| 8) chole | h) terpentin |
| 9) Polygala | i) qovoq |
| 10) Terebinthina | j) na'matak |

IV. Jadval yordamida quyidagi otlarning bosh va qaratqich kelishik, birlik va ko'plik son shakllarini hosil qiling: yelim, hujayra, zaytun.

Namuna:

Nom. Sing.	Turl.	Rod.	Gen. Sing.	Nom. Plur.	Gen. Plur.
aqua – suv	I	f	aquae- suvning	aquae- suvlar	aquarum- suvhlarning

V. Atamalarining shartli tasvirini tuzib, Nom. va Gen. da lotin tiliga tarjima qiling.

1) qayin kurtagi 2) zaytun moyi

VI. Quyidagi hikmatlarni yod oling!

1. Qui non laborat, non manducet. – Ishlamagan tishlamaydi.

2. Quilibet fortunae suae faber. – Har kim o'z baxtini o'zi yaratadi.

VII. Retseptlarni tarjima qiling.

1. Recipe: Tincturae Menthae 50 ml

Da.

Signa: Kuniga 3 marta 20 tomchidan ichilsin.

2. Recipe: Tincturae Arnicae 25 ml

Da.

Signa: Kuniga 3 marta 20 tomchidan ichilsin.

3. Oling: Valeriana nastoykasidan 30 ml

Bering.

Belgilang: Kuniga 3 marta 20 tomchidan ichilsin.

4. Oling: Sofora nastoykasidan 20 ml

Bering.

Belgilang: Kuniga 3 marta 15-20 tomchidan ichilsin.

VII. To'g'ri o'qishni o'rganing!

Physostigminum, Galanthaminum, Proserinum, Pyridostigmini bromidum, Oxazylum, Chinotilinum, Aminostigminum, Steptagabrin sulfas, Desoxyepanini hydrochloridum, Alloxinum, Izonitrozinum, Methacinum, Diaethixinum, Scopolaminum, Aprophenum, Homatropini hydrobromidum, Platyphyllinum, Spasmolytinum, Buscopan, Chlorozylum, Cyclozylum, Fubromeganum, Tropicamide, Cyclopentolat, Ipratropium bromide, Troventotolum, Pirenzepine, Benzohexonium, Pentaminum, Imechinum, Hygronium, Camphonium, Pirilenum, Pachycarpinum, Temechinum, Tubocurarine Chloride, Diplacinum, Pipecuronium Bromide, Atracurium, Qualidilum, Mellictinum, Dithylinum, Dioxonium, Adrenalini hydrotartras, Phethanolum, Ephedrinum, Naphthyzinum, Xylometazoline, Orciprenalini sulfas, Hexoprenaline, Dihydroergotaminum.

8-dars

30-§. II turlanishdagi otlar

II turlanishdagi otlarga birlikdagi qaratqich kelishigi (Genetivus Singularis) da - i qo'shimchasiga ega bo'lgan mujskoy va sredniy roddagi otlar kiradi. Bu otlar bosh kelishik birlik son (Nominativus Singularis) da mujskoy rodga kirs -us, -er, sredniy rodga kirs -um qo'shimchasiga ega bo'ladi. Masalan: succus, i, m
puer, i, m
decoctum, i, n.

Mujskoy roddagi otlarning kelishik qo'shimchalari

Casus	Sing.	Plur.
Nom.	us, er	i
Gen.	i	orum
Dat	o	is
Acc	um	os
Abl	o	is

Turlanish namunasi

Casus	Sing.	Plur.
Nom.	succus	succi
Gen.	succi	succorum
Dat	succo	succis
Acc	succum	succos
Abl	succo	succis

-er bilan tamomlanadigan ko'pchilik mujskoy roddagi otlarda turlanish vaqtida -e harfi, agar asosda bo'lmasa, tushib qoladi. Agar asosda -e harfi bo'lsa, kelishiklar bo'yicha turlanganda u saqlanib qoladi.

Turlanish namunasi

Casus	Sing.	Plur.
Nom.	puer	pueri
Gen.	pueri	puerorum
Dat	puero	pueris
Acc	puerum	pueros
Abl	puero	pueris

Casus	Sing.	Plur.
Nom.	magister	magistri
Gen.	magistri	magistorum
Dat	magistro	magistris
Acc	magistrum	magistros
Abl	magistro	magistris

31-§. Quyidagi otlarni yod oling!

- ✓ sirupus, i, m - sharbat ✓
- medicus, i, m - vrach, shifokor ✓
- succus, i, m - shira ✓
- numerus, i, m - son ✓
- ✓ globulus, i, m - sharcha ✓
- stilus, i, m - qalam ✓
- ✓ bacillus, i, m - tayoqcha ✓
- fungus, i, m - qo'ziqorin, zamburug' ✓
- ✓ Leonurus, i, m - arslonquyruq
- Helianthus, i, m - kungaboqar
- ✓ Strophanthus, i, m - strofant
- ✓ Thymus, i, m - tog'jambil
- Acorus calamus, i, m - oddiy igir
- Rubus(i) idaeus, i, m - malina
- ✓ Lagochilus, i, m - bozulbang, lagoxilus
- Ricinus, i, m - kanakunjut
- ✓ Eleutherococcus, i, m - eleuterokok
- Hyoscyamus, i, m - mingdevona
- ✓ Myrtillus, i, m - chernika

Mashqlar

41-mashq. *Quyidagi otlarning bosh va qaratqich kelishik, birlik va ko'plik son shakllarini jadval yordamida yozing.*

Shira, son, ampula, kapsula, qalam.

Namuna:

Nom.Sing.	Turl.	Rod	Gen. Sing.	Nom. Plur.	Gen. Plur.
sirupus-sharbat	II	m	sirupi-sharbatning	sirupi-sharbatlar	siruporum-sharbatlarining

42-mashq. *O'zbek tiliga tarjima qiling.*

- | | |
|------------------------------|----------------------------|
| 1) Nom. succus Kalanchoës | Gen. succi Kalanchoës |
| 2) Nom. tinctura Leonuri | Gen. tincturae Leonuri |
| 3) Nom sirupus Althaeae | Gen. sirupi Althaeae |
| 4) Nom.tinctura Strophanthi | Gen. tincturae Strophanthi |
| 5) Nom. sirupus Glycyrrhizae | Gen. sirupi Glycyrrhizae |
| 6) Nom. succus Aloës | Gen. succi Aloës. |

43-mashq. *Atamalarning shartli tasvirini tuzib, Nom. va Gen. da lotin tiliga tarjima qiling.*

- | | |
|-----------------------------------|--------------------------|
| 1) arslonqayning yeri ustki qismi | 5) malina sharbati |
| 2) gulxayri sharbati | 6) aloy shirasi |
| 3) chernika sharbati | 7) bozulbang nastoykasi. |
| 4) tog'jambil yeri ustki qismi | |

44-mashq. *O'zbek tiliga tarjima qiling.*

1. Medicus tincturam Leonuri praescribit.
2. Praeparate sirupum ex succo Rubi idaei.
3. Date aegroto tincturam Strophanthi.
4. Sirupi coquantur.
5. Addite in mixturam sirupum Rubi idaei.

Retseptlarni tarjima qiling!

1. Recipe: Tincturae Strychni 5 ml
Tincturae Convallariae 10 ml
Misce. Da.
Signa: Kuniga 2-3 marta 10 tomchidan ichilsin.

2. Recipe: Infusi herbae Leonuri 15,0: 200 ml

Da.

Signa: Kuniga 3 marta 1 osh qoshiqdan ichilsin.

3. Oling: Strofant nastoykasidan 5 ml

Marvaridgul nastoykasidan

Valeriana nastoykasidan teng miqdorda 10 ml. dan
Aralashtiring. Bering.

Belgilang: Kuniga 2-3 marta 20 tomchidan ichilsin.

4. Oling: Arslonquyruq nastoykasidan 50 ml

Bering.

Belgilang: Kuniga 2 marta 30 tomchidan ichilsin.

Uyga vazifa

I. «II turlanishdagi otlar» mavzusini o'zlashtirib oling. Mujskoy roddagi otlarning kelishik qo'shimchalarini yod oling. Quyidagi savollar yordamida bilimlaringizni tekshirib ko'ring.

1. II turlanishga qaysi otlar kiradi?

2. II turlanishdagi mujskoy roddagi otlar **Nom. Sing. va Gen. Sing.** da qanday qo'shimchalarga ega?

3. Mujskoy roddagi otlarning **Nom. Plur. va Gen. Plur.** qo'shimchalarini ayting.

II. 31-§ dagi so'zlarni yod oling.

III. Chap ustundagi lotincha so'zlarning o'ng ustundagi o'zbekcha ekvivalentlarini toping.

1) succus

a) arslonquyruq

2) numerus

b) vrach, shifokor

3) Leonurus

c) sharbat

4) Lagochilus

d) shira

5) sirupus

e) kungaboqar

6) Ricinus

f) qalam

7) Helianthus

g) son

8) bacillus

h) bozulbang

9) medicus

i) tayoqoqa

10) stilus

j) kanakunjut

IV. Quyidagi otlarning bosh va qaratqich kelishik, birlik va ko'plik son shakllarini jadval yordamida yozing: sharcha, arslonquyruq, kanakunjut.

V. *Atamalarining shartli tasvirini tuzib, Nom. va Gen. da lotin tiliga tarjima qiling.*

- 1) arslonquyruq nastoykasi 3) chernikaning rezavor mevalari
 2) kalanxoy shirasi 4) strofant nastoykasi.

VI. *Quyidagi hikmatlarni yod oling!*

1. Cedant arma togae. – Tinchlik oldida urush chekinsin.
 2. Si vera narretis, non opus sit testibus. – Agar haqiqatni gapirsangiz, guvohga hojat yo‘q.

VII. *To‘g‘ri o‘qishni o‘rganing!*

Dihydroergotoxinum, Sinepres, Vasobral, Nicergoline, Phentolaminum, Tropaphenum, Pyrroxanum, Butiroxanum, Prazosinum, Tamsulosin, Oxprenolol, Betaxolol, Labetalol, Proxofelinum, Dophaminum, Serotonini adipinas, Mexaminum, Sumatriptan, Lysuride, Methysergide, Pizotifen, Ketanserinum, Histaminum, Gastal, Pylorid, Histaglobulinum, Betahistine, Dimedrolum, Phencarolum, Bicarphenum, Diazolinum, Suprastin, Cyproheptadine, Protab, Fexofenadine, Cromolyn sodium, Ketotifenum, Anaesthesinum, Novocainum, Lidocaini hydrochloridum, Bupivacaine hydrochloride, Trimecainum, Pyromecainum, Benzofurocainum, Acidum tannicum, Tannalbinum, Amylum, Alumini hydroxydum, Almagel, Maalox, Fosfalugel, Sucralfate, Liguor Burovi, Alumen ustum, Bismuthi subnitras.

9-dars

32-§. II turlanish sredniy roddagi otlar

Kelishik qo‘shimchalari

Turlanish namunasi

Casus	Sing.	Plur.
Nom.	um	a
Gen.	i	orum
Dat.	o	is
Acc.	um	a
Abl	o	is

Casus	Sing.	Plur.
Nom.	decoctum	decocta
Gen.	decocti	decoctorum
Dat.	decocto	decoctis
Acc.	decoctum	decocta
Abl	decocto	decoctis

Sredniy rod otlarining o'ziga xos xususiyatlari quyidagicha:

1 Accusativus Singularis = Nominativus Singularis = **um**;

2 Accusativus Pluralis = Nominativus Pluralis = **a**.

Bu qoida hamma beshta turlanishdagi sredniy rod otlariga tegishli.

33- §. Quyidagi otlarni yod oling!

folium, i, n – barg ✓
oleum, i, n – moy ✓
extractum, i, n – ekstrakt ✓
decoctum, i, n – qaynatma ✓
infusum, i, n – damlama ✓
unguentum, i, n – surtma ✓
linimentum, i, n – suyuq surtma ✓
briquetum, i, n – briket ✓
aërosolum, i, n – aerazol
emulsum, i, n – emulsiya
amylum, i, n – kraxmal ✓
vaccinum, i, n – vaksina ✓
emplastrum, i, n – malham ✓
emplastrum ad clavos – qadoq malhami
suppositorium, i, n – shamcha ✓
granulum, i, n – granula ✓
remedium, i, n – vrachlik vositasi ✓
saccharum, i, n – qand, shakar
Rheum, i, n – ravoch
Anisum, i, n – arpabodiyon, anis
Erysimum, i, n – jeltushnik
Equisetum, i, n – qirqbo'g'im
Linum, i, n – zig'ir
Centaurium, i, n – tillabosh
Persicum, i, n – shaftoli
Foeniculum, i, n – ukrop, fenxel
Taraxacum, i, n – qoqi
Capsicum, i, n – qalampir, garmdori
Triticum, i, n – bug'doy

Mashqlar

45-mashq. Quyidagi otlarning kelishigini aniqlang.

1) foliorum

2) olea

- | | |
|-----------------|-------------------|
| 3) extractum | 7) folium |
| 4) unguenti | 8) unguenta |
| 5) suppositoria | 9) olei |
| 6) extracta | 10) suppositorium |

46-mashq. *Quyidagi otlarning bosh va qaratqich kelishik, birlik va ko'plik son shakllarini jadval yordamida yozing.*

Sharbat, barg, moy, sharcha, qalam, ekstrakt, rezavor meva, tayoqcha.

Namuna:

Nom. Sing.	Turl.	Rod	Gen. Sing.	Nom. Pulr.	Gen. Pulr.
infusum- damlama	II	n	infusi- damlamaning	infusa- damlamalar	infusorum- damlamalar- ning

47-mashq. *O'zbek tiliga tarjima qiling.*

Folium Belladonnae, folia Helianthi, oleum Amygdalarum, oleum Anisi, aerosolum "Cametonum", granula Amydopyrini, emulsum ex oleo, extractum Convallariae, extractum Strychni, tinctura Rhei, tinctura Erysimi, oleum Hippophaës.

48-mashq. *Atamalarning shartli tasvirini tuzib, Nom. va Gen. da lotin tiliga tarjima qiling.*

- | | |
|-------------------------|------------------------------|
| 1) qayin bargi | 5) zaytun moyi |
| 2) mavrak barglari | 6) qand sharbati |
| 3) oqqaldirmoq barglari | 7) sano damlamasi |
| 4) na'matak moyi | 8) tillabosh yer ustki qismi |

49-mashq. *O'zbek tiliga tarjima qiling.*

- Globuli, bacilli, suppositoria oleum Cacao continent.
- Herba Sennae, Convallariae, Erysimi, Leonuri in medicina adhibetur.
- Colate decoctum foliorum Salviae per telam.
- Concidite folia Menthae et praeparate infusum.
- Forma pilulas numero 25.
- Refrigera et cola infusum foliorum Salviae.

50-mashq. *Quyidagi zanjirdan II tur lanish sredniy roddagi otlarni toping va o'zbek tiliga tarjima qiling.*

SIRUPUSTRYCHNOSTILUSACCHARUMYRTILLUSUCCUSE-
RUMEDICAMENTUMEDICUSTROPHANTHUS.

Retseptlarni tarjima qiling !

1. Recipe: Extracti Aloës 1,0
Da in ampullis.
Signa: Teri ostiga 1 ml.dan yuborilsin.
2. Recipe: Emulsi olei Ricini 180,0
Sirupi Sacchari ad 200,0
Misce. Da.
Signa: 2 osh qoshiqdan ich surguncha har soatda ichilsin.
3. Recipe: Infusi foliorum Urticae 15,0: 200 ml
Da.
Signa: kuniga 3-4 marta 1 osh qoshiqdan ichilsin.
4. Recipe: Decocti foliorum Farfarae 15,0: 200 ml
Da.
Signa: Har 3-4 soatda 1 osh qoshiqdan ichilsin.
5. Oling: Arpabodiyon moyidan 15,0
Bering.
Belgilang: Bir marta ichishga.
6. Oling: Arnika yer ustki qismi damlamasidan 10,0: 200 ml.dan
Bering.
Belgilang: Kuniga 3 marta 1 osh qoshiqdan ovqatdan oldin ichilsin.
7. Oling: Kungaboqar moyi emulsiyasidan 480,0
Kamforadan 2,0
Qand sharbatidan 10,0
Aralashtiring. Bering.
Belgilang: Kuniga 3 marta 1 osh qoshiqdan ichilsin.
8. Oling: Sano bargi damlamasidan 10,0: 150 ml
Rayoch sharbatidan 30 ml
Aralashtiring. Bering.
Belgilang: Ertalab va kechqurun 1 osh qoshiqdan ichilsin.

Uyga vazifa

I. II turlanish sredniy roddagi otlarning kelishik qo'shimchalarini yod oling va quyidagi savollar yordamida bilimlaringizni tekshirib ko'ring.

1. II turlanish sredniy roddagi otlarga qaysi otlar kiradi?

2. II turlanish sredniy roddagi otlar Nom. Plur. va Gen. Plur. da qanday qo‘shimchalarga ega?

3. Sredniy roddagi otlar Nom. Sing. va Gen. Sing. da qanday qo‘shimchalarga ega?

II. 33-§ dagi so‘zlarni yod oling.

III. Chap ustundagi lotincha so‘zlarning o‘ng ustundagi o‘zbekcha ekvivalentlarini toping.

- | | |
|------------------|----------------------|
| 1) oleum | a) shamcha |
| 2) folium | b) damlama |
| 3) Rheum | c) malham |
| 4) suppositorium | d) qaynatma |
| 5) emplastrum | e) surtna |
| 6) Anisum | f) moy |
| 7) unguentum | g) suyuq surtna |
| 8) decoctum | h) ravoch |
| 9) infusum | i) arpabodiyon, anis |
| 10) linimentum | j) barg |

IV. Quyidagi otlarning bosh va qaratqich kelishik, birlik va ko‘plik son shakllarini jadval yordamida yozing: shakar, malham, shira, kurtak.

V. Atamalarning shartli tasvirini tuzib, Nom. va Gen. da lotin tiliga tarjima qiling.

- | | |
|---------------------|---------------------|
| 1) arpabodiyon moyi | 3) ravoch sharbati |
| 2) kanakunjut moyi | 4) gazanda barglari |

VI. Retseptlarni tarjima qiling.

1. Oling: Ukrop suvidan 200 ml

Bering.

Belgilang: Kuniga 5-6 marta 1 osh qoshiqdan ichilsin.

2. Oling: Mavrak barglarining damlamasidan 20,0:200 ml

Bering.

Belgilang: Chayqash uchun.

VII. To‘g‘ri o‘qishni o‘rganing!

Xeroformium, Dermatolum, Magnesii oxydum, Magnesii subcarbonas, granulae “Calmaginum”, Calcii carbonas praecipitatus, Plumbi acetas, folia Menthae piperitae, Mentholum, balsamum “Stella auraria”, fructus Capsici, unguentum contra congelationem, Capsitrium, linimentum Capsici

camphoratum, emplastrum Capsici, succus Plantaginis, Plantaglacidum, folia Menyanthis trifoliata, chloroformium, linimentum Chloroformii compositum, Chlorobutanoli hydras, aërosolum "Camethonium", unguentum "Antipsoriaticum", solutio Ammonii caustici, tabelettæ "Apiphorum", Apisartron, Vipraxinum pro injectionibus, Najaxinum, Viprosalum, cortex Frangulae, Alnus, Antrasenninum, Senadexinum, Senade, Cafiolum, Regulax, Laminaria saccharina, Forlax, Phenolphthaleinum, Isapheninum, Bisacodyl, Guttalax, sal carolinum factitium, oleum Vaselini, suppositoria cum Glycerino, Norgalax, fructus Anethi graveolentis, Simethicone, radices Althæae.

10-dars

34-§. II turlanish jenskiy roddagi otlar

Istisno tariqasida II turlanishga jenskiy roddagi ba'zi bir otlar kiradi.

Bular:

1. Daraxt va butalar nomi: Eucalyptus, i, f.

2. Yumonchadan o'tgan to'rtta ot: bolus, i, f; crystallus, i, f; methodus, i, f; periodus; i, f.

II turlanish jenskiy roddagi otlar kelishiklar bo'yicha II turlanish mujskoy roddagi otlar singari turlanadi.

Turlanish namunasi

Casus	Sing.	Plur.
Nom.	bolus	boli
Gen.	boli	bolorum
Dat.	bolo	bolis
Acc.	bolum	bolos
Abl.	bolo	bolis

35-§. Quyidagi otlarni yod oling !

bolus, i, f – gil, tuproq ✓

crystallus, i, f – kristall

Pinus, i, f – qarag'ay

Eucalyptus, i, f – evkalipt

Juniperus, i, f – archa
 Rhamnus, i, f – itjumrut
 Citrus, i, f – limon (daraxt)
 Alnus, i, f – qandag'och, olxa
 Crataegus, i, f – do'lana (daraxt)
 Strychnos, i, f – kuchala (daraxt)
 adulti, orum, i, f – kattalar
 pro adultis, ← kattalar uchun
 Viburnum, i, n – kalina, bodrezak
 Helichrysum, i, n – bo'znoh
 Polemonium, i, n – polemonium
 Millefolium, i, n – bo'yadaron
 Trifolium(i) fibrinum(i) – uchbarg
 Peganum(i) harmala (ae) – oddiy isiriq
 Hypericum i, n – sariqchoy, qizilpoycha
 Oleum(i) Ricini – kanakunjut moyi
 Oleum(i) Terebinthinae – skipidar
 Uva(ae) ursi – toloknyanka
 Datura(ae) stramonium(i) – bangidevona

Mashqlar

51- mashq. *Quyidagi otlarning rodini aniqlang.*

- | | |
|---------------|---------------|
| 1) sirupus | 6) Rhamnus |
| 2) globulus | 7) Helianthus |
| 3) bolus | 8) stilus |
| 4) crystallus | 9) Crataegus |
| 5) Pinus | 10) Alnus |

52-mashq. *Quyidagi otlarning bosh va qaratqich kelishik, birlik va ko'plik son shakllarini jadval yordamida yozing.*

Shira, kristall, limon, qaynatma, pasta, damlama, modda.

Namuna:

Nom. Sing.	Turl.	Rod	Gen. Sing.	Nom. Plur.	Gen. Plur.
sirupus-sharbat	II	m	sirupi-sharbatning	sirupi-sharbatlar	siruporum-sharbatlarning

53-mashq. O'zbek tiliga tarjima qiling.

- | | |
|---------------------|----------------------------|
| 1) tabuletta Inulae | 6) baccae Rubi idaei |
| 2) oleum Eucalypti | 7) herba Millefolii |
| 3) baccae Juniperi | 8) folium Hyoscyami |
| 4) infusum foliorum | 9) linimentum Aloës |
| 5) folia Salviae | 10) aërosolum "Camethonum" |

54-mashq. Atamalarning shartli tasvirini tuzib, Nom. va Gen. da lotin tiliga tarjima qiling.

- | | |
|----------------------|---------------------------------------|
| 1) limon moyi | 4) gazako't ekstrakti |
| 2) evkalipt barglari | 5) chayono't barglarining damlamasi |
| 3) kungaboqar moyi | 6) qarag'ay kurtaklarining qaynatmasi |

55-mashq. O'zbek tiliga tarjima qiling.

1. Da aegotae decoctum gemmarum Pini. 2. Oleum Ricini in capsulis datur. 3. Oleum Terebinthinae ex Pino conficitur. 4. Praeparatum Cardioalenum extractum Crataegi continet. 5. Sirupus Glycyrrhizae, sirupus Sacchari, sirupus Citri in medicina adhibentur. 6. Pilula in officina praeparantur.

56-mashq. Lotin tiliga tarjima qiling.

1. Qand sharbatl suv va shakardan tayyorlanadi.
2. Mavrak barglaridan damlama tayyorlang.
3. Chayono't barglaridan damlama va ekstrakt tayyorlashadi.
4. Qarag'ay kurtagidan qaynatma tayyorlang.

57- mashq. Noto'g'ri tarjima qilingan atamalarni toping.

Oleum Ricini, infusum gemmorum Betulae, tincture Valerianae, globula et suppositoriae, tinctura Strychosi, sirupi Rubi idaei, tinctura Leonuræ, oleum Anisi.

Retseptlarni tarjima qiling!

1. Recipe: Olei Eucalypti 2,0
Olei Terebinthinae 8,0
Misce. Da.
Signa: 15 tomchidan solib ingalyatsiya qilinsin.
2. Recipe: Infusi baccarum Juniperi ex 10,0: 200 ml
Da .
Signa: Kuniga 3-4 marta 1 osh qoshiqdan ichilsin.
3. Recipe: Decocti gemmarum Pini ex 10,0: 200 ml
Da.
Signa: Kuniga 3 marta 1 osh qoshiqdan ichilsin.

4. Recipe: Infusi foliorum Eucalypti ex 10,0 :200 ml
Da.
Signa: Kuniga 3 marta 1 osh qoshiqdan ichilsin.
5. Oling: Skupidardan 10,0
Bering.
Belgilang: 1 stakan suvga 10-15 tomchidan solib, ingalyatsiya qilinsin.
6. Oling: Do'lana nastoykasidan 20 ml
Bering.
Belgilang: Kuniga 3 marta 20-30 tomchidan ichilsin.
7. Oling: Evkalipt moyidan
Arpabodiyon moyidan teng miqdorda 10,0 dan
Aralashtiring. Bering.
Belgilang: Ingalyatsiya uchun.
8. Oling: Kuchala nastoykasidan 5 ml
Limonnik nastoykasidan 20ml
Aralashtiring. Bering.
Belgilang: Kuniga 2 marta 20-25 tomchidan ichilsin.

Uyga vazifa

I. «II turlanish jenskiy roddagi otlar» mavzusini o'zlashtirib oling va quyidagi savollar yordamida bilimlaringizni tekshirib ko'ring.

1. II turlanish jenskiy roddagi otlarga qaysi otlar kiradi?
2. II turlanish jenskiy roddagi otlar **Nom. Plur.** va **Gen. Plur.** da qanday qo'shimchalarga ega?
3. Jenskiy roddagi otlar **Nom. Sing.** va **Gen. Sing.** da qanday qo'shimchalarga ega?

II. 35-§ dagi so'zlarni yod oling.

III. Chap ustundagi lotincha so'zlarning o'ng ustundagi o'zbekcha ekvivalentlarini toping.

- | | |
|----------------|---------------|
| 1) Alnus | a) do'lana |
| 2) Viburnum | b) bo'yodaron |
| 3) Helichrysum | s) qarag'ay |
| 4) Millefolium | d) limon |
| 5) Crataegus | e) qandag'och |
| 6) Rhamnus | f) archa |
| 7) Juniperus | g) itjumrut |

8) Citrus

9) Pinus

10) bolus

h) bo'znoh

i) gil, tuproq

j) kalina, bodrezak

IV. Quyidagi otlarning bosh va qaratqich kelishik, birlik va ko'plik son shakllarni jadval yordamida yozing: do'lana, archa, zig'ir, oqqaldirmoq.

V. Atamalarining shartli tasvirini tuzib, Nom. va Gen. da lotin tiliga tarjima qiling.

1) tillabosh yer ustki qismi

3) ukrop moyi

2) bodom moyi

4) do'lana nastoykasi

VI. Retseptlarni tarjima qiling.

1. Oling: Chakanda moyidan 30 ml

Bering.

Belgilang: Sirtidan ishlatish uchun.

2. Oling: Mentoldan

Kungaboqar moyidan 20,0

Arafashtiring. Bering.

Belgilang: Mentolli moy.

VII. To'g'ri o'qishni o'rganing!

Muĉaltinum, radices Glycyrrhizae, Glycyrramum, folia Plantaginis majoris, herba Thymi serpylli, Pertussinum, Terpinum hydratum, Lycorini hydrochloridum, Amaryllidaceae, Acetylcysteinum, Carbocysteine, Bromhexinum, Ambroxolum, Curosurf, Exosurf, Digitalis purpurea, Cordigitum, Digitoxinum, Medilasidum, Celanidum, Lantosidum, herba Adonidis vernalis, Adonisidum, Strophanthinum, Strophanthidini acetat, Corgluconum, Cardiovalenum, Amrinone, Milrenone, Vesnarinone, Chinidinum, Chinidindururules, Quinilentin, Novocainamidum, Disopyramide, Mexiletini, Propafenone, Aetmozinum, Aethacizinum, Ajmaline, Neo-Gilyurhythmal, Pulsnorma, Allapininum, Amiodarone, Nibentanum, Sotolol, Ornidum, Nitroglycerinum, Perlinganit, Sustabuccal, Nitrosorbidum, Erynitum, Amylii nitris, Molsidosidomine, Nonachlazinum, Carbocromen, Bepriidile Hydrochloride, Nicorandil, Cinnarizine, Flunarizine, Cavinton, Vincanorum, Apressinum, Papaverinum, No-Spa, Nicospanum, Phenicaberanum, Dibazolium, Diprophenum, Gangleronum, Theobrominum, Theophyllinum, Theopecum.

11-dars

36-§. Dorivor preparatlar nomi

Deyarli hamma dorivor preparatlarning nomi II turlanish sredniy rodga kiradigan otlar bo'lib, ular **Nominativus Singularis** da –um, **Genetivus Singularis** da –i qo'shimchalariga ega. Dorivor preparatlarning o'zbekcha nomi lotincha nomining o'qilishiga to'g'ri keladi, faqat –um qo'shimchasi bo'lmaydi.

Masalan: Analginum - analgin

Novocainum - novokain

Ba'zi dorivor preparatlarning nomida mualliflarning familiyasi uchraydi. Ayollarning familiyasi I turlanishda, erkaklarning familiyasi II turlanishda bo'ladi, ba'zi familiyalar turlanmaydi.

Masalan: Pasta Teimurovi-Teymurov pastasi

tabulettae Carmanovae- Karmanova tabletkalari

unguentum Vischnevsky-Vishnevskiy surtmasi.

Mashqlar

58- mashq. *O'zbek tiliga tarjima qiling.*

Pasta Lassari, liquor Kastelliani, solutio Lugoli, species Zdenko, balsamum Schostacovsky, solutio Ringer-Locke, tinctura Petrovi, unguentum Koncovi, unguentum Wilkinsoni.

59-mashq. *Quyidagi dorivor preparatlarning nomini Gen. Sing. da yozing va o'zbek tiliga tarjima qiling.*

Tetracyclinum, Flaminum, Riboxinum, Phytinum, Iodum, Trypsinum, Dimoestrolum, Myelosanum, Olivomycinum, Piperazinum, Cytarabinum, Ergotaminum.

60- mashq. *Quyidagi dorivor preparatlarning lotincha nomlarini Nom. Sing. va Gen. Sing. da yozing.*

Dimedrol, Bekarbon, Besalol, Adrenalin, Streptocid, Dibazol, Rutin, Baralgin, Luminal, Papaverin, Pilocarpin.

37-§. Quyidagi otlarni yod oling !

medicamentum, i, n - dori, dori darmon

venenum, i, n - zahar ✓

antidotum, i, n - zaharga qarshi, ziddizahar

metallum, i, n - metall

vitrum, i, n - kichkina shisha idish ✓

da in vitro- shisha idishda ber
Chloroformium, i, n - xloroform
Xeroformium, i, n - kseroform
Iodoformium, i, n - yodoform
serum, i, n - zardob
Glucosum, i, n - glukoza
Glycerinum, i, n - glitserin
cum Glycerino- glitserin bilan
Linteum, i, n - kanop, polotno
extende supra linteum- polotnoga surt
Paraffinum i, n - parafin
Vaselinum, i, n - vazelin
Butyrolum, i, n - butirol
Mentholum, i, n - mentol
Ichthyolum, i, n - ixtiol
Naphthalanum, i, n - naftalan
Artemisia(ae) absinthium(i) - ermon, achchiq shuvoq
~~Coriandrum, i, n - kashnich~~
Verbascum, i, n- sigirquyruq

Eslab qoling!

dragee (birlik)- draje (turlanmaydi)
dragees (ko'plik)-draje (turlanmaydi)
Ginseng - jenshen (turlanmaydi)
Da tales doses numero. - Shunday dozalarda ... (son)ta ber.

Mashqlar

61- mashq. *O'zbek tiliga tarjima qiling.*

tinctura Iodi, venena et antidota, antidotum metallorum, stilus Mentholi, suppositoria cum extracto Belladonnae, Lanolinum et Vaselinum.

62-mashq. *Atamalarning shartli tasvirini tuzib, Nom. va Cen. da lotin tiliga tarjima qiling.*

- | | |
|--|----------------------------|
| 1) qirqbo'g'imning yer ustki qismi | 5) achchiq shuvoq barglari |
| 2) uchbarg barglari | 6) jenshen nastoykasi |
| 3) bo'yadoron yer ustki qismi-ning damlamasi | 7) bug'doy kraxmali |
| 4) shaftoli moyining emulsiyasi | 8) qalampir nastoykasi |

4. Recipe: Tincturae Convallariae
Tincturae Crataegi ana 12,5 ml
Misce. Da.
Signa: Kuniga 3 marta 15-20 tomchidan ichilsin.
5. Recipe: Dragee Diazolini 0,05
Da tales doses numero 20.
Signa: Kuniga 3 marta 1 ta donachadan ovqatdan keyin iste'mol qilinsin.
6. Recipe: Olei Ricini 20,0
Xeroformii 1,2
Misce. Da.
Signa: Surtmali bog'lamlar uchun.
7. Oling: Yodoformdan 10,0
Bering.
Belgilang: Sepma dori
8. Oling: Tillabosh nastoykasidan 25 ml
Bering.
Belgilang: Ovqatdan oldin 20 tomchidan ichilsin.
9. Oling: Kseroform surtmasidan 10% 50,0
Bering.
Belgilang: Surtma
10. Oling: Xloroformdan 2,0
Valeriana nastoykasidan 20 ml.
Aralashtiring. Bering.
Belgilang: 25 tomchidan ichilsin.

Uyga vazifa

I. "Dorivor preparatlar nomi" mavzusini o'zlashtirib oling va quyidagi savollarni yordamida bilimlaringizni tekshirib ko'ring.

1. Dorivor preparatlar nomi qaysi rodga va qaysi turlanishga tegishli?
2. Dorivor preparatlar nomi Nom.Sing. va Gen.Sing.da qanday qo'shimchalarga ega?
3. Dorivor preparatlar nomidagi mualliflarning familiyasi qanday turlanadi?

II. 37-§ dagi so'zlarni yod oling.

III. Chap ustundagi lotincha so'zlarning o'ng ustundagi o'zbekcha ekvivalentlarini toping.

1) amyllum

a) zaharga qarshi dori

- | | |
|-------------------------|--------------------------|
| 2) serum | b) glitserin bilan |
| 3) venenum | c) dori, dori-darmon |
| 4) medicamentum | d) butirol |
| 5) antidotum | e) ermon, achchiq shuvoq |
| 6) linteam | f) kraxmal |
| 7) Artemisia absinthium | g) ixtiol |
| 8) Butyrolum | h) zahar |
| 9) Ichthyolum | i) kanop, polotno |
| 10) cum Glycerino | j) zardob |

IV. Atamalarning shartli tasvirini tuzib, Nom. va Gen. da lotin tiliga tarjima qiling.

- | | |
|---------------------|-------------------------|
| 1) mingdevona moyi | 3) bangidevona barglari |
| 2) qalampir malhami | 4) kalanxoy shirasi |

V. Retseptlarni tarjima qiling.

- Oling: Qalampir nastoykasidan 20 ml
Bering.
Belgilang: Ovqatdan oldin 15 tomchidan ichilsin.
- Oling: Dermatol surtmasidan 10% 20,0
Bering.
Belgilang: Surtma
- Oling: Evkalipt moyidan 10,0
Mentoldan
Aralashtiring. Bering.
Belgilang: Bug'li ingalyatsiya uchun.

VI. Qu'yidagi hikmatlarni yod oling!

- Ad cogitandum et agentum homo natus est. – Inson fikrlash va harakat qilish uchun yaratilgan.
- De lingua stulta incommoda multa. – Be'mani so'zlar katta ko'ngilsizliklarga olib keladi.

VII. To'g'ri o'qishni o'rganing!

Theobiolongum, Euphyllinum, Diprophyllinum, Xantinoli nicotinas, Pentoxyphylline, Khellinum, Cardiplant, Verapamil, Osmo-Adalat, Amlodipin, Oridonum, Diltiazem, Minoxidil, Captopril, Methiaprilum, Losartan, Clophelinum, Methyldopa, Octadinum, Reserpinum, Adelphan - Esidrex, Raunatinum, Triniton, Angiotensinamidum, Parmidinum, Etamsylatum, Troxevasin, Detralex, Aescusan, Essaven, Aesflazidum, Adroxonum,

Cholestyraminum, Colestipol, Bezafibrate, Gemfibrozil, Lovastatin, Linaetholum, Polysponinum, Tribusponinum, Heparinum, Fraxiparin, Enoxaparine sodium, Neodicumarinum, Phepromaronum, Acenocumarol, Phenylinum, Streptodecasum pro injectionibus, Celiasum, Fibrinolysinum, Lamifiban, Protamini sulfas, Fibrinogenum, spongia haemostatica cum Ambeno, membranula fibrinosa isogena, tabulettae extracti Lagochili obductae, spongia antiseptica cum Kanamycino, herba Polygoni persicariae, Decilatam, Hydrochlorthiazide, Cyclomethiazidum, Oxodolinum, Furosemidum, Buphenoxum, Indapamide, Acidum etacrynicum, Diacarbium...

12- dars

38-§. Fe'lining shart mayli

Retseptlarda fe'llarning buyruq mayli bilan bir qatorda shart mayli ham keng qo'llanilib, unda buyruq hurmat bilan ifodalanadi.

Retseptlarda shart mayli III shaxs birlik va ko'plik sonlarida ishlatiladi.

39-§. Quyidagi so'z va so'z iboralarini yod oling!

Misceatur – Aralash tirmoq! Aralash tirilgan bo'lsin.

Signetur – Bildirmoq! Bildirilgan bo'lsin.

Detur – Bermoq! Berilgan bo'lsin.

Sterilisetur – Sterilizatsiya qilinmoq! Sterilizatsiya qilingan bo'lsin.

Dentur tales doses numero... – Shunday dozalarda... (son)ta bermoq!

Shunday dozalarda... (son)ta berilgan bo'lsin.

quantum satis – keragicha

40-§. fiat, fiant fe'llarining retseptlarda qo'llanilishi

Qaysi dori shaklini tayyorlash lozimligini retseptlarda ko'rsatish kerak bo'lsa, bu holda maqsadli ergash gap birlikda fiat, ko'plikda fiant (hosil bo'lsin, hosil qilinsin) fe'llari bilan birga ishlatiladi.

Masalan: Misce, ut fiat pasta. – Pasta hosil bo'lguncha aralash tiring.
Misce, ut fiant suppositoria. – Shamchalar hosil bo'lguncha aralash tiring. Aralash tirib, shamchalar hosil qilinsin.

Mashqlar

65-mashq. Nuqtalar o'rnini fiat yoki fiant fe'llari bilan to'ldiring.

1. Misce, ut ... pilulae.

2. Misce, ut ... unguentum.

3. Misce, ut ... linimentum.
4. Misce, ut ... globuli.
5. Misce ut ... suppositoria.
6. Misce, ut ... mixtura.
7. Recipe massae pilularum quantum satis, ut ... pilulae.

66-mashq. *Nuqtalar o'rniga mos keladigan qo'shimchalarni qo'yib, gaplarni yozing.*

1. Misce, ut fiat unguent...
2. Recipe massae pilul... quantum satis ut fiant pilul...
3. Misce, ut fiant bacill...
4. Misce, ut fiant suppositori...
5. Misce, ut fiat suppositori...
6. Misce, ut fiat globul...
7. Misce, ut fiant globul...
8. Misce, ut fiat liniment...

67-mashq. *Lotin tiliga tarjima qiling.*

1. Surtma hosil bo'lguncha aralashtiring.
2. Aralashtirib, tayoqchalar hosil qilinsin.
3. Aralashtirib, shamchalar hosil qilinsin.
4. Mikstura hosil bo'lguncha aralashtiring.
5. Shunday dozalarda 10 (son)ta ampulalarda berilgan bo'lsin.
6. 10(son)ta sharchalar hosil qilish uchun keragicha jelatin massasidan oling.
7. 30 (son)ta hab dori hosil qilish uchun keragicha hab dori massasidan oling.

Retseptlarni tarjima qiling!

1. Recipe: Olei Persicorum 3,0
Paraffini
Vaselini ana 5,0
Misce, fiat unguentum.
Da.
Signa: Qo'l terisiga surtish uchun.
2. Recipe: Xeroformii 0,5
Butyroli quantum satis
Misce, fiat suppositorium.

- Dentur tales doses numero 10.
 Signa: Kuniga 2 marta 1 shamchadan qo'yilsin.
3. Recipe: **Barbitali**
 Amidopyrini ana 1,5
 Massae pilularum quantum satis
 Misce, ut fiant pilulae numero 20.
 Da.
 Signa: Kuniga 2 marta 1 hab doridan qabul qilinsin.
4. Recipe: **Osarsoli 0,25**
 Glucosi 0,3
 Olei Cacao 2,5
 Misce, fiat globulus.
 Da tales doses numero 4.
 Signa: Kechasiga 1 ta sharchadan qo'yilsin.
5. Recipe: **Streptocidi 1,2**
 Olei Cacao 12,0
 Misce, fiant suppositoria numero 4.
 Da.
 Signa: Kuniga 2 marta 1 ta shamchadan qo'yilsin.
6. Recipe: **Olei Ricini**
 Xeroformii 1,2
 Vinylini 1,0
 Misce, fiat linimentum.
 Da.
 Signa: Surtmali bog'lamlar uchun.
7. Oling: **Yodoformdan 2,5**
 Vazelindan 25,0 gacha
 Surtma hosil bo'lguncha aralashtiring.
 Bering.
 Belgilang: Surtma
8. Oling: **Ixtioldan 0,15**
 Streptotsiddan 0,3
 Kakao moyidan 2,5
 Shamcha hosil bo'lguncha aralashtiring.
 Shunday dozalardan 3(son)ta berilgan bo'lsin.
 Belgilang: Kuniga 1 ta shamchadan qo'yilsin.
9. Oling: **Belladonna ekstraktidan 0,1**

- Furatsilidan 0,2
 Kakao moyidan 30,0
 Aralastirib, 10(son)ta sharchalar hosil qilinsin.
 Berilsin.
 Belgilansin: Kuniga 2 marta 1 sharchadan qo'yilsin.
10. Oling: Kseroformdan 1,5
 Antipirindan 3,0
 15 (son)ta shamchalar hosil qilish uchun keragicha kakao moyidan
 Berilsin.
 Belgilansin: Kuniga 3 marta 1ta shamchadan qo'yilsin.
11. Oling: Streptotsiddan 0,3
 Butiroidan keragicha
 Aralastirib, 3(son)ta shamchalar hosil qilinsin.
 Berilsin.
 Belgilansin: Kuniga 1ta shamchadan qo'yilsin.
12. Oling: Dermatoldan 0,2
 Streptotsiddan 0,3
 Vazelindan 15,0
 Surtma hosil bo'lguncha aralastiring.
 Berilsin.
 Belgilansin: Bog'lamlar uchun.

Uyga vazifa

I. "Fe'lning shart mayli va fiat, fiant fe'llarining retseptlarda qo'llanilishi" mavzularini o'zlashtirib oling. Quyidagi savollar yordamida bilimlaringizni tekshirib ko'ring.

1. Fe'llarning shart mayli retseptlarda nimani ifodalaydi?
2. Fe'llarning shart mayli retseptlarda qanday shaklda ishlatiladi?
3. Fiat, fiant fe'llari retseptlarda qachon ishlatiladi?

II. 39- §dagi so'z va so'z iboralarini yod oling.

III. Retseptlarni tarjima qiling.

1. Oling: Dermatoldan 0,2
 Shamcha hosil qilish uchun keragicha kakao moyidan
 Shunday dozalarda 6 (son)ta berilgan bo'lsin.
 Belgilansin: Kuniga 2 marta 1ta shamchadan qo'yilsin.

2. Oling: Promedoldan 0,02
Kakao moyidan 3,0
Shamcha hosil bo'lguncha aralashiring.
Shunday dozalardan 6 (son)ta berilgan bo'lsin.
Belgilansin: Kechasiga 1 ta shamchadan qo'yilsin.
3. Oling: Ixtioldan 0,15
Sharcha hosil qilish uchun keragicha jelatin massasidan
Shunday dozalarda 12 (son)ta berilgan bo'lsin.
Belgilansin: Qinga qo'yiladigan shamchalar.

IV. Quyidagi hikmatlarni yod oling!

1. Natura sanat, medicus curat morbos.–Vrach davolaydi, tabiat sog'aytiradi.
2. Mendaci homini verum quidem dicenti credere non solemus. – Yolg'onchining rost gapi ham yolg'on bo'lur.

V. To'g'ri o'qishni o'rganing!

Triamterenum, Triampur compositum, Triamtesidum, Amiloridum, Spironolactonum, Mannitum, urea pura, Kalii acetat, Ammonii chloridum, baccae Juniperi, folia Orthosiphoni staminei, species diureticae, Lespenephrit, Flaroninum, Allopurinolum, Sulfinyprazone, Kebuzone, Urodanum, Magurlit, Solimok, extractum Rubiae tinctorum siccum, Cystenal, Olimetinum, Avisanum, Pinabinum, Urolesanum, herba Polygoni avicularis, Phytolysin, Allocholium, Liobilum, Cholenzynom, flores Helichrysi arenarii, Flaminum, styli cum stigmatis Zea Maydis, Tenacecholum, Cholosasum, Berberini bisulfat, Oxaphenamidum, Nicodinum, Cycvalonum, Febichol, Hymecromone, Legalon, Siliborum, Catergen, Flumecinol, Essentiale, Biligninum, Methylegometrine, Ergotaminum, Oxytocinum, Methyloxytocin, Dinoprost, Prostenonum, Cotarnini chloridum, herba Bursae pastoris, extractum Stachydis betonicaeflorae fluidum, Partusisten, Salbupart, Ritodrinum, Gynipral, Convaflavinum, Flacuminum, Cholagolum, Ergotalum.

13- dars

41-§. I -II turlanishdagi sifatlar

Predmetning belgisini bildirib, *qanday? qanaqa?* savollariga javob bo'lgan so'z turkimiga sifat deyiladi. Lotin tilida sifatlar ikki guruhga bo'linadi:
I guruh – I-II turlanishdagi sifatlar
II guruh – III turlanishdagi sifatlar.

I-II turlanishdagi sifatlarga mujskoy rodda - us yoki - er, jenskiy rodda - a va sredniy rodda -um qo‘shimchasiga ega bo‘lgan sifatlar kiradi.

Masalan: albus, alba, album- oq

niger, nigra, nigrum- qora

Lug‘atda sifatlar mujskoy rod shaklida yoziladi va so‘zning yonida jenskiy hamda sredniy rodlar qo‘shimchasi ko‘rsatiladi.

Masalan: albus, a, um- oq

niger, gra, grum- qora

- er qo‘shimchasi bilan tamomlanadigan ba‘zi sifatlar jenskiy va sredniy rodlarni hosil qilishda - e harfini yo‘qotadi, ba‘zilari esa saqlab qoladi.

Masalan: niger, nigra, nigrum- qora

somnifer, somnifera, somniferum – uxlatadigan.

42-§. Sifatlarning kelishiklar bo‘yicha turlanishi


Mujskoy roddagi sifatlar II turlanish mujskoy roddagi otlar singari, jenskiy roddagi sifatlar I turlanishdagi otlar singari, sredniy roddagi sifatlar II turlanish sredniy roddagi otlar singari turlanadi.

Turlanish namunasi

Causus	Singularis			Pluralis		
	m	f	n	m	f	n
Nom.	albus	alba	album	albi	albae	alba
Gen.	albi	albae	albi	alborum	albarum	alborum
Dat.	albo	albae	albo	albis	albis	albis
Acc.	album	album	album	albos	albos	alba
Abl.	albo	alba	albo	albis	albis	albis

43-§. Moslashgan aniqlovchi

Lotin tilida sifat otdan keyin turadi va u bilan rod, son va kelishikda moslashadi. Moslashgan aniqlovchiligi atamani lotin tiliga tarjima qilishda avval uning shartli tasvirini tuzamiz.



Atamani quyidagicha tarjima qilamiz:

1. Otni topib, uning rodini aniqlaymiz:
tinctura, æ, f – jenskiy rod
2. Sifatning lug'at shaklini aytamiz va otga mos rodini tanlaymiz:
amarus, a, um; amara – jenskiy rod

Atamaning tarjimasini Nom. va Gen. da yozamiz:

Nom. tinctura amara

Gen. tincturae amarae.

44 -§. Quyidagi sifatlarni yod oling!

albus, a, um – oq

flavus, a, um – sariq

luteus, a, um – sariq

coeruleus, a, um – ko'k, zangori

cinereus, a, um – kulrang

purpureus, a, um – qip-qizil, to'q qizil

niger, gra, grum – qora

~~amarus, a, um – achchiq~~

purus, a, um – toza

externus, a, um – tashqi

internus, a, um – ichki

fluidus, a, um – suyuq

liquidus, a, um – suyuq

siccus, a, um – quruq

spissus, a, um – quyuc

grossus, a, um – yirik

frigidus, a, um – sovuq

compositus, a, um – murakkab

intravenosus, a, um – ko'k tomir ichiga, vena ichiga

gelatinosus, a, um – jelatinli

Methylenum(i) coeruleum(i) - metilen ko'ki

Serva in loco frigido. – Sovuq yerda saqla.

Mashqlar

68-mashq. *Quyidagi sifatlarning jenskiy va sredniy rod shakllarini ayting.*

1) amarus

2) grossus

3) spissus

- | | | |
|-------------|-----------|-----------------|
| 4) frigidus | 7) niger | 10) compositus |
| 5) flavus | 8) ruber | 11) gelatinosus |
| 6) purus | 9) siccus | 12) liquidus |

69-mashq. *Sifatni otga moslashtiring va atamalarni o'zbek tiliga tarjima qiling.*

- | | |
|-----------------------------|---------------------------------|
| 1) cera (albus, a, um) | 7) Glycerinum (purus, a, um) |
| 2) emulsum (albus, a, um) | 8) extractum (fluidus, a, um) |
| 3) Amygdala (amarus, a, um) | 9) bacca (grossus, a, um) |
| 4) tinctura (amarus, a, um) | 10) aqua (frigidus, a, um) |
| 5) bacca (siccus, a, um) | 11) infusum (compositus, a, um) |
| 6) massa (purus, a, um) | 12) remedium (externus, a, um). |

70-mashq. *Atamalarning shartli tasvirini tuzib, Nom. va Gen. da lotin tiliga tarjima qiling.*

- | | |
|-----------------------------------|---------------------|
| 1) sariq mum | 6) murakkab damlama |
| 2) toza vazelin | 7) quyuq ekstrakt |
| 3) kulrang surtma | 8) yirik tabletka |
| 4) qora mingdevona | 9) ichki vosita |
| 5) sariq (luteus, a, um) gazako't | 10) tashqi vosita |

71-mashq. *O'zbek tiliga tarjima qiling.*

1. Cera alba in aqua non solvitur. 2. Praeparate infusum ex baccis siccis Juniperi. 3. Dilute Glycerinum purum ad aqua. 4. Medicamenta amara in capsulis sumuntur. 5. Unguenta et linimenta sunt remedia externa. 6. China est medicamentum amarum. 7. Praeparate infusum compositum. 8. Tinctura Valerianae est remedium internum.

72-mashq. *Sifat mavzusi bo'yicha klaster tuzing.*

Retseptlarni tarjima qiling!

- Recipe: Tincturae amarae 10 ml
Tincturae Strychni 5 ml
Misce. Da.
Signa: Kuniga 3 marta ovqatlanishdan oldin 20 tomchidan ichilsin.
- Recipe: Methyleni coerulei
Da in capsulis gelatinosis.
Signa: Kuniga 2 marta 1 ta kapsuladan qabul qilinsin.
- Recipe: Streptocidi albi 0,5

Da tales doses numero 20.

Signa: Kuniga 4 marta 1 ta kukundan qabul qilinsin.

4. Oling: Qoqi nastoykasidan

Achohiq nastoykadan teng miqdorda 10 ml. dan

Kuchala nastoykasidan 5 ml

Aralashtiring. Bering.

Belgilang: Kuniga 3 marta 20 tomchidan ishilsin.

5. Oling: Oq gildan 100.0

Bering.

Belgilang: Yarim stakan suvga 1-2 osh qoshiq solib, iste'mol qilinsin.

Uyga vazifa

I. «I-II turlanishdagi sifatlar va moslashgan aniqlovchi» mavzularini o'zlashtirib oling va quyidagi savollar yordamida bilimlaringizni tekshirib ko'ring.

1. Sifatlar nechta guruhga bo'linadi?

2. Qaysi sifatlar I-II turlanishga kiradi?

3. Sifatlar lug'at shakli qanday yoziladi?

4. I-II turlanishdagi sifatlar kelishiklar bo'yicha qanday turlanadi?

5. Moslashgan aniqlovchi deganda nimani tushunasiz?

II. 44- § dagi so'zlarni yod oling.

III. Chap ustundagi lotincha so'zlarning o'ng ustundagi o'zbekcha ekvivalentlarini toping.

1) flavus, a, um

a) suyuq

2) internus, a, um

b) yirik

3) fluidus, a, um

c) quruq

4) purus, a, um

d) oq

5) siccus, a, um

e) kulrang

6) niger, gra, grum

f) sariq

7) cinereus, a, um

g) toza

8) albus, a, um

h) murakkab

9) grossus, a, um

i) ichki

10) compositus, a, um

j) qora

IV. Atamalarning shartli tasvirini tuzib, Nom. va Gen. da lotin tiliga tarjima qiling.

1) oq streptotsid

2) oq mum

- 3) sovuq suv
5) sariq vazelin

4) achchiq bodom

V. Quyidagi hikmatlarni yod oling!

1. Nihil est tam populare, quam bonitas. – Xalq yahshilikni yuksak qadrlaydi.

2. Pulchre sedens melius agens. – Yetti o'lchab bir kes.


VI. To'g'ri o'qishni o'rganing!

Corticotropinum, Somatotropinum humanum, Genotropin, Octreotide, Gonadotropinum chorionicum, Gonadotropinum menopausicum, Danazol, Desmepressin, Triiodthyronini hydrochloridum, Mercazolilum, Kalii perchloridum, Calcitonin, Miacalcic, Calcitrimum, Dihydratichisterolum, Carbutamide, Chlorpropamidum, Glibenclamide, Glipizide, Gliquidone, Metformin, Metiguanide, Acarbose, Glucagon, species «Arfasetinum», species «Myrphasinum», Cortisonum, Hydrocortisonum, Hydrocortisone acetate, Hydrocortisone hemisuccinate, Prednisolium, Methylprednisolone, Dexamethasonum, Triamcinolonum, Omcilon, Triamcinoloni acetonidum, Budesonide, Rhinocort, Synaflavinum, Flumetasone, Pivalate, Locacorten, Lorinden, Locasalen, Halometasone, Betaderm, Selestoderm V, Diprofos, Ultralan, Beclometasoni dipropionas, Arumet, Becodisc, Rhinosol, Sanasthmyl, Vaneeril, Inhacort, Fluxolonate, Fluticasone propionate, Depersolon, Desoxycorticosterone Acetate, Dohycamon, Desoxycorticosterone trimethylacetate, Oestronum.

14- dars

45-§. Dorivor preparatlarning ko'p bo'lakli nomlarida —sifatlarning qo'llanilishi—

Dorivor preparatlarning ko'p bo'lakli nomlarida birinchi o'rinda dori turlari (shakli) ning nomi bosh kelishikda; ikkinchi o'rinda esa moslashmagan aniqlovchi holidagi shu dori turi tayyorlangan dorivor o'simlik yoki dorivor modda nomi qaratqich kelishigida yoziladi; oxirida esa moslashgan aniqlovchi holida kelgan shu dori turini xarakterlovchi sifat turadi.



Shartli tasviri : $O_1 \longrightarrow S \text{ (Nom.)}$
 \downarrow
 $O_2 \text{ (Gen.)}$

Tarjima qilamiz:

Nom. infusum Sennae compositum

Gen. infusi Sennae compositi

Ba'zan dori turlarining murakkab nomlaridagi sifat dori turi nomiga emas, balki dorivor o'simlik nomiga tegishli bo'ladi va unga rod-da, sonda hamda kelishikda moslashadi.

Masalan:

qanday? nimaning?
 \swarrow \swarrow
qalampir yalpiz nastoykasi
S O_2 O_1 .

Shartli tasviri: $O_1 \text{ (Nom.)}$
 \downarrow
 $O_2 \longrightarrow S \text{ (Gen.)}$

Tarjima qilamiz:

Nom. tinctura Menthae piperitae

Gen. tincturae Menthae piperitae.

46-§. Dorivor preparatlarning ko'p bo'lakli nomlaridagi modellar

Ba'zan dorivor preparatlarning ko'p bo'lakli nomlarida shu dori xususiyatini xarakterlovchi sifat moslashgan aniqlovchi holda turadi. Quyida dorivor preparatlarning ko'p bo'lakli nomlaridagi ayrim modellar berilgan.

I. *Tabletkalar nomi.*

Ularda quyidagi aniqlovchilar ko'p uchraydi:

obductae –po'st (parda) bilan qoplangan

enterosolubiles - ichakda eriydigan

sublinguales- til ostiga qo'yiladigan

Masalan: Tabulettae Raunatini obductae – raunatinning po'st bilan qoplangan tabletkalari

II. Ekstraktlar nomi.

Ularda ekstraktlarning konsistensiyasini xarakterlovchi quyidagi aniqlovchilar uchraydi:

fluidum – suyuq

spissum – quyuq

siccum – quruq

Masalan: Extractum Crataegi fluidum – do‘lananing suyuq ekstrakti

III. Bitta asosiy vosita bilan oddiy va murakkab yozuvlar.

Bunday yozuvlarni farqlash uchun quyidagi sifatlar ishlatiladi:

simplex, icis– oddiy

compositus, a, um– murakkab

Masalan: Emplastrum Plumbi simplex – qo‘rg‘oshinning oddiy malhami

Emplastrum Plumbi compositum – qo‘rg‘oshinning murakkab malhami.

47-§. Quyidagi sifatlarni yod oling!

durus, a, um – qattiq, mustahkam

solidus, a, um – mahkam, mustahkam

aquosus, a, um – suvli

hydricus, a, um – suvli

anhydricus, a, um – suvsiz

oleosus, a, um – moyli

spirituosus, a, um – spirtli, spirtga tegishli

chartaceus, a, um – qog‘ozli, qog‘ozdan qilingan

amylaceus, a, um – kraxmalli, kraxmalga tegishli

aethereus, a, um – efirli

aethylicus, a, um – etil –i (-si)

suillus, a, um – cho‘chqa –i (-si)

porcinus, a, um – cho‘chqa –i (-si)

arenarius, a, um – qumli, qumloq

piperitus, a, um – qalampir –i(-si)

cardiacus, a, um – yurakka ta’sir etuvchi

laxativus, a, um – ich suradigan, surgı

catharticus, a, um – ich suradigan, surgı

diureticus, a, um – siydik haydovchi

cholagogus, a, um – o‘t haydovchi, o‘t haydaydigan

diaphoreticus a, um – terlatuvchi

analgeticus, a, um – og‘riqni qoldiruvchi
 anaestheticus, a, um – og‘riqsizlantiruvchi
 antipyreticus, a, um – issiqni pasaytiruvchi
 antisepticus, a, um – antiseptik
 antiasthmaticus, a, um – astmaga qarshi
 hypnoticus, a, um – uxlatadigan, uyqu keltiradigan
 somnifer, fera, ferum – uxlatadigan, uyqu keltiradigan
 narcoticus, a, um – narkotik
 haemostaticus, a, um – qon to‘xtatuvchi
 sedativus, a, um – tinchlantiradigan

Mashqlar

73- mashq. *Sifatlarni otlarga moslashtiring va atamalarni o‘zbek tiliga tarjima qiling.*

- | | |
|-----------------------------------|-----------------------------------|
| 1) axungia (porcinus, a, um) | 6) tinctura (aethereus, a, um) |
| 2) emulsum (oleosus, a, um) | 7) spongia (gelatinosus, a, um) |
| 3) paraffinum (solidus, a, um) | 8) tabuleta (obductus, a, um) |
| 4) unguentum (camphoratus, a, um) | 9) emplastrum (compositus, a, um) |
| 5) Lanolinum (anhydricus, a, um) | 10) remedium (laxativus, a, um) |

74- mashq. *O‘zbek tiliga tarjima qiling.*

1. Tinctura Rhei amara. 2. Extractum Frangulae fluidum. 3. Extractum Belladonnae spissum. 4. Infusum Sennae compositum. 5. Extractum Absinthii spissum. 6. Tabuletae Thyreoidini obductae. 7. Linimentum Olei Terebinthinae compositum. 8. Extractum Urticae fluidum. 9. Oleum Menthae piperitae. 10. Extractum Althaeae siccum.

75- mashq. *Atamalarning shartli tasvirini tuzib, Nom. va Gen. da lotin tiliga tarjima qiling.*

- 1) ravochning quruq ekstrakti
- 2) qoqining quyuk ekstrakti
- 3) arslonquyruqning suyuq ekstrakti
- 4) qalampir yalpiz suvi
- 5) valeriananing efirli nastoykasi
- 6) kuchalaning quruq ekstrakti
- 7) qumloq bo‘znochning ekstrakti
- 8) qumloq bo‘znochning suyuq ekstrakti.

76- mashq. *Quyidagi so‘zlarning sinonimlarini toping.*

Durus, aquosus, suillus, laxativus, hypnoticus, flavus, liquidus.

77- mashq. O'zbek tiliga tarjima qiling.

1. Remedia sunt cardiaca, analgetica, hypnotica, diuretica, cholagoga et cetera. 2. Tinctura Convallariae est remedium cardiacum. 3. Analginum est remedium analgeticum. 4. Luminalum est remedium hypnoticum. 5. Folium Sennae et Oleum Ricini sunt remedia laxativa. 6. Extractum Helichrysi arenarii fluidum est remedium cholagogum. 7. Decoctum foliorum Uvae ursi est remedium diureticum. 8. Tempalginum, Baralginum, Promedolum et cetera remediis analgeticis annumerantur (sanaladi).

Retseptlarni tarjima qiling!

1. Recipe: Extracti Eucommiae fluidi
Da.
Signa: Kuniga 3 marta 10-20 tomchidan ichilsin.
2. Recipe: Infusi Sennae compositae 30ml
Da.
Signa: 1 marta ichishga (kattalar uchun).
3. Recipe: Extracti Crataegi fluidi 30,0
Da.
Signa: Bir martaga 20 tomchidan ichilsin.
4. Recipe: Tabulettas extracti Sennae sicci 0,3 numero 25
Da.
Signa: Kuniga 2 marta 1 tabletkadan ichilsin.
5. Oling: Valeriananing efirli nastoykasidan 30 ml
Bering.
Belgilang: 1 martaga 15 tomchidan ichilsin.
6. Oling: ~~Chayona~~ning suyuq ekstraktidan
Bo'yadaronning suyuq ekstraktidan teng miqdorda 25 ml.dan
Mentoldan 0,05
Aralashtiring. Bering.
Belgilang: Kuniga 3 marta 25 tomchidan ichilsin.
7. Oling: Marvaridgul nastoykasidan
Valeriana nastoykasidan teng miqdorda 10 ml.dan
Do'lananing suyuq ekstraktidan 5 ml
Mentoldan 0,05
Aralashtiring. Bering.
Belgilang: Kuniga 2 marta 25 tomchidan ichilsin.

8. Oling: Aloyning suyuq ekstraktidan 1 ml
Shunday dozada 10(son)ta ampulada bering.
Belgilang: 1 ml.dan teri ostiga yuborilsin.
9. Oling: Raunatinning po'st bilan qoplangan tabletkalaridan 0,002
Bering.
Belgilang: Kuniga 2 marta 1 ta tabletkadan qabul qilinsin.

Uyga vazifa

I. "Dorivor preparatlarning ko'p bo'lakli nomlarida sifatlarning qo'llanilishi va dorivor preparatlarning ko'p bo'lakli nomlaridagi modellar" mavzularini o'zlashtirib oling. Quyidagi savollar yordamida bilimlaringizni tekshirib ko'ring.

1. Dorivor preparatlarning ko'p bo'lakli nomlarida birinchi o'rinda nimaning nomi yoziladi?
2. Dorivor o'simlik yoki dorivor modda nomi qaysi kelishikda yoziladi va nechanchi o'rinda turadi?
3. Sifat nimani karakterlaydi va qanday aniqlovchi bo'lib keladi?
4. ~~Tabletkalar nomi bilan qanday aniqlovchilar ishlatiladi?~~
5. Ekstraktlar nomi bilan qanday aniqlovchilar ishlatiladi?
6. Bitta asosiy vosita bilan oddiy va murakkab yozuvlarda qanday sifatlar ishlatiladi?

II. 47-§ dagi so'zlarni yod oling.

III. Chap ustundagi lotincha so'zlarning o'ng ustundagi o'zbekcha ekvivalentlarini toping.

- | | |
|--------------------------|--------------------------|
| 1) hydricus, a, um | a) siydik haydovchi |
| 2) arenarius, a, um | b) o't haydovchi |
| 3) oleosus, a, um | c) ich suradigan, surgi |
| 4) cholagogus, a, um | d) uxlatadigan |
| 5) diureticus, a, um | e) suvli |
| 6) antipyreticus, a, um | f) moyli |
| 7) hypnoticus, a, um | d) qattiq, mustahkam |
| 8) laxativus, a, um | h) issiqni pasaytiruvchi |
| 9) durus, a, um | i) og'riqsizlantiruvchi |
| 10) anaestheticus, a, um | j) qumli, qumloq |

IV. Atamalarning shartli tasvirini tuzib, Nom. va Gen. da lotin tiliga tarjima qiling.

- 1) shirinmiyaning quyuq ekstrakti

- 2) qalampir yalpiz moyi
- 3) sanoning murakkab damlamasi

V. Retseptlarni tarjima qiling.

1. Oling: Frangulaning suyuq ekstraktidan 50 ml
Bering.
Belgilang: 1 martaga 20 tomchidan ichilsin.
2. Oling: Spazmolitinning po'st bilan qoplangan tabletkalaridan 0,1
Bering.
Belgilang: Kuniga 2 marta 1 ta tabletkadan qabul qilinsin.
3. Oling: Kanakunjut moyidan 10,0
Jelatinli kapsulalarda bering.
Belgilang: Har yarim soatda qabul qilinsin.

VI. To'g'ri o'qishni o'rganing!

Oestradiolum, Oestradiol dipropionate, Aethinyloestradiolum, Eticyclin, Progynon, Climakterin, Proginova, Synoestrolum, Diaethylstilboestrolum, Synthoestrin, Syntofollin, Dimoestrolum, Sygethinum, Clomifene Citrate, Progesteronum, Lutocyclin, Syngestrone, Oxyprogesterone capronate, Praeginum, Lutocycol, Norethistroni, Norcolut, Allylestrenol, Gestanyn, Acetomepregenolum, Non-Ovlon, Ovidon, Norgestrel, Lindiol, Regevidon, Demulen, Minisiston, Microgynon, Femoden, Marvelon, Anteovin, Trisiston, Tri-Regol, Triquilar, Milvane, Postinor, Microlut, Praegoestrolum, Climonorm, Divina, Testoenatum, solutio "Tetrasteronum" oleosa pro injectionibus, Methyltestosteronum, tabulettae "Testobromlecithum" obductae, Distranorm, Methandrostenolonum, Retabolil, Phenobolinum, Nandrolonum phenylpropionicum, Silabolinum, Methylandrostendiolum, Alprostadiil, Caverject, Misoprostol, Artrotec, Latanoprost, Zafirlukast, Montelukast, Retinolum, Retinoli palmitas, solutio Retinoli acetatis, oleosa pro injectionibus, Oleum jecoris, Carotolinum.

15-dars

**48-§. Botanik nomenklaturada sifatlarning
ishlatilishi**

Botanik nomenklaturada sifatlar o'simlik turini va botanik oilani bildirish uchun ishlatiladi. O'simlik turini bildiradigan sifatlar ularning geografik tarqalishini, o'sish sharoitini; tashqi ko'rinishini va boshqa xususiyatlarini ifodalaydi.

Sifatlar o'simlik nomiga kelishikda, rodga va sonda moslashib keladi.

Masalan: *Atropa caucasica* – Kavkaz belladonnasi

Lekin ba'zi bir o'simlik nomi bilan birgalikda keladigan sifat unga rodada moslashmaydi.

Masalan: Polygonum bistorta — ilonsimon toron

Botanik oilalar nomini ko'rsatuvchi sifatlar -ferae, -ae, -aceae qo'shimchalari yordamida yasaladi. Ular jenskiy rodada bosh kelishik va ko'plik sonda bo'ladi.

Masalan: Fabaceae – dukkakkdoshlar

Cruciferae – butguldoshlar

Compositae – murakkabguldoshlar.

49-§. Jadval bilan tanishib chiqing va o'simliklar nomini yod oling!

Xarakterli belgisi	Misollar
1. Geografik tarqalishi	Atropa caucasica – Kavkaz belladonnasi Periploca graeca – Gretsiya periplokasi Laminaria japonica – Yapon laminariyasi Acetinum karakolicum – Qorako'l pargisi Schizandra chinensis – Xitoy limonniqi
2. O'sish sharoiti	Arnica montana – tog' arnikasi Gnaphalium uliginosum – botqoq gnafaliumi Scilla maritima – dengiz piyozi
3. Tuzilishi, tashqi ko'rinishi, rangi, ta'mi va boshqa xususiyatlari	Cassia acutifolia – o'tkir bargli sano Magnolia grandiflora – yirik gulli magnoliya Hypericum perforatum – teshik dalachoy Vinca erecta – tik o'suvchi bo'rigul Glycyrrhiza glabra – tuksiz qizilmiya Delphinium confusum – chalkashgan isparak Thalictrum minus – kichik sanchiqo't Gentiana lutea – sariq nufar Polemonium coeruleum – zangori polemonium Veratrum album – oq maralquloq Passiflora incarnata – to'q qizil passiflora
4. Boshqa o'simliklarga o'xshashligi	Vesnaga daucoides – sabzisimon visnaga Apocynum cannabinum – nashasimon kendir

50-§. Quyidagi botanik oilalar nomini yod oling!

- Berberidaceae – zirkdoshlar
- Cucurbitaceae – qovoqdoshlar
- Fabaceae – dukkardoshlar
- Liliaceae – lolaguldoshlar
- Linaceae – zig‘irdoshlar
- Magnoliaceae – magnoliyadoshlar
- Malvaceae – gulxayridoshlar
- Papaveraceae – ko‘knoridoshlar
- Pinaceae – qarag‘aydoshlar
- Polygonaceae – torondoshlar
- Rosaceae – ra‘noguldoshlar
- Urticaceae – gazandadoshlar

Mashqlar

78-mashq. *-aceae qo‘shimchasi yordamida botanik oilalarning nomini yozing.*

araliyadoshlar, zig‘irdoshlar, valerianadoshlar, jo‘kadoshlar, likopo-diyadoshlar.

79-mashq. *Sifatlarni otlarga moslashtiring va atamalarni o‘zbek tiliga tarjima qiling.*

1. Glaucium (flavus, a, um)
2. Strephania (glaber, bra, brum)
3. Helichrysum (arenarius, a, um)
4. Helleborus (caucasicus, a, um)
5. Aloë (striatulus, a, um –yo‘l –yo‘l).

80-mashq. *O‘zbek tiliga tarjima qiling.*

1. Capsicum annuum. 2. Eucalyptus cinerea. 3. Helichrysum arenarium. 4. Hyoscyamus niger. 5. Rhamnus cathartica. 6. Veratrum album. 7. Gentiana lutea.

81-mashq. *Atamalarning shartli tasvirini tuzib, Nom. va Gen. da lotin tiliga tarjima qiling.*

- | | |
|-----------------------|---|
| 1) qora mingdevona | 5) arman gulxayrisi |
| 2) kavkaz xelleborusi | 6) yuraksimon jo‘ka |
| 3) kulrang evkalipt | 7) qumloq bo‘znochning quruq ekstrakti |
| 4) qalampir yalpiz | 8) yirik gulli magnoliyaning suyuq ekstrakti. |

82-mashq. O'zbek tiliga tarjima qiling.

1. Lanolinum anhydricum in chloroformio bene solvitur. 2. Allocholum extractum Urticae siccum et extractum Allii sativi siccum continet. 3. Capsulas gelatinosas ex gelatina, aqua, glycerino praeparant. 4. Emplastrum Plumbi compositum in ollis datur. 5. Linimentum chloroformii compositum chloroformium et oleum Hyoscyami continet.

83-mashq. Berilgan kataklarda hikmat yashiringan. Quyidagi so'zlarning antonimlarini topib, kataklarni to'ldiring, keyin raqamlar bo'yicha harflarni kataklarga yozing va hikmatni o'qing.

1) externus 9) hydricus 17) internus 25) albus 30) antidotum.

1	2	3	4	5	6	7	8	
9	10	11	12	13	14	15	16	
17	18	19	20	21	22	23	24	
25	26	27	28	29				
30	31	32	33	34	35	36	37	38

1	8	3		38	35	34	15	16		17	18		5	20	27	28	29
---	---	---	--	----	----	----	----	----	--	----	----	--	---	----	----	----	----

Retseptlarni tarjima qiling!

1. Recipe: Infusi herbae Hyperici perforati 20,0-200 ml
Da.
Signa: 1 kunda 3 marta ovqatdan oldin ichilsin.
2. Recipe: Extracti Passiflorae incarnatae fluidi 40 ml
Da.
Signa: Kuniga 3 marta 20 tomchidan ichilsin.
3. Recipe: Extracti Sanguisorbae fluidi 30 ml
Da.
Signa: Kuniga 4 marta 40 tomchidan ichilsin.
4. Recipe: Suppositoria cum Digitoxino 0,00015 numero 10
Da .
Signa: Kuniga 1 marta 1 ta shamchadan qo'yilsin.
5. Oling: Arslonquyuqning suyuq ekstraktidan 25ml
Bering.
Belgilang: Kuniga 3 marta 20 tomchidan ichilsin.

6. Oling: Qalampir yalpiz barglarining damlamasidan 50,0: 200 ml.dan
Bering.
Belgilang: Har 3 soatda 1 osh qoshiqdan ichilsin.
7. Oling: Levzeyaning suyuq ekstraktidan
Bering.
Belgilang: Kuniga 3 marta 20 tomchidan ichilsin.

Uyga vazifa

I. "Botanik nomenklaturada sifatlarning ishlatilishi" mavzusini o'zlashtirib oling. Quyidagi savollar yordamida bilimlaringizni tekshirib ko'ring.

1. Botanik nomenklaturada sifatlari nimalarni bildiradi?
2. O'simlik turini bildiradigan sifatlari nimalarni ifodalaydi?
3. Botanik oilalar nomlari qanday qo'shimchalar yordamida yasaladi?

II. 49,50-§lardagi so'z va so'z iboralarini yod oling.

III. Atamalarning shartli tasvirini tuzib, Nom. va Gen. da lotin tiliga tarjima qiling.

- 1) to'q qizil passifloraning suyuq ekstrakti
- 2) teshik dalachoyning yer ustki qismi
- 3) gnafalium yer ustki qismining damlamasi.

IV. Retseptlarni tarjima qiling.

1. Recipe: Extracti Passiflorae fluidi 30 ml

Da.

Signa: Kuniga 3 marta 30 tomchidan ichilsin.

2. Oling: Qalampir yalpiz nastoykasidan 25 ml.

Bering.

Belgilang: Bir marta qabulga 15 tomchidan ichilsin.

3. Oling: Marvaridgul nastoykasidan

Valeriana nastoykasidan teng miqdorda 10 ml. dan

Do'lananing suyuq ekstraktidan 5 ml

Mentoldan 0,5

Aralashtiring. Bering.

Belgilang: Kuniga 2-3 marta 15-20 tomchidan ichilsin.

V. Quyidagi hikmatlarni yod oling!

1. Mala herba cito crescit. – Begona o't tez o'sadi.
2. Salus populi – suprema lex. – Xalq farovonligi oliy qonun.

VI. To'g'ri o'qishni o'rganing!

Oleum jecoris depuratum pro usum interno, oleum jecoris Aselli vitaminisatus, Acitretin, Isotretinoine, Carotin, Thiaminum, Thiamini bromidum, faex medicinalis, Serevisiae fermentum siccum depuratum, solutio "Thiodinum", Phosphothiaminum, Cocarboxylasum, Benphothiaminum, Riboflavinum, Riboflavinum-mononucleotidum, Flavinatum, Pyridoxinum, Pyridoxini hydrochloridum, Pyridoxalphosphatum, Cyanocobalaminum, Oxycobalaminum, Cabamamidum, Vitohepatum, Acidum folicum, Calcium folinate, Acidum ascorbinicum, sirupus ex fructibus Rosae, Galascorbinum, Rutinum, Quercetinum, Acidum nicotinicum, Nicotinamidum, Calcium pantothenate, Panthenol, Tocopheroli acetat, Profecundin, Phytomenadionum, Cholecalciferolum, Vigantol, Oxidevitum, Misoprostol, Artrotec, Latanoprost, Videcholum, Calcitriol, Alphacalcidol, Calcipotriol, Methylmethioninsulfonii chloridum, Calcii pangamas, Cholini chloridum, Acidum lipoicum, Lipamidum, Carotini, Vikasolum, Ergocalciferolum.

16-dars

51-§. ~~Vaksinalar, zardoblar va anatoksinlar nomida~~ sifatlarining ishlatilishi

Vaksinalar, zardoblar va anatoksinlar nomidagi sifatlar tegishli kasalliklarning nomlariga – icum va – osum suffiksalarini qo'shib hosil qilinadi.

Masalan: vaccinum brucellicum – qora oqsoq(brutsellyoz)ga oid vaksina
„serum antigangraenosum – gangrenaga qarshi zardob
anatoxinum tetanicum – qoqsholga qarshi anatoksin

Vaksina, zardob va anatoksinlar nomlarida quyidagi aniqlovchilar qo'llaniladi:

purificatus, a, um – tozalangan

concentratus, a, um – konsentratsiya qilingan

vivus, a, um – tirik

siccus, a, um – quruq

adsorptus, a, um – adsorbsiya qilingan

Masalan: serum antigangraenosum (purificatum concentratum)

vaccinum brucellicum vivum (siccum)

anatoxinum diphtherico - tetanicum (purificatum)

Eslatma: Vaksinalarning moslashmagan aniqlovchi yordamida hosil qilingan nomlari ham uchraydi.

Masalan: vaccinum variolae – chechak vaksinasi (variola, ae, f – chechak kasalligi)

52- §. Quyidagi sifatlarni yod oling !

brucellicus, a, um – qora oqsoq (brutsellyoz)ga oid
cholericus, a, um – vaboga oid
pertussicus, a, um – ko‘k yo‘talga oid
antipestosus, a, um – o‘latga qarshi
antirabicus, a, um – quturishga qarshi
antituberculosicus, a, um – sil (tuberkulyoz) ga qarshi
antidiphthericus, a, um – bo‘g‘maga qarshi
antigangraenosus, a, um – gangrenaga qarshi
antitetanicus, a, um – qoqshol (stolbnyak) ga qarshi
sulfuratus, a, um – oltingugurtli
ammoniatatus, a, um – ammiakli
camphoratus, a, um – kamforali
anisatus, a, um – arpabodiyonli
ceratus, a, um – mumlangan
naphthalanatus, a, um – naftalanli
paraffinatus, a, um – parafin bilan qoplangan
adhaesivus, a, um – yopishqoq
vesicatorius, a, um – chipqonga qo‘yiladigan
collagenicus, a, um – kollagenli
isotonicus, a, um – izotönik
crystallisatus, a, um – kristall...
medicatus, a, um – tibbiy (tibbiyot) –i,(-si)
gastricus, a, um – oshqozon –i,(-si)
stomachicus, a, um – oshqozon –i,(-si)
ophthalmicus, a, um – ko‘z –i,(-si)

Mashqlar

84-mashq. *O‘zbek tiliga tarjima qiling.*

- 1) serum antidiphthericum (purificatum concentratum)
- 2) anatoxinum staphylococcicum
- 3) vaccinum cholericum (purificatum concentratum)
- 4) vaccinum cholericum (siqçum)
- 5) vaccinum pertussico – diphtherico-tetanicum .
- 6) serum antitetanicum (purificatum concentratum)

85-mashq. *Sifatlarni otlarga moslashtiring va atamalarni o‘zbek tiliga tarjima qiling.*

- 1) remedium (haemostaticus, a, m)
- 2) linimentum (ammoniatatus, a, um)

- 3) charta (ceratus, a, um)
- 4) emplastrum (adhaesivus, a, um)
- 5) succus (gastricus, a, um)
- 6) capsula (gelatinosus a, um; elasticus, a, um)

86-mashq. Lotin tiliga tarjima qiling.

- | | |
|-------------------------------|------------------------------|
| 1) silga qarshi zardob | 5) quturishga qarshi vaksina |
| 2) o'latga qarshi vaksina | 6) gangrenaga qarshi zardob |
| 3) silga qarshi BSJ vaksinasi | 7) qoqsholga qarshi zardob |
| 4) vaboga oid vaksina | 8) ko'kyo'talga oid vaksina |

87-mashq. Atamalarning shartli tasvirini tuzib, Nom. va Gen. da lotin tiliga tarjima qiling.

- | | |
|-----------------------------------|-----------------------------------|
| 1) kamforali moy | 6) ro'yanning quyuq ekstrakti |
| 2) naftalanli surtma | 7) aloyning quyuq ekstrakti |
| 3) chipqonga qo'yiladigan malham | 8) tetratsiklinning ko'z surtmasi |
| 4) kristall yod | 9) qon to'xtatuvchi gubka |
| 5) parafin bilan qoplangan qog'oz | 10) ko'z tomchilari |

Retseptlarni tarjima qiling !

1. Oling: Bo'g'maga qarshi zardobdan (tozalangan konsentratsiya qilingan) 10000 AYe

Shunday dozalarda 6(son)ta ampulada bering.

Belgilang:

2. Oling: Polivaksinadan 10 ml

Bering.

Belgilang: Teri ostiga 2 ml.dan yuborilsin.

3. Oling: Qumloq bo'znochning quruq ekstraktidan 1,0

Shunday dozalarda 42(son)ta bering.

Belgilang: Kuniga 3 marta 1ta kukundan qabul qilinsin.

4. Oling: Oshqozon shirasidan 100,0

Bering.

Belgilang: Kuniga 3 marta 1 osh qoshiqdan ovqat mahalida ichilsin.

5. Oling: Tetratsiklinning ko'z surtmasidan 10,0

Bering.

Belgilang: Ko'z surtmasi.

6. Oling: Streptotsidning suyuq surtmasidan 5% 40,0

Ammiakli suyuq surtmadan 40,0

Aralashtiring. Bering.

Belgilang: Uqalash uchun.

Uyga vazifa

I. "Vaksinalar, zardoblar va anatoksinlar nomida sifatlarning ishlatilishi" mavzusini o'zlashtirib oling. Quyidagi savollar yordamida bilimlaringizni tekshirib ko'ring.

1. Vaksina, zardob va anatoksinlar nomidagi sifatlar qanday hosil qilinadi?
2. Vaksina, zardob va anatoksinlar nomlarida qanday aniqlovchilar ishlatiladi?

II. 52-§ dagi so'zlarni yod oling.

III. Chap ustundagi lotincha so'zlarning o'ng ustundagi o'zbekcha ekvivalentlarini toping.

- | | |
|----------------------------|---------------------------|
| 1) cholericus, a, um | a) arpadodiyonli |
| 2) pertussicus, a, um | b) mumlangan |
| 3) anisatus, a, um | c) ko'kyo'talga oid |
| 4) ceratus, a, um | d) vaboga oid |
| 5) sulfuratus, a, m | e) oltingugurtli |
| 6) gastricus, a, um | f) chipqonga qo'yiladigan |
| 7) vesicatorius, a, um | g) o'latga qarshi |
| 8) adhaesivus, a, um | h) bo'g'maga qarshi |
| 9) antidiphthericus, a, um | i) oshqozon -i, (-si) |
| 10) antipestosus, a, um | j) yopishqoq |

IV. Atamalarining shartli tasvirini tuzib, Nom. va Gen. da lotin tiliga tarjima qiling.

- | | |
|---------------------|----------------------------|
| 1) oshqozon shirasi | 3) jelatinli gubka |
| 2) kamforali surtma | 4) bo'g'maga qarshi zardob |

V. Retseptlarni tarjima qiling.

1. Recipe: Tincturae Convallariae
Tincturae Valerianae ana 10 ml
~~Extracti Crataegi fluidi 5 ml~~
Mentholi 2,05
Misce. Da.
Signa: Kuniga 2 marta 25 tomchidan ichilsin.
2. Recipe: Extracti Eucommiae fluidi 25 ml
Da.
Signa: Kuniga 3 marta 25 tomchidan ichilsin.
3. Oling: Qoqsholga qarshi zardobdan 3000 AYe
2 (son)ta ampulalarda bering.
Belgilang: Vrachning qo'liga berilsin.

VI. To'g'ri o'qishni o'rganing!

Aevitum, Pentovitum, Panhexavitum, Heptavitum, Decamevitum,

tabulettae “Aërovitum” obductae, Tetravitum, dragee “Hexavitum”, dragee “Undevitum”, tabulettae “Tetrafolevitum” obductae, dragee “Hendevitum”, Amitetravitum, tabulettae “Quadevitum” obductae, Glutamevitum, Complivitum, Aecolum, oleum Rosae, oleum ex fructibus et foliis Hippophaës, Olasolum, membranula “Oblecolum”, Hiposolum, fructus Sorbi aucupariae, Trypsinum, Chymotrypsinum crystallisatum, Chymopsinum, Terrilytinum, Terridecasum, Ribonucleasum amorphum, Desoxyribonucleasum, Collagenasum, Asperasa, Lysoamidasa, Profezimum, Caripazinum, Pepsinum, succus gastricus naturalis, tabulettae Acidin-pepsini, Pepsidilum, Abominum, Pancreatinum, Orazum, Solizymum, Somilasum, Nigedaza, Panzynorm forte, Pancurmen, Festal, Digestal, Enzystal, Mezym forte, Lydazum, Ronidazum, Cytochromum C, Penicillinasum, Pantrypinum, Ingitrilum, Contrykal, Gordox, Acidum glutaminicum.

17-dars

53-§. Majhullik nisbatidagi o'tgan zamon sifatdoshi

Lotin farmatsevtika atamashunosligida ko'pincha majhullik nisbatidagi o'tgan zamon sifatdoshi qo'llaniladi. Ular fe'llardan tashkil topib, mujskoy rodde -us, jenskiy rodde -a, sredniy rodde esa -um qo'shimchasiga ega bo'ladi.

Sifatdoshlar I-II turlanishdagi sifatlarga o'xshab turlanadi va otlarga rodde, sonda, kelishikda moslashadi.

54-§. Quyidagi sifatdoshlarni yod oling!

destillatus, a, um - distillangan
depuratus, a, um - tozalangan
rectificatus a, um - tozalangan (etil spirti, skipidar)
purificatus, a, um - tozalangan (vaksina, zardob va anatoksinlar)
exsiccatus, a, um - quritilgan
praecipitatus, a, um - cho'ktirilgan
pulveratus, a, um - kukunga aylantirilgan
concisus, a, um - maydalangan, kesilgan, qirqilgan
sterilisatus, a, um - sterilizatsiya qilingan
contusus, a, um - tuyilgan, yanchilgan
reductus, a, um - qaytarilgan
ustus, a, um - olovda kuydirilgan
tritrus, a, um - ishqalab maydalangan
concentratus, a, um - konsentratsiya qilingan, konsentrlangan
dilutus, a, um - suyultirilgan

conservatus, a, um - konservatsiya qilingan
obductus, a, um – po‘st bilan qoplangan
activatus, a, um - faollashtirilgan
vitaminisatus, a, um - vitaminlashtirilgan
solutus, a, um- eritilgan

Mashqlar

88-mashq. *Quyidagi sifatdoshlarning qaysi fe'llardan tashkil topganligini aniqlang.*

- | | |
|-----------------------|------------------------|
| 1) filtratus, a, um | 5) conservatus, a, um |
| 2) destillatus, a, um | 6) obductus, a, um |
| 3) contusus, a, um | 7) sterilisatus, a, um |
| 4) dilutus, a, um | 8) depuratus, a, um |

89-mashq. *Sifatdoshlarni otlarga moslashtiring. So‘z birkmalarini o‘zbek tiliga tarjima qiling.*

- | | |
|------------------------------|--|
| 1) camphora (tritus, a, um) | 6) herba Millefolii (exsiccatus, a, um) |
| 2) aqua (destillatus, a, um) | 7) chole (conservatus, a, um) |
| 3) acidum (dilutus, a, um) | 8) serum (purificatus, a, um) |
| 4) folia (concisus, a, um) | 9) Oleum Terebinthinae (rectificatus, a, um) |
| 5) Ferrum (reductus, a, um) | 10) Hydrargyrum (praecipitatus, a, um). |

90-mashq. *Nom. va Gen. da lotin tiliga tarjima qiling.*

- 1) konsentrlangan kislota
- 2) olovda kuydirilgan magneziya
- 3) po‘st bilan qoplangan tabletkalar
- 4) konservatsiya qilingan oshqozon shirasi
- 5) qirrilgan quritilgan barglar
- 6) sterilizatsiya qilingan oq gil (tuproq)
- 7) konservatsiya qilingan tibbiyot safrosi
- 8) tozalangan vaksina.

91-mashq. *O‘zbek tiliga tarjima qiling.*

1. Tabulettae stomachicae cum extracto Belladonnae. 2. Acida concentrata et diluta sunt. 3. Ex herba Millefolii exsiccata infusum praeparatur. 4. Hydrargyrum praecipitatum album remedium antisepticum externum est. 5. Praeparate unguentum ex Hydrargyro praecipitato albo, Vaselino et Lanolino anhydrico. 6. Da puero tabulettas Tetracyclini obductas.

Retseptlarni tarjima qiling!

1. Recipe: Tabulettas Dimecolini 0,025 obductas numero 50.

Da.

Signa: Kuniga 2 marta 1 ta tabletkadan qabul qilinsin.

2. Recipe: **Tabulettas Ferri reducti obductas 0,2 numero 20.**
Da.
Signa: Kuniga 3 marta 1 ta tabletkadan qabul qilinsin.
3. Recipe: **Camphorae tritae 2,0**
Tincturae Valerianae 20 ml
Misce. Da.
Signa: Kuniga 2 marta 20 tomchidan ichilsin.
4. Recipe: **Olei Terebinthinae rectificati 10 ml**
Da.
Signa: 1 stakan issiq suvga 10 - 15 tomchi solib,ingalyatsiya qilinsin.
5. Oling: **Xinozoldan 0,2**
Distillangan suvdan 200 ml
Aralashtiring. Bering.
Belgilang: Jarohatlangan joyni yuvish uchun.
6. Oling: **Protargoldan 0,5**
Glitserindan 3,0
Distillangan suvdan 30 ml. gacha
Aralashtiring. Bering.
Belgilang: Purkab yuvish uchun.
7. Oling: **Novokaindan 0,5**
Distillangan suvdan 200 ml
Aralashtiring. Bering.
Belgilang: 1 osh qoshiqdan ichilsin.
8. Oling: **Valeriana ekstraktining po'st bilan qoplangan tabletkalaridan 0,02 50(son)ta**
Bering.
Belgilang: Kuniga 3 marta 2 ta tabletkadan qabul qilinsin.
9. Oling: **Kuydirilgan magneziyadan 20,0**
Distillangan suvdan 120 ml
Aralashtiring. Bering.
Belgilang: Kislotadan zaharlanganda har 10 daqiqada 1 osh qoshiqdan qabul qilinsin.
10. Oling: **Qoqi nastoykasidan**
Achchiq nastoykadan teng miqdorda 10 ml
Kuchala nastoykasidan 5 ml
Aralashtiring. Bering.
Belgilang: Kuniga 3 marta 20 tomchidan ichilsin.

Uyga vazifa

I. "Majhullik nisbatidagi o'tgan zamon sifatdoshi" mavzusini o'zlashtirib oling va quyidagi savollar yordamida bilimlaringizni tekshirib ko'ring.

1. O'tgan zamon sifatdoshi qaysi so'z turkumidan tashkil topadi?
2. Sifatdoshlar qanday qo'shimchalarga ega?
3. Sifatdoshlar kelishiklar bo'yicha qanday turlanadi?

II. 54-§ dagi so'zlarni yod oling.

III. Chap ustundagi lotincha so'zlarning o'ng ustundagi o'zbekcha ekvivalentlarini toping.

- | | |
|--------------------------|--------------------------|
| 1) concisus, a, um | a) tuyilgan, yanchilgan |
| 2) reductus, a, um | b) ishqalab maydalangan |
| 3) tritus, a, um | c) tozalangan |
| 4) dilutus, a, um | d) quritilgan |
| 5) obductus, a, um | e) maydalangan, kesilgan |
| 6) contusus, a, um | f) kukunga aylantirilgan |
| 7) exsiccatus, a, um | g) qaytarilgan |
| 8) pulveratus, a, um | h) po'st bilan qoplangan |
| 9) depuratus, a, um | i) cho'ktirilgan |
| 10) praecipitatus, a, um | j) suyultirilgan |

IV. Nom. va Gen. da lotin tiliga tarjima qiling.

- | | | |
|--|----------------------|---------------------|
| 1. aloyning po'st bilan qoplangan tabletkalari | 2. qirqilgan barglar | 3. distillangan suv |
|--|----------------------|---------------------|

V. Retseptlarni tarjima qiling.

1. Recipe: Emulsi oleosi 100,0
Camphorae 1,0
Olei Menthae piperitae gtt. V
Misce. Da.
Signa: Kuniga 2 marta 1 osh qoshiqdan ichilsin.
2. Recipe: Extracti Aloës fluidi 1 ml
Da tales doses numero 10 in ampullis
Signa: Teri ostiga 1 ml.dan yuborilsin.
3. Recipe: Mentholi 0,5
Olei Amygdalarum 200,0

Aquae destillatae 120,0

Misce, ut fiat emulsum.

Da.

Signa: Kuniga 3 marta 1 osh qoshiqdan ichilsin.

4. Recipe: Infusi foliorum Menthae piperitae ex 5,0: 200 ml

Da.

Signa: Har 3 soatda 1 osh qoshiqdan ichilsin.

VI. Quyidagi hikmatlarni yod oling!

1. Repetitio est mater studiorum. – Takrorlash o‘qishning onasidir.

2. Pigritia – mater vitiorum. – Dangasalik kamchiliklarning onasi.

VII. To‘g‘ri o‘qishni o‘rganing!

Calcii glutaminas, Methioninum, Histidinum, Glucinum, Cysteinum, Vamin, Viceinum, Taufonum, Cerebrolysinum, Hydrolysin, Fibrinosolum, Polyferum, Hydrolysatum Caseini, Aminotrophum, Aminocrovinum, Infusaminum, Calcii lactas, Polyaminum, Vaminolact, Aminosteril, Nephramin, Lipofundinum, Rheopolyglucinum, Rheopolyglucinum cum Glucoso, Rondex, Haemodesum, Rheomacrodex, Neohaemodesum, Gluconeodesum, Enterodesum, Lacrisyn, ~~Gelatinolum, Volcanum~~, Lactoproteinum, solutio Natrii chloridi isotonica pro injectionibus, solutio Natrii chloridi composita, solutio Ringer - Locke, solutio “Disolum”, solutio “Trisolum”, solutio “Acesolum”, solutio “Chlosum”, solutio “Quartasolum”, solutio “Lactasolum”, Sanasolum, tabulettae Petrovi, tabulettae “Glucosolanum”, Citraglucosolanum, solutio Polyvinylpyrrolidoni pro injectionibus, Natrii hydrocarbonas, Trisaminum, Pehanorm, Trometamol, Dimephosphonum, Acidum hydrochloricum, Hylac, Calcii chloridum, Calcii gluconas, Fosamax, Alendronat Sodium, Etidronate Sodium, Osteogenon, Osteochin, Kalii chloridum, Kalium - normin, Kalipoz prolongatum.

18-dars

55 -§. Kimyoviy elementlarning lotincha nomi

Kimyoviy elementlarning nomi II turlanish sredniy roddagi otlar bo‘lib, **Nominativus Singularisda -um, Genetivus Singularisda -i** qo‘shimchasiga ega. Faqat **Phosphorus, i, m** (II turlanish mujskoy rod) va **Sulfur, uris, n** (III turlanish) bu qoidadan mustasno.

56-§. Quyidagi kimyoviy elementlar nomlarini yod oling!

Kimyoviy belgisi	Lotincha nomi	O‘zbekcha nomi
Al	Aluminium, i, n	alyuminiy
Ag	Argentum, i, n	kumush
Au	Aurum, i, n	oltin
Ba	Barium, i, n	bariy
Bi	Bismuthum, i, n	vismut
Br	Bromum, i, n	brom
Ca	Calcium, i, n	kalsiy
Cl	Chlorum, i, n	xlor
Cu	Cuprum, i, n	mis
Fe	Ferrum, i, n	temir
F	Fluorum, i, n	ftor
H	Hydrogenium, i, n	vodorod
Hg	Hydrargyrum, i, n	simob
I	Iodum, i, n	yod
K	Kalium, i, n	kaliy
Li	Lithium, i, n	litiy
Mg	Magnium, i, n Magnesium, i, n	magniy
Na	Natrium, i, n	natriy
N	Nitrogenium, i, n	azot
O	Oxygenium, i, n	kislorod
Ph	Phosphorus, i, m	fosfor
Pb	Plumbum, i, n	qo‘rg‘oshin
S	Sulfur, uris, n	oltingugurt
Zn	Zincum, i, n	rux

92-mashq. Quyidagi kimyoviy elementlar nomini *Nom. Sing. va Gen. Sing. da yozing.*

aluminium, bariy, vismut, ftor, litiy, natriy, kislorod, simob, oltingugurt, vodorod, kaliy, qo‘rg‘oshin, rux.

57-§. Kislotalarning lotincha nomi

Lotin tilida kislotalar nomi **acidum** (kislota) soʻzidan va - **icum** sifat qoʻshimchasidan yasaladi.

Masalan: Acidum boricum - borat kislota

58-§. Quyidagi kislotalar nomini yod oling!

Acidum(i) aceticum(i) -sirka kislota
Acidum(i) acetylsalicylicum(i) -atsetilsalitsilat kislota
Acidum(i) ascorbinicum(i) -askorbinat kislota
Acidum(i) benzoicum(i) -benzoat kislota
Acidum(i) boricum(i) -borat kislota
Acidum(i) carbolicum(i) -karbolat kislota
Acidum(i) carbonicum(i) -koʻmir kislota
Acidum(i) citricum(i) -limon kislota
Acidum(i) dehydrocholicum(i) -degidroxolat kislota
Acidum(i) etacrynicum(i) -etakrin kislota
Acidum(i) ferro- ascorbinicum(i) -temir askorbinat kislota
~~Acidum(i) folicum(i) -folat kislota~~
Acidum(i) glutaminicum(i) -glutamin kislota
Acidum(i) hydrochloricum(i) -xlorid kislota
Acidum(i) lacticum(i) -sut kislota
Acidum(i) lipoicum(i) -lipoy kislota
Acidum(i) nicotinicum(i) -nikotin kislota
Acidum(i) salicylicum(i) -salitsilat kislota

Mashqlar

93-mashq. Oʻzbek tiliga tarjima qiling.

1. Sulfur praecipitatum. 2. Acidum concentratum. 3. Emplastrum Plumbi compositum. 4. Unguentum Zinci. 5. Sirupus Aloës cum Ferro. 6. Acidum hydrochloricum dilutum. 7. Unguentum Acidi borici. 8. Unguentum Hydrargyri cinereum. 9. Unguentum Hydrargyri album. 10. Acidum carbolicum crystallisatum.

94-mashq. Nom. Sing. va Gen. Sing. da lotin tiliga tarjima qiling.

- | | |
|------------------------------|---------------------------------|
| 1) suyultirilgan kislota | 5) qoʻrgʻoshin suvi |
| 2) choʻktirilgan oltingugurt | 6) suyultirilgan xlorid kislota |
| 3) rux surtmasi | 7) simobning sariq surtmasi. |
| 4) qaytarilgan toʻmir | |

95-mashq. Quyidagi harflar orasidan 15 ta elementning nomini toping va o'zbek tiliga tarjima qiling

R A R G E N T U M P H O
B A R I U M A G N I U M
A U R U M O B R O M U M
L I T H I U M N O A K B
U P L U M B U M S Z U M
M A G N E S I U M A O I
I O D U M Y K A L I U M
N I T R O G E N I U M O
I P H O S P H O R U S C
M A G N I U M X Y O N I
S U L F U R Z I N C U M

Retseptlarni tarjima qiling!

1. Recipe: Sulfuris praecipitati 1,2
Glycerini 5,0
Aquae destillatae 90 ml
Misce. Da.
Signa: Bosh terisiga surtish uchun.
2. Recipe: Tabulettas Acidi lipoici 0,025
Da.
Signa: Kuniga 3 marta 1 ta tabletkadan qabul qilinsin.
3. Recipe: Acidi benzoici 0,6
Acidi salicylici 0,3
Vaselini 10,0
Misce. Da.
Signa: Surtma
4. Recipe: Acidi borici 2% 100,0
Da.
Signa: 1 stakan suvga 1 choy qoshiqda solib, og'iz boqshlig'i chayqalsin.
5. Recipe: Oxygenii 1,5
Da.
Signa: Bolalar uchun.
6. Recipe: Aquae Plumbi
Aquae destillatae ana 50 ml

- Acidi borici 2 ml**
Misce. Da.
Signa: Malham
- 7. Recipe: Acidi hydrochlorici diluti 1 ml**
Pepsini 2,0
Aquae destillatae 100 ml
Misce. Da.
Signa: 1 yoshli bolaga kuniga 3 marta ovqatdan oldin 1 choy qoshiqdan ichirilsin.
- 8. Oling: Salitsilat kislotadan 2,0**
Cho'ktirilgan oltingugurtdan 5,0
Glitserindan 15,0
Qo'rg'oshin suvidan 170 ml
Aralashtiring. Bering.
Belgilang: Kuniga 2 marta bosh terisiga surtilsin.
- 9. Oling: Suyultirilgan xlorid kislotadan 15 ml**
Bering.
Belgilang: 1/4 stakan suvga 10-15 tomchi solib, 2 marta ichilsin.
- 10. Oling: Salitsilat kislotadan 5,0**
Skipidardan
Lanolindan teng miqdorda 1,0 dan
Xloroformdan 3,0
Vazelindan 3,0
Aralashtiring. Bering.
Belgilang: Surtma
- 11. Oling: Dimedroldan 0,02**
Borat kislotadan 0,2
Distillangan suvdan 10 ml
Aralashtiring. Bering.
Belgilang: Kuniga 3 marta 1 tomchidan ko'zga tomizilsin.
- 12. Oling: Atsetilsalitsilat kislotasi tabletkalaridan 0,25 10 (son)ta**
Bering.
Belgilang: Kuniga 3 marta ovqatdan keyin 1ta tabletkadan qabul qilinsin.

Uyga vazifa

I. "Kimyoviy elementlar va kislotalarning lotincha nomi" mavzularini o'zlashtirib oling va quyidagi savollar yordamida bilimlaringizni tekshirib ko'ring.

1. Kimyoviy elementlar nomining kelishigi va rodini ayting.

2. Lotin tilida kislotalar nomi qanday yasaladi?

II. 56,58-§§ dagi kimyoviy elementlar va kislotalar nomini yod oling.

III. Chap ustundagi lotincha so'zlarning o'ng ustundagi o'zbekcha ekvivalentlarini toping.

- | | |
|----------------------------|-----------------------------|
| a) 1) Ferrum, i, n | a) kislorod |
| 2) Iodum, i, n | b) temir |
| 3) Nitrogenium, i, n | c) fluor |
| 4) Oxygenium, i, n | d) fosfor |
| 5) Plumbum, i, n | e) oltingugurt |
| 6) Phosphorus, i, m | f) azot |
| 7) Zincum, i, n | g) mis |
| 8) Sulfur, uris, n | h) qo'rg'oshin |
| 9) Cuprum, i, n | i) rux |
| 10) Fluorum, i, n | j) yod |
| b) 1) acidum citricum | a) sut kislota |
| 2) acidum salicylicum | b) temir askorbinat kislota |
| 3) acidum ascorbinum | c) glyutamin kislota |
| 4) acidum ferro-ascorbicum | d) xlorid kislota |
| 5) acidum lacticum | e) limon kislota |
| 6) acidum etacrynicum | f) benzoat kislota |
| 7) acidum hydrochloricum | g) salitsilat kislota |
| 8) acidum benzoicum | h) lipoy kislota |
| 9) acidum lipoicum | i) etakrin kislota |
| 10) acidum glutaminicum | j) askorbinat kislota |

IV. Retseptlarni tarjima qiling.

1. Recipe: Acidi lactici 50 ml

Da.

Signa: Purkab yuvish uchun.

2. Recipe: Unguenti Wilkinsoni 20,0

Unguenti Zinci ad 100,0

Misce. Da.

Signa: Zamburug'li kasalliklarda teriga surtilsin.

3. Recipe: Ferri reducti 1,0
Da tales doses numero 15 in capsulis gelatinosis.
Signa: Kuniga 3 marta 1ta kapsuladan qabul qilinsin.
4. Oling: Simobning kulrang surtmasidan 5,0
Bering.
Belgilang: Terining zararlangan joyiga surtilsin.
5. Oling: Benzoat kislotadan 0,6
Salitsilat kislotadan 0,3
Vazelindan 10,0
Aralashtiring. Bering.
Belgilang: Surtma.
6. Oling: Kuydirilgan magnezিয়adan 20,0
Distillangan suvdan 120,0
Aralashtiring. Bering.
Belgilang: Kislotadan zaharlanganda har 10 minutda 1 osh qoshiqdan ichilsin.

V. To'g'ri o'qishni o'rganing!

Panangin, Asparcamum, Magnerot, Ferri lactas, tablettae "Haemostimulinum", tablettae "Phytoferrolactolum", Ferrosi sulfas, tablettae "Ferrocolum" obductae, Ferroplex, Conferon, Ferro - Gradumet, Tardiferon, Fefol - vit, Haemofer, Ferramidum, Ferroceronum, Ferbitolum, Fercovenum, Ferrum Lek, Feracrylum, Oxyferriscorbone natrium, Coamidum, Iodum, tablettae "Microiodum" obductae, solutio Iodi spirituosa, solutio Lugoli, Kalii iodidum, Natrii iodidum, Calcii glycerophosphas, Phytinum, Cerebrolecithinum, tablettae "Lipocerebrinum" obductae, Vitaphthorum, Phtorlacum, Natrii arsenas, liquor Kalii arsenitis, Catalin, Methyluracilum, Pentoxylum, Leucogenum, Biosedum, Acidum adenosintriphosphoricum, Phosphadenum, Fosfocreatine, Riboxinum, Oxiamin, Dalarginum, Semax, Dipromonium, Carnitini chloridum, Mildronatum, Aceminum, solutio Polyathylenoxydi, Quinax, Filgrastim, Sargramostim, Molgramostim, extractum Aloës fluidum pro injectionibus, extractum Aloës fluidum, tablettae Aloës obductae, Fibs pro injectionibus, Peloidinum.

19-dars

59-§. Oksidlarning lotincha nomi

Hamma oksid, peroksid va gidroksidlar nomi ikkita otdan tashkil topib, birinchisi – element nomi qaratqich kelishikda, ikkinchisi – oksidlarning guruh nomi bosh kelishikda bo'ladi.

Masalan: Zinci oxydum – rux oksidi
Magnesii peroxydum – magniy peroksidi
Calcii hydroxydum – kalsiy gidroksidi.

Eslab qoling!

oksid – oxydum, i, n
peroksid – peroxydum, i, n
gidroksid – hydroxydum, i, n.

Chala oksidlar nomi **oxydulatus, a, um** sifatini element nomiga moslab hosil qilinadi.

Masalan: Nitrogenium oxydulatum – azotning chala oksidi.

60-§. Tuzlarning lotincha nomi

Kation birinchi o‘rinda keladi va qaratqich kelishik birlik sonidagi ot bilan ifodalanadi, anion kationdan keyin turadi va bosh kelishik birlik sonidagi ot bilan ifodalanadi. Anionlar quyidagi qo‘shimchalar yordamida hosil qilinadi:

idum, idi - id

is, itis - it

as, atis - at

Masalan: natriy sulfid – Nom. Natrii sulfidum

Gen. Natrii sulfidi

natriy sulfit – Nom. Natrii sulfis

Gen. Natrii sulfitis

natriy sulfat – Nom. Natrii sulfas

Gen. Natrii sulfatis

Eslab qoling: Lotincha ascorbning o‘zbekcha tarjimai askorbin bo‘ladi.

Masalan: Magnii ascorbas – Magniy ascorbinat

61-§. Asos tuzlarning nomi

Asos tuzlarning nomi sub- old qo‘shimchasi yordamida hosil qilinadi.

Masalan: Asosli vismut gallat -

Nom. Bismuthi subgallas

Gen. Bismuthi subgallatis.

**62-§. Kislordsiz kislotalarning organik asoslar bilan
hosil qilgan tuzlarining nomi**

Kislordsiz kislotalarning organik asoslar bilan hosil qilgan tuzlarining nomi **hydro-** old qo‘shimchasi va **-idum, i** suffiksi yordamida hosil qilinadi.

Masalan: Papaverin gidroksid-

Nom. Papaverini hydrochloridum

Gen. Papaverini hydrochloridi.

63-§. Natriy va kaliy tuzlarining nomi

Natriy va kaliy tuzlarining nomi moddalar nomlariga **natrium** yoki **kaliium** soʻzlarini chiziqcha yordamida qoʻshib hosil qilinadi.

Masalan: Sulfatsil - natriy – Sulfacylum - natrium.

Mashqlar

96-mashq. *Oʻzbek tiliga tarjima qiling.*

1. Magnii oxydum
2. Hydrargyri oxydum flavum
3. Zinci oxydum.
4. Unguentum Hydrargyri oxydi flavi
5. Magnii peroxydum
6. Alumini hydroxydum
7. Linimentum Zinci oxydi.

97-mashq. *Oksidlar nomini Nom. Sing. va Gen. Sing. da lotin tiliga tarjima qiling.*

- | | |
|-----------------------|----------------------|
| 1) rux oksidi | 4) vodorod peroksidi |
| 3) magniy oksidi | 5) simob oksidi |
| 2) qoʻrgʻoshin oksidi | |

98-mashq. *Quyidagi tuzlarni oʻzbek tiliga tarjima qiling.*

Kalii iodidum, Cupri sulfas, Natrii arsenas, Lithii carbonas, Kalii arsenis, Natrii nitras, Hydrargyri dichloridum, Ammonii chloridum, Argenti nitras, Calcii glutaminas, Kalii orotas, Calcii carbonas praecipitatus, Natrii fluoridum, Codeini phosphas, Magnii ascorbas.

99-mashq. *Quyidagi tuzlarni Nom. Sing. va Gen. Sing. da lotin tiliga tarjima qiling.*

- | | |
|------------------------|----------------------------|
| 1) natriy yodid | 8) natriy benzoat |
| 2) kaliy permanganat | 9) magniy sulfat |
| 3) natriy tetraborat | 10) mis sulfat |
| 4) rux sulfat | 11) asosli magniy karbonat |
| 5) natriy ftorid | 12) skopolamin gidrobromid |
| 6) qoʻrgʻoshin atsetat | 13) adrenalın gidroxlord |
| 7) kaliy bromid | 14) barbital – natriy. |

Retseptlarni tarjima qiling!

19/11/03

1. Recipe: Magnesii sulfatis 20,0
Da.
Signa: Yarim osh qoshiq suvda eritilsin va 1 stakan suv bilan ichilsin.
2. Recipe: Zinci sulfatis
Plumbi acetatis ana 0,3
Aqua destillatae 200 ml
Misce. Da.
Signa: Purkab yuvish uchun.
3. Recipe: Natrii iodidi
Aqua destillatae 180 ml
Misce. Da.
Signa: Kuniga 2-3 marta 1 osh qoshiqdan ichilsin.
4. Recipe: Homatropini hydrobromidi 0,4
Aqua destillatae 10 ml
Misce. Da.
Signa: Ko'z tomchisi.
5. Recipe: Natrii bromidi 4,0
Coffeini - natrii benzoatis 1,0
Extracti Crataegi fluidi 6 ml
Tincturae Valerianae 8 ml
Aqua destillatae 200 ml
Misce. Da.
Signa: Kuniga 4 marta 1 choy qoshiqdan ichilsin.
6. Oling: Kseroformdan 1,0
Rux oksididan 5,0
Lanolindan
Vazelindan teng miqdorda 10,0 dan
Surtma hosil bo'lguncha aralashtiring.
Bering.
Belgilang: Surtma
7. Oling: Magniy oksid tabletkalaridan 0,5 20 (son)ta
Bering.
Belgilang: Kuniga 3 marta 1 ta tabletkadan qabul qilinsin.
8. Oling: Qo'rg'oshin atsetatdan 10,0
Distillangan suvdan 100 ml

- Aralashtiring. Bering.
Belgilang: Purkab yuvish uchun.
9. Oling: Kaliy yodiddan 0,01
Distillangan suvdan 10 ml
Aralashtiring. Bering.
Belgilang: 1 kunda 2-5 tomchidan ichilsin.
10. Oling: Asosli vismut nitratdan 0,25
Belladonna ekstraktidan 0,015
Shunday dozalarda 10(son)ta tabletkalarda bering.
Belgilang: Kuniga 3 marta 1 ta tabletkadan qabul qilinsin.

Uyga vazifa

I. "Oksidlar va tuzlarning lotincha nomi" mavzularini o'zlashtirib oling. Quyidagi savollar yordamida bilimlaringizni tekshirib ko'ring.

1. Oksidlarning lotincha nomi qanday hosil qilinadi?
2. Chala oksidlarning lotincha nomi qanday yasaladi?
3. Kislotalarning lotincha nomi qanday hosil qilinadi?
4. Tuzlarning nomi qanday usulda hosil qilinadi?
5. Asos tuzlarining lotincha nomi qanday hosil qilinadi?
6. Kislorodsiz kislotalarning organik asoslar bilan hosil qilgan tuzlarining lotincha nomi qanday yasaladi?

II. Quyidagi tuzlarni Nom. Sing. va Gen. Sing. da lotin tiliga tarjima qiling.

- | | |
|-------------------------|-----------------------|
| 1. natriy nitrit | 3. kalsiy xlorid |
| 2. asosli vismut nitrat | 4. morfin gidroxlorid |

III. Retseptlarni tarjima qiling.

1. Recipe: Hydrargyri oxydi fluidi 0,6
Ichthyoli 0,8
Unguenti Zinci 20,0
Misce, fiat unguentum.
Da.
Signa: Surtma
2. Recipe: Tabulettas Oleandomycini phosphatis 0,125 obductas numero 25
Da.
Signa: Kuniga 4 marta 1 ta tabletkadan qabul qilinsin.

3. Recipe: Papaverini hydrochloridi 0,02
Phenobarbitali 0,05
Da tales doses numero 10 in tabulettis.
Signa: Kuniga 3 marta 1 ta tabletkadan qabul qilinsin.
4. Oling: Temir laktatdan 1,0
Shunday dozalarda 20 (son)ta jelatinli kapsulalarda bering.
Belgilang: Kuniga 3 marta ovqatdan keyin 1 ta kapsuladan qabul qilinsin.
5. Oling: Limonnik nastoykasidan 20,0
Valeriana nastoykasidan 10,0
Natriy bromiddan 3,0
Aralashtiring. Bering.
Belgilang: Kuniga 2-3 marta 30 tomchidan ichilsin.

IV. To'g'ri o'qishni o'rganing!

Torfotum, Polybiolinum, succus Kalancho, s, Vulnusan, Chonsuridum, Epytalinum, Encadum, Fogemum, suspensio Zymosani, Propermyl, Trianol, Befunginum, Propolis, unguentum "Propeceum", aërosolum "Proposolum", Apilacum, Oxygenium, Carbogenum, Dibunolum, Emoxipinum, Mexidolum, Ubinonum, Olyphenum, Acidum carbonicum anhydricum, Thymalinum, Tactivinum, Thymoptinum, Thymactidum, Vilosenum, Myelopidum, Thymogenum, Immunofan, Beroxanum, Natrii nucleinas, Ribomunyl, Levamisolum, Prodigiosanum, Pyrogenalum, Poludonum, Azathioprinum, Batridenum, Ciclosporinum, Antilimpholinum, Crysanolum, Auranofin, Batilolum, Glucosum, Lactulosum, Unithiolum, Natrii thiosulfas, tabulettae Carbonis activati, Carbolongum, Polyphepanum, Tetacinum - calcium, Natrii calcii edetas, Pentacinum, Ferrocinum, Dinatrii aethylendiamintetraacetat, Trimephacinum, Deferoxaminum, Dextrazoxan, Penicillaminum, Cystamini dihydrochloridum, Linimentum Thesani, unguentum Diaethoni, aërosolum "Lioxasolum", Ammifurinum, Psoraleinum, Psoberanum.

20 - dars

64-§. III turlanishdagi otlar

III turlanishdagi otlarga Genetivus Singularisda - is qo'shimchasiga ega bo'lgan mujskoy, jenskiy va sredniy roddagi otlar kiradi. Uchala roddagi otlarning Gen.Sing.da bir xil qo'shimchaga ega bo'lishi III turlanishdagi otlarning o'ziga xos xususiyatidir.

III turlanishdagi otlar teng murakkab va noteng murakkab otlarga

bo‘linadi. Teng murakkab otlarda **Gen. Sing.** dagi bo‘g‘inlar soni **Nom. Sing.** dagi bo‘g‘inlar soniga teng bo‘ladi.

Masalan: apis, apis

Noteng murakkab otlarda esa **Gen. Sing.** dagi bo‘g‘inlar soni **Nom. Sing.** dagi bo‘g‘inlar soniga nisbatan bitta ortiqcha bo‘ladi.

Masalan: corpus, corporis

III turlanishdagi otlarning negizi **Genetivus Singularis** shaklidan **-is** qo‘shimchasini olib tashlash bilan hosil qilinadi.

Nom. Sing.	Gen. Sing.	Negizi	So‘zning lug‘at shakli
liquor	liquoris	liquor	liquor, liquoris, m
solutio	solutionis	solution	solutio, solutionis, f
corpus	corporis	corpor	corpus, corporis, n

III turlanishdagi otlar uch tipga bo‘linadi:

1. Undosh tip (asosiy tip)
2. Aralash tip
3. Unli tip.

65-§ Undosh tip

Undosh tipga **Genetivus Singularis** da **-is** qo‘shimchasiga, **Nominativus Singularis** da esa har xil qo‘shimchalarga ega bo‘lgan mujskoy, jenskiy va sredniy roddagi otlar kiradi.

Masalan: liquor, liquoris, m;
solutio, solutionis, f;
corpus, corporis, n.

Undosh tipdagi otlarning kelishik qo‘shimchalari

Mujskoy va jenskiy roddagi otlar kelishiklar bo‘yicha turlanganda bir xil qo‘shimchalarga ega bo‘ladi.

Causus	Singularis			Pluralis		
	m	f	n	m	f	n
Nom.	har xil			es	es	a
Gen.	is	is	is	um	um	um
Dat.	i	i	i	ibus	ibus	ibus
Acc.	em	em	=Nom	es	es	a
Abl.	e	e	-e	ibus	ibus	ibus

Turlanish namunasi

Casus	Singularis		
	m	f	n
Nom.	cortex	solutio	semen
Gen.	corticis	solutionis	seminis
Dat.	cortici	solutioni	semini
Acc.	corticem	solutionem	semen
Abl.	cortice	solutione	semine

Casus	Pluraris		
	m	f	n
Nom.	cortices	solutiones	semina
Gen.	corticum	solutionum	seminum
Dat.	corticibus	solutionibus	seminibus
Acc.	cortices	solutiones	semina
Abl.	corticibus	solutionibus	seminibus

66-§. Undosh tipga kiradigan mujskoy roddagi otlar

Undosh tipga kiradigan mujskoy roddagi otlar **Nominativus Singularis** da **os, er, o, or, ex, es** qo‘shimchalariga ega bo‘ladi.

Nom. Sing.	Gen. Sing.	Misollar		Tarjimasi
		Nom. Sing.	Gen. Sing.	
- os	- oris	flos	floris	gul
- or	- oris	sapor	saporis	maza
- o	- onis - inis	carbo homo	carbonis hominis	ko‘mir odam
- er	- (e) ris	aether	aetheris	efir
- ex	- icis	cortex	corticis	po‘stloq
- es - dis	- itis, -etis - dis	stipes pes	stipitis pedis	poya, novda oyoq

67-§. Quyidagi otlarni yod oling!

flos, floris, m - gul
liquor, liquoris, m - suyuqlik, eritma
color, coloris, m - rang
sapor, saporis, m - maza
odor, odoris, m - hid
auctor, auctoris, m - muallif, retsept yozgan kishi
sapo, saponis, m - sovun
carbo, carbonis, m - ko'mir
pulmo, pulmonis, m - o'pka
homo, hominis, m - odam
aether, aetheris, m - efir
aer, aeris, m - havo
cortex, corticis, m - po'stloq
pulvis, pulveris, m - kukun
adeps, adipis, m - yog'
adeps suillus, adipis suilli - cho'chqa yog'i
Adonis, Adonidis, m - adonis
Adonis (idis) vernalis - bahorgi adonis
Adonis (idis) turkestanicus (i) - turkiston adonis
Bursa (ae) pastoris(is) - jag' - jag', ochambiti

Mashqlar

100-mashq. *Jadval yordamida quyidagi otlarning bosh va qaratqich kelishik, birlik va ko'plik son shakllarini hosil qiling.*

Gul, ko'mir, maza, o'pka, quticha, granula, kanakunjut.

Namuna:

Nom. Sing.	Turl.	Rod	Gen. Sing.	Nom. Plur.	Gen. Plur.
cortex - po'stloq	III	m	corticis - po'stloqning	cortices - po'stloqlar	corticum - po'stloqlarning

101-mashq. *Quyidagi otlarning lug'at shaklini yozing va negizini aniqlang.*

Pulmo, homo, pulvis, Adonis, sirupus, oleum, gemma.

102-mashq. *O'zbek tiliga tarjima qiling.*

Cortex Viburni, flores Arnicae, pulvis Glycyrrhizae, pulvis compositus,

flores Tiliae, decoctum florum Tiliae, flores Helichrysi arenarii, pulvis Glycyrrhizae compositus.

103-mashq. *Sifatlarni otlarga moslashtiring va soʻz iboralarini oʻzbek tiliga tarjima qiling.*

- | | |
|------------------------------|---|
| 1) sapo (medicatus, a, um) | 5) aether (purus, a, um) |
| 2) adeps (suillus, a, um) | 6) carbo (activatus, a, um) |
| 3) adeps (depuratus, a, um) | 7) pulvis (grossus, a, um) |
| 4) Adonis (sibiricus, a, um) | 8) Adonis (tianschanicus, a, um -tyanshan). |

104-mashq. *Atamalarining shartli tasvirini tuzib, Nom. va Gen.da lotin tiliga tarjima qiling.*

- | | |
|------------------------|-------------------------------------|
| 1) moychechak gullari | 5) faollashtirilgan koʻmir |
| 2) frangula poʻstlogʻi | 6) murakkab kukun |
| 3) toza efir | 7) moychechak gullarining damlamasi |
| 4) tibbiyot sovuni | 8) shirinmiyaning murakkab kukuni. |

Retseptlarni tarjima qiling!

- ✓ 1. Recipe: Magnesii oxydi 0,5
Bismuthi subnitratris 0,2
Extracti Belladonnae 0,01
Misce, fiat pulvis.
Signa: Kuniga 2-3 marta 1 ta kukundan qabul qilinsin.
2. Recipe: Liquoris Kalii arsenitis 5 ml
Aquae Menthae 15 ml
Misce. Da.
Signa: Kuniga 3 marta ovqatdan keyin 3 tomchidan ichishni boshlab, har kuni 1 tomchi qoʻshib borilsin va 10 tomchiga yetkazilsin.
3. Recipe: Infusi herbae Bursae pastoris ex 100-200 ml
Da.
Signa: Kuniga 3 marta 1 osh qoshiqdan ichilsin.
4. Recipe: Infusi florum Tiliae 500 ml
Da.
Signa: Chayqash uchun.
5. Recipe: Decocti corticis Viburni 10,0 - 200 ml
Da.
Signa: Kuniga 3 marta 1 osh qoshiqdan ichilsin.
6. Recipe: Calcii carbonatis praecipitati

Natrii hydrocarbonatis
Bismuthi subnitratris ana 0,5
Extracti Belladonnae 0,015
Misce, fiat pulvis.

Da tales doses numero 20.

Signa: Kuniga 3 marta 1 ta kukundan qabul qilinsin.

7. Recipe: Iodi 0,02

Kalii iodidi 0,2

Calcii glycerophosphatis

Phytini ana 4,0

Extracti et pulveris Liquiritiae quantum satis ut fiant
pilulae numero 60.

Da.

Signa: Kuniga 2 marta ovqatdan keyin 1 ta habdoridan
qabul qilinsin.

8. Oling: Rux oksiddan 10,0

Talkdan 40,0

Kukun hosil bo'lguncha aralashtiring.

Bering.

Belgilang: Sepki.

9. Oling: Qaytarilgan temirdan 1,0

Askorbinat kislotadan 0,1

Kukun hosil bo'lguncha aralashtiring.

Shunday dozalarda 20 (son) ta jelatinli kapsulalarda bering.

Belgilang: Kuniga 3 marta 4 ta kapsuladan qabul qilinsin.

10. Oling: Tozalangan oltin gurdan

Magniy oksiddan

Shakardan teng miqdorda 10,0 dan

Aralashtiring. Bering.

Belgilang: Kuniga 2 marta yarim choy qoshiqdan qabul
qilinsin.

11. Oling: Frangula po'stlog'ining qaynatmasidan 20,0 : 200 ml. dan

Natriy sulfatdan 20,0

Aralashtiring. Bering.

Belgilang: Kuniga 3 marta 1 ta kukundan qabul qilinsin.

12. Oling: Jag'-jag'ning suyuq ekstraktidan 20 ml

Bering.

Belgilang: Kuniga 3 marta 20 tomchidan ichilsin.

Uyga vazifa

I. "III turlanishdagi otlar va undosh tip" mavzularini o'zlashtirib oling. Quyidagi savollar yordamida bilimlaringizni tekshirib ko'ring.

1. Qaysi otlar III turlanishga kiradi?
2. Teng murakkab va noteng murakkab otlar deganda nimani tushunasiz?
3. III turlanishdagi otlarning o'ziga xos xususiyati nimadan iborat?
4. III turlanishdagi otlarning negizi qanday hosil qilinadi?
5. III turlanishdagi otlar nechta tipga bo'linadi?
6. Qaysi otlar undosh tipga kiradi?
7. Mujskoy va jenskiy roddagi otlarning kelishik qo'shimchalarini ayting.

II. 67-§ dagi so'zlarni yod oling.

III. Chap ustundagi lotincha so'zlarning o'ng ustundagi o'zbekcha ekvivalentlarini toping.

- | | |
|------------|---------------------|
| 1) liquor | a) gul |
| 2) odor | b) maza |
| 3) sapor | c) hid |
| 4) flos | d) suyuqlik, eritma |
| 5) pulvis | e) ko'mir |
| 6) cortex | f) efir |
| 7) carbo | g) havo |
| 8) aër | h) yog' |
| 9) adeps | i) kukun |
| 10) aether | j) po'stloq |

IV. Jadval yordamida quyidagi otlarning bosh va qaratqich kelishik, birlik va ko'plik son shakllarini hosil qiling: kukun, odam, ekstrakt, bodom.

V. Retseptlarni tarjima qiling.

1. Oling: Moychechak gullaridan 30,0
Bering.
Belgilang: Choyga o'xshatib damlansin.
2. Oling: Evmommiya po'stlog'ining qaynatmasidan 10,0 - 200 ml. dan
Bering.
Belgilang: Kuniga 3 marta 1 osh qoshiqdan ichilsin.
3. Oling: Adoniziddan
Natriy bromiddan teng miqdorda 6,0 dan
Kodein fosfatdan 0,2

Distillangan suvdan 200 ml

Aralashtiring. Bering.

Belgilang: Kuniga 3 marta 1 osh qoshiqdan ichilsin.

VI. To'g'ri o'qishni o'rganing!

Teturamum, tabulettae Radoteri, Cyamidum, decoctum Lycopodii selaginosi, Litonitum, Phepranonum, Dexfenfluramine, Benzylpenicillinum-natrium, Benzylpenicillinum - kalium, Benzylpenicillinum - novocainum, Bicillinum, Phenoxymethylpenicillin, Phenoxymethylpenicillin Benzatine, Oxacillinum - natrium, Ampicillinum - natrium, Unasyn, Carbenicillinum - dinatricum, Carfecillin, Azlocillin, Amoxicillin, Amoxyclav, Piperacillin, Tazocin, Cephazolin, Cephalotin Sodium, Cefalexinum, Cefaclor, Cefuroxim, Cefotaxim, Ceftriaxon, Sulperazonum, Cefpirom, Imipenem, Tienam, Aztreonam, Penamecillin, Neomycin Sulfate, Monomycinum, Kanamycinum, Canoxicelum, Gentamycini sulfas, Tobramycinum, Sisomycin Sulfate, Amicin Sulfate, Tetracyclinum, unguentum Tetracyclini ophthalmicum, tabulettae Tetracyclini et Nystatini obductae, Tetracyclini hydrochloridum, Oxytetracyclini dihydras, Oxytetracyclini hydrochloridum, unguentum "Hyoxysonum", aerosolum "Oxycyclosolum", aerosolum "Oxycortum", Metacyclini hydrochloridum.

21-dars

68 - §. Undosh tipga kiradigan jenskiy roddagi otlar

Undosh tipga kiradigan jenskiy roddagi otlar Nominativus Singularisda **io, do, go, ix, ax, ux, s, is, as** qo'shimchalariga ega.

Nom. Sing.	Gen. Sing.	Misollar		
		Nom. Sing.	Gen. Sing.	Tarjimasi
-io	-onis	solutio	solutionis	eritma
-do	-inis	hirudo	hirudinis	zuluk
-go	-inis	mucilago	muculaginis	shilliq
-ix	-icis	radix	radicis	ildiz
-ax	-acis	borax	boracis	bura
-ux	-ucis	Nux	Nucis	yong'oq
-s	-dis	Berberis	Berberidis	zirk
-is	-idis	Arachis	Arachidis	yeryong'oq
-as	-atis	sanitas	sanitatis	sog'liq

69-§. Quyidagi otlarni yod oling!

solutio, solutionis, f - eritma
mixtio, mixtionis, f - aralashma
aspersio, aspersionis, f - sepma dori
suspensio, suspensionis, f - suspenziya, shilliq
injectio, injectionis, f - in'yeksiya
pro injectionibus - in'yeksiyalar uchun
inhalatio, inhalationis - ingalatsiya
pro inhalationibus - ingalatsiyalar uchun
mucilago, mucilaginis, f - shilliq eritma
radix, radicis, f - ildiz, tomir
borax, boracis, f - bura
faex, faecis, f - achitqi
pix, picis, f - smola, qatron
Pix liquida, Picis liquidae - qoramoy, qatron
hirudo, hirudinis, f - zuluk
Plantago, Plantaginis, f - zubtutum
Plantago (inis) major (oris) - katta zubtutum
Plantago (inis) psyllium (i) - burga zubtutum
Thermopsis, Thermopsidis, f - termopsis (afsonak)
Thermopsis (idis) lanceolata (ae) - nishtarsimon termopsis
Thermopsis (idis) alterniflora (ae) - ketma-ket gulli termopsis
Berberis, Berberidis, f - zirk
Berberis (idis) vulgaris - oddiy zirk
Zea mays, Zeae maydis - makkajo'xori
Nux, Nucis, f - yong'oq
Nux vomica, Nucis vomicae - kuchala
Filix, Filicis, f - qirqquloq, paporotnik
Filix mas, Filicis maris - erkak paporotnik
Menyanthes, Menyanthidis, f - meniantes
Menyanthes (idis) trifoliata (ae) - uchbargli meniantes (uchbarg)

Mashqlar

105-mashq. *Jadval yordamida quyidagi otlarning bosh va qaratqich kelishik, birlik va ko'plik son shakllarini hosil qiling.*

Ildiz, inyeksiya, achitqi, tabletka, sharbat, shamcha, gul.

Namuna:

Nom. Sing.	Turl.	Rod	Gen. Sing.	Nom. Plur.	Gen. Plur.
solutio - eritma	III	f	solutionis - eritmaning	solutiones - eritmalar	solutionum - eritmalarning

106-mashq. *Sifatlarini otlarga moslashtiring va so'z iboralarini o'zbek tiliga tarjima qiling.*

- 1) solutio (oleosus, a, um)
- 2) solutio (isotonicus, a, um)
- 3) Thermopsis (lanceolatus, a, um)
- 4) pix (liquidus, a, um)
- 5) solutio (spirituosus, a, um)
- 6) Thermopsis (turkestanicus, a, um)

107-mashq. *O'zbek tiliga tarjima qiling.*

1. Solutio Iodi spirituosa. 2. Solutio Natrii chloridi isotonica pro injectionibus. 3. Solutio Hydrogenii peroxydi diluta. 4. Solutio Hydrogenii peroxydi concentrata. 5. Solutio Acidi borici spirituosa. 6. Solutio Acidi borici in Glycerino. 7. Solutio Natrii adenosintri phosphatis pro injectionibus. 8. Solutio Camphorae et Acidi salicylici spirituosa. 9. Suspensio Hydrocortisoni. 10. Extractum Nucis vomicae siccum.

108-mashq. *Atamalarining shartli tasvirini tuzib, Nom. va Gen. da lotin tiliga tarjima qiling.*

- 1) zubtutum barglari
- 2) qoqi ildizi
- 3) amikazol sepkisi
- 4) meniantes bargi
- 5) zirk ildizining po'stlog'i
- 6) gulxayri ildizining qaynatmasi
- 7) nishtarsimon termopsisning yer ustki qismi
- 8) ravoch ildizining tabletkalari
- 9) kraxmal shillig'i eritmasi
- 10) termopsisning quruq ekstrakti

109-mashq. *O'zbek tiliga tarjima qiling.*

1. Amidopyrinum purum est pulvis albus crystallisatus. 2. Kalii permanganas ut remedium externum antisepticum adhibetur. 3. Carbo activatus in pulveribus et in tabulettis fabricatur. 4. Mentholum in oleo Menthae piperitae aethereo continetur. 5. Amylum est pulvis sine odore et sapore. 6. Nux vomica planta venenata est. 7. Infusum radices Taraxaci ut amarum et cholagogum praescribitur. 8. Extractum Filicis maris spissum in capsulis gelatinosis sumitur.

Retseptlarni tarjima qiling!

1. Recipe: Solutionis Glucosi 5 % 50 ml

Da tales doses numero 6 in ampullis.

Signa: Ko'k tomirga quyish uchun.

2. Recipe: Suspensionis Hydrocortisoni acetatis 0,5% 10 ml
Da.
Signa: Kuniga 4 marta 2 tomchidan ko'zga tomizilsin.
3. Recipe: Solutionis Calcii gluconatis 10% 10 ml
Da tales doses numero 10 in ampullis.
Signa: Mushaklar orasiga 5 ml. dan yuborilsin.
4. Recipe: Infusi radices Althaeae 3,0 : 100 ml
Sirupi Althaeae 20 ml
Misce. Da.
Signa: Kuniga 4 marta 1 choy qoshiqdan ichilsin.
5. Recipe: Pulveris radices Rhei
Magnesii oxydi ana 0,3
Extracti Belladonnae 0,015
Misce, fiat pulvis.
Da tales doses numero 10.
Signa: Kuniga 2 marta 1 ta kukundan qabul qilinsin.
6. Oling: Xloralgidratdan 1,0
Kraxmal shillig'i eritmasidan
Distillangan suvdan teng miqdorda 25 ml. dan
Aralashtiring. Bering.
Belgilang: 1 ta klizma qilish uchun.
7. Oling: Qatrandan
Kseroformdan teng miqdorda 3,0 dan
Kanakunjut moyidan 100,0 gacha
Aralashtiring. Bering.
Belgilang: Suyuq surtma.
8. Oling: Valeriana ildizining damlamasidan 20,0: 200 ml. dan
Arslonquyruq nastoykasidan 20 ml
Aralashtiring. Bering.
Belgilang: Kuniga 3 marta 1 osh qoshiqdan ichilsin.
9. Oling: Zubtutum barglarining damlamasidan 20,0: 200 ml. dan
Bering.
Belgilang: Kuniga 3-4 marta 1 osh qoshiqdan ichilsin.
10. Oling: Skopolamin gidrobromiddan 0,0025
Promedoldan 0,1
Efedrin gidroxloriddan 0,25
In'yeksiya uchun suvdan 5 ml

Aralashtiring. Sterilizatsiya qiling.

Bering.

Belgilang: 1 ml.dan teri ostiga yuborilsin.

Uyga vazifa

I. *“Undosh tipga kiradigan jenskiy roddagi otlar” mavzusini o‘zlashtirib oling. Quyidagi savollar yordamida bilimlaringizni tekshirib ko‘ring.*

1. Undosh tipga kiradigan jenskiy roddagi otlar **Nom. Sing.** da qanday qo‘shimchalarga ega?

2. Undosh tipga kiradigan jenskiy roddagi otlarning kelishiklar bo‘yicha qo‘shimchalarini ayting.

II. *69-§ dagi so‘zlarni yod oling.*

III. *Chap ustundagi lotincha so‘zlarning o‘ng ustundagi o‘zbekcha ekvivalentlarini toping.*

1) solutio

a) ildiz

2) radix

b) makkajo‘xori

3) mucilago

c) meniantes

4) mixtio

d) eritma

5) pix

e) zubtutum

6) Berberis

f) smola, qatron

7) Nux

g) aralashma

8) Plantago

h) yong‘oq

9) Menyanthes

i) zirk

10) Zea mays

j) shilliq eritma.

IV. *Jadval yordamida quyidagi otlarning bosh va qaratqich kelishik, birlik va ko‘plik son shakllarini hosil qiling: zuluk, shilliq eritma, ko‘mir, suv, suyuq surtma.*

V. *Atamalarning shartli tasvirini tuzib, Nom. va Gen. da lotin tiliga tarjima qiling.*

1) zubtutum shirasi

3) kamforaning moyli eritmasi

2) gulxayri ildizining damlamasi

4) yodning spirtli eritmasi.

VI. *Quyidagi hikmatlarni yod oling!*

1. Carpe diem. – Bugungi ishni ertaga qo‘yma.

2. Plato amicus, sed magis amica veritas. – Menga Aflotun – do‘st, ammo haqiqat undan ham qimmatlidir.



22-dars

70-§. Undosh tipga kiradigan sredniy roddagi otlar

Undosh tipga kiradigan sredniy roddagi otlar **Nominativus Singularis** da **-en, -ma, -l, -us, -nr** qo‘shimchalariga ega.

Nom. Sing.	Gen. Sing.	Misollar		
		Nom. Sing.	Gen. Sing.	Tarjimasi
-en	-inis	semen	seminis	urug‘
-ma	-atis	rhizoma	rhizomatis	ildizpoya
-l	-lis	mel	mellis	asal
-us	-oris -eris	corpus genus	corporis generis	tana, gavda avlod
-ur	-uris -oris	sulfur jecur	sulfuris jecoris	o‘tingugurt jigar

71-§. Quyidagi otlarni yod oling!

nomen, nominis, n – ism, nom, nomlanish
 semen, seminis, n – urug‘
 alumen, aluminis, n, – achchiqtosh (faqat birlikda ishlatiladi)
 stigma, stigmatis, n, – og‘izcha
 gargarisma, gargarismatis, n - chayish, chayqash
 rhizoma, rhizomatis, n – ildizpoya
 rhizoma(at)is cum radicibus – ildizpoya ildizlari bilan
 sulfur, sulfuris, n – o‘tingugurt
 corpus, corporis, n – tana, gavda
 lac, lactis, n – sut
 elixir, elixiris, n – eliksir
 os, oris, n – og‘iz
 piper, piperis, n – murch
 Polygonum(i) hydropiper(eris) – achchiq toron, suvqalampir
 Echinopanax, Echinopanaxis, n – exinopanaks
 Echinopanax(acis) elatum (i) – baland exinopanaks

Quyidagi so‘z iboralarini eslab qoling!

per os – og‘iz orqali
 per rectum – to‘g‘ri ichak orqali

Mashqlar

110-mashq. *Jadval yordamida quyidagi otlarning bosh va qaratqich kelishik, birlik va ko'plik son shakllarini hosil qiling.*

Sut, urug', og'izcha, gul, sharcha, moy.

Namuna:

Nom. Sing.	Turl.	Rod	Gen. Sing.	Nom. Plur.	Gen. Plur.
rhizoma-ildizpoya	III	n	rhizomatis-ildizpoyaning	rhizomata-ildizpoyalar	rhizomatum-ildizpoyalarning

111-mashq. *Sifatlarni otlarga moslashtiring va so'z iboralarini o'zbek tiliga tarjima qiling.*

- | | |
|---------------------------------|---------------------------------|
| 1) Echinopanax (elatus, a,um) | 4) corpus (luteus, a,um) |
| 2) sulfur (praecipitatus, a,um) | 5) plasma (siccus, a,um) |
| 3) alumen (ustus, a,um) | 6) gargarisma (frigidus, a,um). |

112-mashq. *O'zbek tiliga tarjima qiling.*

- | | |
|---------------------------------------|---|
| 1) <u>stigmata</u> Maydis | 5) <u>rhizoma cum radicibus</u> Valerianae |
| 2) <u>radix</u> Glycyrrhizae | 6) <u>rhizoma cum radicibus</u> Echinopanax |
| 3) <u>rhizoma</u> Bistortae | 7) <u>rhizomata et radices</u> Rubiae |
| 4) <u>herba</u> Polygoni hydropiperis | 8) <u>rhizomata</u> Filicis maris. |

113-mashq. *Atamalarning shartli tasvirini tuzib, Nom. va Gen. da lotin tiliga tarjima qiling.*

- | | |
|--------------------------------|--|
| 1) qovoq urug'lari | 6) tozalangan oltingugurt |
| 2) zig'ir urug'lari | 7) sangvizorba ildizpoyasi bilan ildizlari |
| 3) strofant urug'lari | 8) achchiq bodom urug'lari |
| 4) ilonsimon toron ildizpoyasi | 9) maralquloq ildizpoyasi bilan ildizlari |
| 5) g'ozpanja ildizpoyasi | 10) achchiq toronning suyuq ekstrakti. |

114-mashq. *O'zbek tiliga tarjima qiling. III turlanishidagi otlarning lug'at shaklini yozing.*

1. Aluminium sulfuricum cum Kalio sulfurico Alumen nominatur. 2. Pix liquida est liquor spissus. 3. Praeparate solutionem Aluminis usti. 4. Stigmata Maydis ut remedium diureticum et cholagogum adhibentur. 5. Serva elixir compositum cum extracto Glycyrrhizae in ollis bene obturatis.

Retseptlarni tarjima qiling!

1. Recipe: Aluminis 3,0

Decocti foliorum Salviae 300 ml

- Misce. Da.
 Signa: Tomoqni chayish uchun.
2. Recipe: Aluminis 4,0
 Acidi borici 6,0
 Aquae destillatae 200 ml
 Misce. Da.
 Signa: Malham
3. Recipe: Stigmatum Maydis 10,0
 Da.
 Signa: 1 stakan qaynagan suvda yarim soat damlansin va har 3 soatda 1-2 osh qoshiqdan ichilsin.
4. Recipe: Extracti Polygoni hydropiperis fluidi
 Extracti Viburni fluidi ana 20 ml
 Misce. Da.
 Signa: Kuniga 3 marta 25 tomchidan ichilsin.
5. Recipe: Tincturae Echinopanacis 50 ml
 Da.
 Signa: Kuniga 3 marta ovqatdan oldin 30-40 tomchidan ichilsin.
6. Recipe: Solutionis Collargoli 3 % 10 ml
 Da in vitro nigro.
 Signa: Ko'z tomchisi
7. Recipe: Solutionis Oxyidini 2% 1 ml
 Da tales doses numero 10 in ampullis.
 Signa: Kuniga 2 marta 1 ml.dan mushaklar orasiga yuborilsin.
8. Recipe: Picis liquidae
 Sulfuris praecipitati ana 5,0
 Vaselini 50,0
 Misce, fiat unguentum.
 Da.
 Signa: Sirtidan qo'llash uchun.
9. Oling: Achchiq toron yer ustki qismi damlamasidan 20,0: 200 ml. dan
 Bering.
 Berlgilang: Kuniga 3 marta 1 osh qoshiqdan ichilsin.
10. Oling: Makkajo'xori og'izchasining suyuq ekstraktidan 20 ml
 Bering.
 Belgilang: Kuniga 3 marta ovqatdan oldin 30-40 tomchidan ichilsin.

11. Oling: Skipidardan
Xloroformdan teng miqdorda 15 ml. dan
Metilsalitsilatdan 10 ml
Suyuq surtma hosil bo'lguncha aralashtiring.
Belgilang: Bo'g'imlarga surtisin.
12. Oling: Belladonna ekstraktidan 0,015
Natriy gidrokarbonatdan 0,25
Shunday dozalarda 6 (son) ta tabletkalarda bering.
Belgilang: Kuniga 3 marta 1 ta tabletkadan qabul qilinsin.
13. Oling: Etilmorfin gidroklorid eritmasidan 2% 10 ml
Bering.
Belgilang: Kuniga 2 marta 1 tomchidan ko'zga tomizilsin.
14. Oling: Protargol eritmasidan 1% 10 ml
Qoramtir shisha idishda bering.
Belgilang: Ko'z tomchisi.
15. Oling: Gulxayri ildizining damlamasidan 6,0 : 180 ml
Shirinmiya sharbatidan 200 ml gacha
Aralashtiring.
Bering.
Belgilang: Har 2 soatda 1 osh qoshiqdan ichilsin.

Uyga vazifa

I. "Undosh tipga kiradigan sredniy roddagi otlar" mavzusini o'zlashtirib oling va quyidagi savollar yordamida bilimlaringizni tekshirib ko'ring.

1. Undosh tipga kiradigan sredniy roddagi otlar Nom. Sing. va Gen. Sing. da qanday qo'shimchalarga ega?

2. Undosh tipga kiradigan sredniy roddagi otlarning Nom. Plur. va Gen. Plur. qo'shimchalarini ayting.

II. 71-§ dagi so'zlarni yod oling.

III. Chap ustundagi lotincha so'zlarning o'ng ustundagi o'zbekcha ekvivalentlarini toping.

- | | |
|---------------|----------------------|
| 1) semen | 1) chayish, chayqash |
| 2) nomen | 2) og'izcha |
| 3) gargarisma | 3) tana, gavda |
| 4) rhizoma | 4) urug' |
| 5) stigma | 5) eliksir |

- | | |
|-----------|------------------------|
| 6) lac | 6) ism, nom, nomlanish |
| 7) piper | 7) og'iz |
| 8) corpus | 8) murch |
| 9) elixir | 9) sut |
| 10) os | 10) ildizpoya |

IV. Jadval yordamida quyidagi otlarning bosh va qaratqich kelishik, birlik va ko'plik son shakllarini hosil qiling: nom, chayish, murch, ildiz.

V. Atamalarning shartli itasvirini tuzib, Nom. va Gen. da lotin tiliga tarjima qiling.

- | | |
|--------------------|---|
| 1) bodom urug'lari | 3) eleuterokok ildizpoyasi bilan ildizi |
| 2) jenshen ildizi | 4) qayin qatroni |

VI. To'g'ri o'qishni o'rganing!

Doxycyclini hydrochloridum, Erythromycinum, Erythromycini phosphas, Eriyclinum, Spiramycin, Oleandomycini phosphas, Oletetrium, Irujol, Roxithromycin, Azithromycin, Lincomycini hydrochloridum, Clindamycin, Laevomyeetinum, Laevomyetini stearas, Laevomyetini succinas solubile, Laevovinisolum, Synthomycinum, Fugantin, Linimentum Synthomycini cum Novocaino, Polymyxini sulfas, Ristomycini sulfas, Fusidinum - natrium, Acidum fusidicum, Diaethanolamini fusidas, gelium "Fusidinum", Intetrix, gelium "Prefuzintum", Streptocidum, unguentum Streptocidi, Streptocidum solubile, Norsulfazolom, Sulfazinum, Sulfarginum, Sulfadimezinum, Aethazolum, Aethazolum - natrium, Sulfacylum - natrium, Urosulfanum, Sulfapyridazinum, Sulfamonomethoxinum, Sulfadimethoxinum, Sulfalenum, Sulfalenum - megluminum, Co - Trimoxazole, Sulfamethoxazolum, Sulfatonum, Algimafum, Sulfasalazine, Salazopyridazinum, Salazodimethoxinum, Mesalazine, Chlorchinaldolum, Nitroxolinum, Chiniofonum, Dermosolon, Acidum nalidixicum, Acidum oxolinicum, Acidum pipemidiecum, Pefloxacinum.

23-dars

72 -§. Aralash tipdagi otlar

Aralash tipga uchala roddagi, lekin asosan, jenskiy roddagi otlar kiradi. Ularni ikkita guruhga bo'lish mumkin:

1. Negizi ikkita unsiz tovush bilan tamomlanadigan otlar.

Masalan: - pars, partis, f - qism, bo'lak

2. -es va - is bilan tamomlanadigan teng murakkab otlar.

Masalan: apis, apis, f - asalari

**Aralash tipdagi otlarning
kelishiklar bo'yicha
turlanishi**

Casus	Sing.	Plur.
Nom.	har xil	es
Gen.	is	ium
Dat.	i	ibus
Acc.	em	es
Abl.	e	ibus

Turlanish namunasi

Casus	Sing.	Plur.
Nom.	pars	partes
Gen.	partis	partium
Dat.	parti	partibus
Acc.	partem	partes
Abl.	parte	partibus

73-§. Quyidagi otlarni yod oling!

pars, partis, f - qism, bo'lak

dens, dentis, f - tish

infans, infantis, m, f - bola

pro infantibus - bolalar uchun

Vitis(is) idaea(ae) - brusnika

Bidens, Bidentis, f - qoraqiz (ittikanak)

Bidens(antis) tripartita(ae) - uch bo'lakli qoraqiz (ittikanak)

Digitalis, Digitalis, f - angishvonagul

Digitalis(is) purpurea(ae) - qizil angishvonagul

Digitalis(is) grandiflora(ae) - yirik gulli angishvonagul

**Quyidagi yunonchadan kirib kelgan teng murakkab
otlarni yod oling!**

narcosis, narcosis, f - narkoz

pro narcosi - narkoz uchun

basis basis, f - asos, negiz

tussis, tussis, f - yo'tal, yo'talish

contra tussim - yo'talga qarshi

dosis, dosis, f - doza

Sinapis, Sinapis, f - xantal, gorchitsa

charta (ae) Sinapis(is) - xantal qog'ozi, gorchichnik

Quyidagi soʻz iboralarini eslab qoling!

Ex tempore – keragida, kerak paytida

Oleum(i) jecoris Aselli – baliq yogʻi (treska baliqʻi jigaring moyi).

Mashqlar

115-mashq. *Jadval yordamida quyidagi otlarning bosh va qaratqich kelishik, birlik va koʻplik son shakllarini hosil qiling.*

Bola, tish, moy, shira, achitqi, ogʻiz, oʻsimlik.

Namuna:

Nom. Sing.	Turl.	Rod	Gen. Sing.	Nom. Plur.	Gen. Plur.
pars-qism	III	f	partis-qismning	partes-qismlar	partium-qismlarning

116-mashq. *Sifatlarni otlarga moslashtiring. Soʻz iboralarini oʻzbek tiliga tarjima qiling.*

- | | |
|--------------------------------|---------------------------------|
| 1) rhizoma (albus, a, um) | 4) Digitalis (purpureus, a, um) |
| 2) Capsicum (niger, gra, grum) | 5) cortex (concisus, a, um) |
| 3) radix (concisus, a, um) | 6) sapo (medicatus, a, um). |

117-mashq. *Oʻzbek tiliga tarjima qiling.*

- | | |
|---------------------------------------|---|
| 1) pulvis antisepticus | 5) Magnesii subcarbonas |
| 2) infusum foliorum Digitalis | 6) Radix Taraxaci cum herba |
| 3) adeps suillus depuratus | 7) cortex radice Gossypii |
| 4) solutio Hydrogenii peroxydi diluta | 8) solutio Natrii phosphatis pro injectionibus. |

118-mashq. *Atamalarning shartli tasvirini tuzib, Nom. va Gen. da lotin tiliga tarjima qiling.*

- | | |
|------------------------------------|--|
| 1) makkajoʻxori kraxmali | 6) qoraqiz yer ustki qismining briketi |
| 2) angishvonagul bargi | 7) angishvonagul barglarining kukuni |
| 3) gulxayri ildizining qaynatmasi | 8) jagʻ-jagʻning suyuq ekstrakti |
| 4) vitaminlashtirilgan baliq yogʻi | 9) metilen koʻking spirtli eritmasi |
| 5) zirk ildizining poʻstlogʻi | 10) erkak paporotnikning quyruq ekstrakti. |

119-mashq. *Oʻzbek tiliga tarjima qiling. III turlanishidagi otlarning tipini va rodini aniqlang.*

1. Amylum Maydis et granis Zeae maydis conficitur. 2. Infusum radice Taraxaci ut amarum et cholagogum praescribitur. 3. Extractum Filicis maris

spissum in capsulis gelatinosis sumitur. 4. Solutio Corticotropini ex tempore paratur. 5. Praeparate decoctum ex herba Bidentis. 6. "Corglyconum" ad morbos cardiacos praescribitur. 7. Emulsa et decocta ex tempore praeparantur. 8. Pix liquida in compositionem unguenti Wilkinsoni et Vischnevsky includitur.

Uyga

Retseptlarni tarjima qiling!

1. Recipe: **Aspersionis Amycazoli 2 % 100**
Da.
Signa: Sepma dori.
2. Recipe: **Acidi salicylici 2,0**
Aluminis usti
Talci ana 50,0
Misce. Da.
Signa: Sepma dori.
3. Recipe: **Pulveris Liquiritiae compositi 20,0**
Da.
~~Signa: Kuniga 2 marta 1 choy qoshiqdan qabul qilinsin.~~
4. Recipe: **Infusi herbae Bursae pastoris 10,0 : 200 ml**
Da.
Signa: Kuniga 3 marta 1 osh qoshiqdan ichilsin.
5. Recipe: **Infusi radices Valerianae ex 12,0: 100 ml**
Infusi foliorum Menthae ex 4,0: 100 ml
Natrii bromidi 5,0
Codeini phosphatis 0,2
Barbitali - natrii 2,0
Extracti Crataegi fluidi 10 ml
Misce. Da.
Signa: Kuniga 3 marta 1 osh qoshiqdan ichilsin.
6. Recipe: **Solutionis Natrii salicylatis 10 % 5 ml**
Da tales doses numero 6 in ampullis.
Signa: Kuniga 2 marta 5 ml. dan ko'k tomirga yuborilsin.
7. Oling: **Achchiqtoshdan**
Rux sulfatdan teng miqdorda 5,0 dan
Qo'rg'oshin atsetatdan 2,0
Tanindan 0,6
Aralashtiring. Bering.

- Belgilang: 1 litr suvga 0,5 choy qoshiq solinsin. Purkab yuvish uchun.
8. Oling: G‘ozpanja ildizpoyasining qaynatmasidan 6,0: 150 ml.dan Qand sharbatidan 10,0 Aralashtiring. Bering.
Belgilang: Kuniga 3 marta 1 desert qoshiqdan ichilsin.
9. Oling: Shirinmiya ildizining qaynatmasidan 5,0: 100 ml. dan Magniy sulfatdan 3,0 Aralashtiring. Bering.
Belgilang: Kuniga 2 marta 1 osh qoshiqdan ichilsin.
10. Oling: Angishvonagul barglarining kukunidan 0,05 Qanddan 0,3 Kukun hosil bo‘lguncha aralashtiring. Shunday dozalarda 12(son)ta bering.
Belgilang: Kuniga 3 marta 1ta poroshokdan qabul qilinsin.
11. Oling: Metilen ko‘kining suvli eritmasidan 1% 20 ml Bering.
Belgilang: Og‘izga surtish uchun.
12. Oling: Moychechak gullaridan 30,0 Bering.
Belgilang: Choyga o‘xshab damlansin.

Uygʻa Uyga vazifa

I. “Aralash tipdagi otlar” mavzusini o‘zlashtirib oling va quyidagi savollar yordamida bilimlaringizni tekshirib ko‘ring.

1. Aralash tipga qaysi otlar kiradi?
2. Aralash tipga kiradigan otlar **Nom. Sing.** va **Gen. Sing.** da qanday qo‘shimchalarga ega?
3. Aralash tipga kiradigan otlarning **Nom. Plur.** va **Gen. Plur.** qo‘shimchalarini ayting.

II. 73-§ dagi so‘zlarni yod oling.

III. Chap ustundagi lotincha so‘zlarning o‘ng ustundagi o‘zbekcha ekvivalentlarini toping.

- | | |
|---------------|-----------------|
| 1) dens | 1) qism, bo‘lak |
| 2) infans | 2) brusnika |
| 3) pars | 3) keragida |
| 4) Bidens | 4) tish |
| 5) ex tempore | 5) qoraqiz |

6) Digitalis

7) Vitis idaea

8) Digitalis purpurea

9) Bidens tripartita

10) Digitalis grandiflora

6) uch bo'lakli qoraqiz

7) yirik gulli angishvonagul

8) angishvonagul

9) qizil angishvonagul

10) bola

IV. Jadval yordamida quyidagi otlarning bosh va qaratqich kelishik, birlik va ko'plik son shakllarini hosil qiling: angishvonagul, ko'mir, ildizpoya, mikstura, ekstrakt.

V. Atamalarining shartli tasvirini tuzib, Nom. va Gen. da lotin tiliga tarjima qiling.

1) baliq moyi emulsiyasi

2) amikazol sepma dorisi

3) kortizon atsetat suspenziyasi

4) valeriananing quruq ekstrakti

VI. Retseptlarni tarjima qiling.

1. Recipe: Infusi foliorum Bidentis tripartitae ex 10,0:200 ml

Da.

Signa: Kuniga 2-3 marta ovqatdan oldin 1 osh qoshiqdan ichilsin.

2. Recipe: Carbonis activati 100,0

Da in scatula.

Signa: 2 stakan suvga 2-3 osh qoshiq solinsin.

3. Recipe: Cotarnini chloridi 0,2

Aquae pro injectionibus 10 ml

Misce. Sterilisa. Da.

Signa: Teri ostiga 1 ml.dan yuborilsin.

VII. To'g'ri o'qishni o'rganing!

Norflaxacin, Ofloxacin, Ciprofloxacin, Lomefloxacin, Oxolinum, Chinoxidinum, Dioxydinum, aerosolum "Dioxyplast", Furacilinum, Betaferon, Furaplastum cum Perchlorvinylo, unguentum "Fastinum", unguentum "Fulevil", Lifusolum, Clefurinum, Algiporum, Lamivudin, Furazolidonum, Furazolinum, Furadoninum, Furaginum, unguentum Chinifurili, Isoniazidum, solutio "Isonides", Phthivazidum, Saluzidum solubile, Methazidum, Protionamide, Ethambutol, Thioacetazonum, Solutizonum, Natrii paraaminosalicylas, solutio Natrii paraaminosalicylatis pro injectionibus, Intron, Bepascum, Calcium para-benzamidosalicylicum, Streptomycini sulfas, Streptosoluzidum, Streptomycini et Calcii chloridum, Pasomicinum, Rifampicinum, Cycloserinum, Florimycini sulfas, Rifabutin, Florenalum, Diaphenylsulfonum, Solusulfonum, Reaferonum, Interferonum leucocyticum humanum siccum, Poludonum, Remantadinum, Adaprominum, Deitiforminum, Arbidolum, Bonaphtonum, Tebrophenum, Riodoxolum, Methisazonum, Idoxuridine, Amphoglucaminum.

24-dars

74-§. Unli tipdagi otlar

Unli tipdagi otlarga **Nominativus Singularis** da **ar, al, e** qo‘shimchalari-ga bo‘lgan **sredniy roddagi** otlar kiradi.

Nom.Sing.	Gen. Sing.	Misollar		
		Nom.Sing.	Gen.Sing.	Tarjimasi
-ar	-aris	exemplar	exemplaris	nusxa
-al	-alis	animal	animalis	hayvon
-e	-is	Secale	Secalis	shoxkuya

**Unli tipdagi otlarning
kelishiklar bo‘yicha
turlanishi**

Casus	Sing.	Plur.
Nom.	har xil	ia
Gen.	is	ium
Dat	i	ibus
Acc	=Nom	ia
Abl	i	ibus

Turlanish namunasi

Casus	Sing.	Plur.
Nom.	animal	animalia
Gen.	animalis	animalium
Dat.	animali	animalibus
Acc.	animal	animalia
Abl.	animali	animalibus

75-§. Quyidagi otlarni yod oling!

animal, animalis, n - hayvon
sal, salis, n - tuz
Nuphar, Nupharis, n - nufar
Nuphar(is) luteum(i) - sariq nufar
Secale(is) cornutum(i) - shoxkuya

Quyidagi iboralarni eslab qoling!

Solutio(onis) Ammonii caustici - novshadil spirti
Liquor(oris) Ammonii anisatus(i) - novshadil - arpabodiyon tomchilari
Liquor(oris) Burovi - Burov suyuqligi

Mashqlar

120-mashq. *Jadval yordamida quyidagi otlarning bosh va qaratqich kelishik, birlik va ko'plik son shakllarini hosil qiling.*

Tuz, kukun, shira, mum, oltingugurt, ildiz.

Namuna:

Nom.Sing.	Turl.	Rod	Gen. Sing.	Nom. Sing.	Gen. Plur.
hirudo - zuluk	III	f	hirudinis - zulukning	hirudines - zuluklar	hirudinum- zuluklarning

121-mashq. *Qavs ichida berilgan so'zlardan foydalanib, dorivor preparatlar nomini tuzing va o'zbek tiliga tarjima qiling.*

- 1) mucilago (amylum)
- 2) pulvis (Liquiritia)
- 3) emulsum (semen, Juglans)
- 4) infusum (folium, Mentha)
- 5) extractum (stigma, Mays)
- 6) decoctum (rhizoma, Tormentilla).

122-mashq. *Atamalarning shartli tasvirini tuzib, Nom. va Gen. da lotin tiliga tarjima qiling.*

- 1) xantal urug'i
- 2) quruq yo'tal
- 3) sariq nufar
- 4) shoxkuya damlamasi
- 5) sariq nufar ildizpoyasi
- 6) zig'ir urug'ining shillig'i
- 7) karlsbad tuzi (karlsbad-carolinus, a, um)
- 8) shoxkuyaning quruq ekstrakti
- 9) moychechakning quritilgan gullari
- 10) retinol atsetatning moyli eritmasi
- 11) meniantesning yer ustki qismi qaynatmasi
- 12) karlsbad sun'iy tuzi (sun'iy- factitius, a, um).

123-mashq. *O'zbek tiliga tarjima qiling.*

- 1) formae remediorum pro infantibus
- 2) mixtio pro inhalationibus
- 3) folium Plantaginis concisum
- 4) extractum Filicis maris spissum
- 5) Chloroformium pro narcosi
- 6) semina Sinapis
- 7) tabulettae contra tussim
- 8) solutio Adrenalini hydrotartratis pro injectionibus.

124-mashq. *Yunonchadan kirib kelgan otlarni toping va ularning lug'at shaklini ayting. Gaplarni o'zbek tiliga tarjima qiling.*

1. Chloretoni 0,3 - 0,5 pro dosi ut sedativum, at 0,5 - 1,0 pro dosi ut hypnoticum praescribuntur. 2. Apitritum est unguentum ex veneno Apis, oleo Terebinthinae, camphora, glycerino. 3. Novocaini basis in Pharmacopoea Internationali Procainum vocatur. 4. Diagnosis bona - curatio bona. 5. Oleum jecoris Aselli vitamina D et A continet. 6. Ergotalum est praeparatum Secalis cornuti.

Retseptlarni tarjima qiling!

1. Recipe: **Tabulettas contra tussim numero 10**
Da.
Signa: **Kuniga 2 marta 1 ta tabletkadan qabul qilinsin.**
2. Recipe: **Salis carolini factitii 10,0**
Da.
Signa: **1 stakan suvga 1 osh qoshiqdan solib, kechasiga ichilsin.**
3. Recipe: **Natrii hydrocarbonatis**
Natrii benzoatis ana 0,5
Liquoris Ammonii anisati 4 ml
Sirupi Sacchari 10 ml
Aquae Menthae ad 100 ml
Misce. Da.
Signa: **Kuniga 3 marta 1 osh qoshiqdan ichilsin.**
4. Recipe: **Boli albae 5,0**
Mucilaginis Amyli
Misce. Da.
Signa: **Har 2-3 soatda 1 choy qoshiqdan ichilsin.**
5. Recipe: **Infusi herbae Thermopsidis 0, 1: 100 ml**
Liquoris Ammonii anisati 1 ml
Natrii benzoatis 0, 6
Sirupi Althaeae 20 ml
Misce. Da.
Signa: **Kuniga 3 marta 1 choy qoshiqdan ichilsin.**
6. Oling: **Glukoza eritmasidan 20% - 200 ml.**
Sulfadimezindan 4,0
Novshadil - arpabodiyon tomchisidan 2 ml
Aralashtiring. Bering.
Belgilang: **Kuniga 3 marta 1 osh qoshiqdan ichilsin.**
7. Oling: **Valeriana ildizi damlamasidan 6,0:200 ml.dan**
Natriy bromiddan
Natriy ftoriddan teng miqdorda 2,0 dan
Kodein fosfatdan 0,15
Achchiq bodom suvidan 4 ml
Aralashtiring. Bering.
Belgilang: **Kuniga 3 marta 1 osh qoshiqdan ichilsin.**

8. Oling: Natriy benzoatdan 0,6
Novshadil arpabodiyon tomchisidan 1 ml
Gulxayri sharbatidan 25 ml
Distillangan suvdan 60 ml. gacha
Aralashtiring. Bering.
Belgilang: Har 2-3 soatda 1 choyni qoshiqdan ichilsin.
9. Oling: Zubturi barglarining damlamasidan 10,0:200 ml
Bering.
Belgilang: Kuniga 3 marta 1 osh qoshiqdan ichilsin.
10. Oling: Morfin gidrokloridning 1% eritmasidan 1 ml
Shunday dozalarda 6 (son) ta ampulalarda bering.
Belgilang: 1 ml.dan teri ostiga yuborilsin.

Uyga vazifa

I. «Unli tipdagi otlar» mavzusini o'zlashtirib oling va quyidagi savollar yordamida bilimlaringizni tekshirib ko'ring.

1. Qaysi otlar unli tipga kiradi?

2. Unli tipdagi otlarning **Nom. Sing. va Gen. Sing.** qo'shimchalarini ayting.

3. Unli tipdagi otlar **Nom. Plur. va Gen. Plur.** da qanday qo'shimchalarga ega?

II. 75-§ dagi so'z va so'z iboralarini yod oling.

III. Jadval yordamida quyidagi otlarning bosh va qaratqich kelishik, birlik va ko'plik son shakllarini hosil qiling: son, surtma, shilliq eritmasi, hayvon, kurtak.

IV. Atamalarining shartli tasvirini tuzib, Nom. va Gen. da lotin tiliga tarjima qiling.

1) suvli eritma

2) qirg'ilgan barglar

3) tozalangan oltingugurt

4) erkak paporotnikning quritilgan ildizpoyasi

5) makkajo'xori og'izchasining suyuq ekstrakti.

V. Retseptlarni tarjima qiling!

1. Oling: Shoxkuyaning suyuq ekstraktidan
Suvqalampirning suyuq ekstraktidan
Jag'-jag'ning suyuq ekstraktidan teng miqdorda 10 ml.dan
Aralashtiring. Bering.
Belgilang: Kuniga 3 marta 30 tomchidan ichilsin.

2. Oling: Tozalangan cho‘chqa moyidan 15,0
Xloroformdan 7,5
Aralashtiring. Bering.
Belgilang: Surtish uchun.
3. Oling: Moychechak gullarining damlamlasidan 2,0:100 ml.dan
Bering:
Belgilang: 1 yoshli bolaga kuniga 2 marta 1 choy qoshiqdan ichirilsin.

VI. Quyidagi hikmatlarni yod oling

1. Salus republicae suprema lex. – Davlat farovonligi – oliy qonun.
2. Scientia est potentia. – Bilim kuchdir.

VII. To‘g‘ri o‘qishni o‘rganing!

Aciclovir, Ganciclovir, Ribavirin, Dicainum, Flacosidum, Azinox, Alpisarinum, Helepinum, Megosinum, Chinocidum, Gossypolum, Chininum, Chloroquine, Chingaminum, Hydroxychloroquine, Chloridinum, Bigumalum, Acrichinum, Primachinum, Mefloquine, Fansidar, Chinini hydrochloridum, Chinini sulfas, Metakelfin, Metronidazolum, Metronidazoli Hemisuccinas, Ornidazole, Nitazolum, Trichomonacidum, Solusurminum, Glucantim, Aminochinolum, Emetini hydrochloridum, Biiochinolum, Bismoverolum, Greseofulvinum, Nystatinum, Levorinum, Nitrofungin, Levorinum - natrium, Amphotericinum, Mycoheptinum, Clotrimazolum, Ketoconazole, Octicylum, Pyrvinii pamoas, Myco~~60~~olon, Isoconasole, unguentum «Zincundanum», Phenasalum, Medaminum, unguentum «Undecinum», Mycoseptin, Semina Cucurbitae, Chinofungin, Anmarinum, flores Cinae, Piperazinum, Piperazini adipinas, Naphthammonum, flores Tanaceti vulgaris, Chloxylum, Praziquantel, Ditradini citras, Chlóraminum, Pantocidum, Chlorhexidinum, Iodoformium, Iodinolum.

25-dars

76-§. III turlanishdagi sifatlar

III turlanishdagi sifatlar uchta guruhga bo‘linadi:

1. Uch qo‘shimchali sifatlar.

Bunda har bir rod o‘zining qo‘shimchasiga ega bo‘ladi: mujskoy rod –er, jenskiy rod-is, sredniy rod –e.

Masalan: m-silvester, f-silvestris, n-silvestre.

Lug‘at shakli quyidagicha bo‘ladi: silvester, tris, tre –o‘rmondagi.

2. Ikki qo‘shimchali sifatlar.

Bunda mujskoy va jenskiy rodlar –is qo‘shimchasiga, sredniy rod – e qo‘shimchasiga ega bo‘ladi.

Masalan : m, f -vernalis, n- vernale.

Lug'at shakli quyidagicha bo'ladi : vernalis, e – bahorgi.

3. Bir qo'shimchali sifatlar.

Bunda uchala rod bir qo'shimchaga, ya'ni -x yoki -ns qo'shimchasiga ega.

Lug'atda avval Nom. Sing. shakli to'liq yoziladi, keyin Gen. Sing. ning kelishik qo'shimchasi ko'rsatiladi:

simplex, icis - oddiy

recens, ntis - yangi

III turlanishdagi sifatlar kelishiklar bo'yicha III turlanishdagi otlar singari turlanadi, lekin undosh tipga nisbatan ayrim xususiyatlarga ega, ya'ni:

1. Mujskoy, jenskiy va sredniy rodlar: Abl.Sing. da –e o'rnida -i, Gen. Plur. da -um o'rnida -ium qo'shimchasiga ega bo'ladi.

2. Sredniy rod: Nom. Plur. va Acc. Plur. da –a o'rniga -ia qo'shimchasiga ega bo'ladi.

Turlanish namunasi Singularis

Casus	m	f	n
Nom.	silvester	silvestris	silvestre
Gen.	silvestris	silvestris	silvestris
Dat.	silvestri	silvestri	silvestri
Acc.	silvestrem	silvestrem	silvestre
Abl.	silvestri	silvestri	Silvestri

Pluralis

Casus	m	f	n
Nom.	silvestris	silvestres	silvestria
Gen.	silvestrium	silvestrium	silvestrium
Dat.	silvestribus	silvestribus	silvestribus
Acc.	silvestres	silvestres	silvestria
Abl.	silvestribus	silvestribus	silvestribus

77-§. Quyidagi sifatlarni yod oling!

silvester, tris, tre – o‘rmondagi, o‘rmonda o‘sadigan
paluster, tris, tre – botqoqlikda, botqoqda o‘sadigan
officinalis, e – dorivor, dorixona -i (-si)
letalis, e – o‘ldiradigan, o‘ldiruvchi
vaginalis, e – qinga oid
dulcis, e – shirin
majalis, e – may -i (-si)
pectoralis, e – ko‘krak -i (-si), ko‘krakka tegishli
talis, e – shunaqa, shunday
vernalis, e – bahorgi
naturalis, e – tabiiy
simplex, icis – oddiy
recens, ntis – yangi
aequalis, e – bir xil, bab-baravar
vulgaris, e – oddiy
communis, e – oddiy
rectalis, e – to‘g‘ri ichak -i (-si)
fortis, e – kuchli ta‘sir qiladigan (dori)
mitis, e – kuchsiz ta‘sir qiladigan (dori)
arvensis, e – dala -i (-si), dalada o‘sadigan
amurensis, e – amur -i (-si)
chinensis, e – xitoy -i (-si)
intramuscularis, e – mushak orasiga
medicinalis, e – tibbiyot -i (-si)

Quyidagi iborani eslab qoling!

Divide in partes aequales. – Teng qismlarga bo‘l.

Mashqlar

125- mashq. Sifatlarni otlarga moslashtiring va so‘z iboralarini o‘zbek tiliga tarjima qiling.

- | | |
|-------------------------------|--------------------------------------|
| 1) pars (aequalis, e) | 6) Thymus (vulgaris, e) |
| 2) tinctura (simplex, icis) | 7) herba Adonidis (vernalis, e) |
| 3) Mesim (fortis, e) | 8) emplastrum Plumbi (simplex, icis) |
| 4) Berberis (amurensis, e) | 9) suppositorium (vaginalis, e) |
| 5) Taraxacum (officinalis, e) | 10) globulus (vaginalis, e) |

126- mashq. *Atamalarining shartli tasvirini tuzib, Nom. va Gen. da lotin tiliga tarjima qiling.*

- | | |
|----------------------|-----------------------|
| 1) o'rmon guli | 7) dorivor timoqgul |
| 2) tibbiyot zulugi | 8) oddiy malham |
| 3) o'ldiradigan doza | 9) bahorgi adonis |
| 4) tabiiy shira | 10) oddiy anis |
| 5) ko'krak eliksiri | 11) tibbiyot jelatini |
| 6) may marvaridguli | 12) shunday dozalar. |

127- mashq. *Xato tarjima qilingan atamalarni toping va xatolar nimalardan iborat ekanligini tushuntiring.*

Folia silvestres, semina dulcia, Amygdalus dulcis, Triticum vulgare, medicamentum forte, semen amare, Thymus vulgare, Pinus silvestris, capsula medicinalis, herba vernale, succus naturale, linimentum volatile.

128-mashq. *O'zbek tiliga tarjima qiling.*

1. Adonis vernalis glycosida Cimorinum et Adonitoxinum continet. 2. Globuli sunt suppositoria vaginalia. 3. Folia sicca et succus ex herba Plantaginis recentis in medicina sadhibentur. 4. Adonisidum est praeparatum Adonis vernalis. 5. Sunt duo praeparata: Aether medicinalis et Aether pro narcosi.

129-mashq. *«III turlanishdagi siflatlar» mavzusi bo'yicha klaster tuzing.*

Retseptlarni tarjima qiling!

1. Recipe: Oletetrini 0,25
Da tales doses numero 25 in tabulettis.
Signa: Kuniga 4 marta 1 ta tabletkadan qabul qilinsin.
2. Recipe: Infusi herbae Adonidis vernalis 6,0: 180 ml
Natrii bromidi 6,0
Codeini phosphatis 0,2
Misce. Da.
Signa: Kuniga 3 marta 1 osh qoshiqdan ichitsin.
3. Recipe: Infusi herbae Thermopsidis 150 ml
Natrii hydrocarbonatis 3,0
Liquoris Ammonii anisati 2ml
Elixiris pectoralis 2 ml
Misce. Da.
Signa: Kuniga 3 marta 1 osh qoshiqdan ichilsin.
4. Recipe: Emulsi oleosi 120,0
Phenolphthaleini 0,8
Sirupi simplicis 20 ml

- Misce. Da.
Signa: Kuniga 3 marta 1 choy qoshiqdan ichilsin.
5. Recipe: Emulsi olei Ricini
Resorcini 0,12
Bismuthi subnitratris 1,0
Sirupi simplicis 20 ml
Misce. Da.
Signa: Kuniga 3 marta 1 desert qoshiqdan ichilsin.
6. Oling: Tabiiy oshqozon shirasidan 150 ml
Bering.
Belgilang: Kuniga 3 marta 1 osh qoshiqdan ovqat paytida ichilsin.
7. Oling: Qo'rg'oshinning oddiy malhamidan 50,0
Bering.
Belgilang: Terining zararlangan joyiga surtilsin.
8. Oling: Gulxayri ildizining damlamasidan 120 ml
Natriy gidrokarbonatdan 0,6
Ko'krak eliksiridan 2ml
Aralashtiring. Bering.
Belgilang: Kuniga 2 marta 1 desert qoshiqdan ichilsin.
9. Oling: Gulxayri ildizining qaynatmasidan 150 ml
Natriy benzoatdan 3.0
Ko'krak eliksiridan 2 ml
Oddiy sharbatdan 20 ml
Aralashtiring. Bering.
Belgilang: Kuniga 4 marta 1 choy qoshiqdan ichilsin.
10. Oling: Amur zirkinining suyuq ekstraktidan 30 ml
Bering.
Belgilang: Kuniga 3 marta 20-30 tomchidan ichilsin.

Uyga vazifa

I. «III turlanishdagi sifatlar» mavzusini o'zlashtirib oling va quyidagi savollar yordamida bilimlaringizni tekshirib ko'ring:

1. III turlanishdagi sifatlar nechta guruhga bo'linadi?
2. Uch qo'shimchali sifatlar deganda nimani tushunasiz?
3. Ikki qo'shimchali sifatlar deganda nimani tushunasiz?
4. Bir qo'shimchali sifat larni tushuntirib bering?
5. III turlanishdagi sifatlar kelishiklar bo'yicha qanday turlanadi?

II.77-§ *dagi so'zlarni yod oling.*

III. *Chap ustundagi lotincha so'zlarning o'ng ustundagi o'zbekcha ekvivalentlarini toping .*

- | | |
|-------------------------|------------------------------------|
| 1) silvester, tris, tre | a) shirin |
| 2) letalis, e | b) oddiy |
| 3) officinalis, e | c) bahorgi |
| 4) dulcis, e | d) o'rmondagi, o'rmonda o'sadigan. |
| 5) naturalis, e | e) mushak orasiga |
| 6) vernalis, e | f) dorivor, dorixonona - i(-si) |
| 7) simplex, icis | g) to'g'ri ichak -i(-si) |
| 8) arvensis, e | h) o'ldiradigan, o'ldiruvchi |
| 9) intramuscularis, e | i) dalada o'sadigan |
| 10) rectalis, e | j) tabiiy |

IV. *Atamalarining shartli tasvirini tuzib, Nom. va Gen. da lotin tiliga tarjima qiling.*

- | | |
|-----------------|--------------------|
| 1) amur zirki | 3) xitoy limonnigi |
| 2) shirin bodom | 4) oddiy sharbat |

V. *Retseptlarni tarjima qiling.*

1. Recipe: *Griseofulvini Fortis* 0,125

Da tales doses numero 12 in tabulettis.

Signa: Kuniga 3 marta 1 ta tabletkadan qabul qilinsin.

2. Recipe: *Herbae Equiseti arvensis* 25,0

Da.

Signa: 1 stakan qaynagan suvga 2 osh qoshiq solib damlansin va kun davomida ichilsin.

3. Recipe: *Salis carolini naturalis* 100,0

Da.

Signa: 1 stakan suvga 1 osh qoshiq solib ichilsin.

4. Recipe: *Coffeini - natrii benzoatis* 1,0

Natrii bromidi 3,0

Tincturae Schizandrae chinensis 6 ml

Aquae destillatae 200 ml

Misce. Da.

Signa: Kuniga 3 marta 1 osh qoshiqdan ichilsin.

5. Recipe: *Suppositoria vaginalia «Osarbonum»* numero 10.

Da in scatula.

Signa: Kuniga 1 ta shamchadan qo'yilsin.

VI. To'g'ri o'qishni o'rganing!

Iodonatum, Iodopironum, Iodovidonum, Calcex, Persadox, Piosidum, solutio Hydrogenii peroxydi concentrata, Hydroperitum, Kalii permanganas, Acidum salicylicum, Galmanium, liquor ad clavos, emplastrum adhaesivum ad clavos «Salipodum», acidum benzoicum, unguentum Acidi salicylici 2 aut 3%, pasta Zinci salicylata, Persalanum, Benzoylperoxidum, solutio Acidi borici spirituosa, linimentum Bora-zincatum, pasta Teimurovi, Natrii tetraboras, Acidumazelaicum, tabulettae «Traceptinum», Hexamethylen-tetraminum, solutio Formaldehydi, Zinci sulfas, Lysofor-mium, Urotropinum, Gystamine, Ciminalum, Cimesolum, spiritus aethylicus, Argenti nitras, Protargolum, Collargolum, Cupri sulfas, Zinci oxydum, unguentum Zinci, unguentum Zinci-naphthalanum cum Anaesthesino, pasta Zinci-ichthyoli, suspensio «Novocindolum», Zincascolum, Aspersio puerilis, suppositoria «Neo-Anusolum», emplastrum Plumbi simplex, Tricresolum, Pherosolum, pasta Boro-zincinaphthalani.

26- dars

78 -§. Aniq nisbatdagi hozirgi zamon sifatdoshi

Aniq nisbatdagi hozirgi zamon sifatdoshini hosil qilish uchun I va II tuslanishdagi fe'llarning negiziga –ns, III va IV tuslanishdagi fe'llarning negiziga – ens qo'shimchasini qo'shish kerak.

Qaratqich kelishik birlik sonda hamma sifatdoshlar -ntis qo'shimchasiga ega bo'ladi.

Masalan:

Fe'l	Sifatdosh		Tarjimasi
	Nom.	Gen.	
signare	signans	signatis	belgilovchi
miscere	miscens	miscentis	aralashtiruvchi
dividere	dividens	dividentis	bo'luvchi
audire	audiens	audientis	eshituvchi

Aniq nisbatdagi hozirgi zamon sifatdoshi kelishiklar bo'yicha III turlanishdagi sifatlar singari turlanadi.

79-§. Quyidagi sifatdoshlarni yod oling!

expectorans, ntis – balg'am ko'chiruvchi
adstringens, ntis – burushtiruvchi
adjuvans, ntis – yordamchi, ko'makchi
corrigens, ntis – tuzatuvchi, yaxshilovchi
constituens, ntis – shakl hosil qiluvchi

Quyidagi sifatlarni yod oling!

subtilis, e – mayda
solubilis, e – eruvchan
sterilis, e – sterilizatsiya qilingan
volatilis, e – uchuvchan
pinguis, e – yog'li
Viride(is) nitens(ntis) – brilliant ko'ki

~~80-§. Murakkab retsept tarkibiga kiruvchi moddalar~~

Murakkab retseptlarda quyidagi moddalar ko'rsatilishi mumkin:

1. **Remedium basis** – asosiy ta'sir etuvchi moddalar.
2. **Remedium adjuvans** – asosiy ta'sir etuvchi moddaning ta'sirini kuchaytiruvchi yoki kuchsizlantiruvchi yordamchi yoki ko'maklashuvchi moddalar.
3. **Remedium corrigens** – dorivor moddalarning mazasini, hidini va boshqa yoqimsiz xususiyatlarini tuzatuvchi moddalar.
4. **Remedium constituents** – shakl hosil qiluvchi moddalar, dorilarga aniq shakl (suyuq, qattiq, yumshoq) beruvchi moddalar.

Murakkab retseptga misol:

Recipe: Pepsini 2.0 - basis
Acidi hydrochlorici diluti 5 ml - adjuvans
Sirupi simplicis 15.0 - corrigens
Aquae destillatae ad 200 ml - constituens
Misce. Da.

Signa: Kuniga 3 marta 1 choy qoshiqdan ichilsin.

Remedium basis – albatta bo'lishi kerak bo'lgan modda. Adjuvans, corrigens, constituens – hamma retseptlarda uchrayvermaydi.

Mashqlar

130- mashq. *Quyidagi fe'llardan aniq nisbatdagi hozirgi zamon sifatdoshlarini hosil qiling.*

Adjuvare – yordam bermoq, constituere – shakl bermoq, labare – ishlamoq, producere – ishlab chiqarmoq, medicare – davolamoq.

Bugungi kunda jahonda mavjud bo'lgan 6000ga yaqin dorivor vositalarning 60000ga yaqin nomlari mavjud. Dorivor vositalar nomlarining sinonimiyasi salbiy tomonga ega. Dorivor vositalarning umumiy xalqaro nomlari sinonimiyani kamaytirishga yordam beradi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti qoshida dori moddalariga halqaro nom berish ishlarini boshqaruvchi maxsus komitet mavjud. Xalqaro nomlardan shu dorivor moddani ishlab chiqaruvchi davlat yoki firma foydalanishi mumkin. Bu nomlar patentli emas. Davlat farmakopeyasida patentli bo'lmagan halqaro nomlar sinonim sifatida albatta maxsus belgi (*) bilan ko'rsatiladi.

Dori moddalariga xalqaro nom beruvchi maxsus komitet tomonidan «Dorivor moddalarning patentli bo'lmagan xalqaro nomlarini tuzish uchun qo'llanmaning asosiy prinsiplari» ishlab chiqildi.

~~Dorivor moddalar nomlarida tez-tez takrorlanadigan bo'laklarni ishlatish yordamida farmakologik guruhni aks ettirish tavsiya qilinadi.~~

Hozirgacha maxsus komitet tomonidan 30ga yaqin farmakologik guruhga oid va 3 ta kimyoviy guruhga oid tez-tez takrorlanadigan bo'laklar tavsiya etilgan.

101 -§. Quyidagi tez-tez takrorlanadigan bo'laklarni yod oling!

-cor-, - card (i)- – yurak –i, - si

-vas-, - ang (i)- – tomir kengaytiruvchi, qon tomirlarini kengaytiruvchi

-dol-, - alg- – og'riq qoldiruvchi

-pres (s)-, -ten (s)- – gipertoniya qarshi

-cain- – mahalliy og'riqsizlantiruvchi

-sulfa- – mikroblarga qarshi sulfanilamidlar

-fur (a)- – mikroblarga qarshi, nitrofuran unumlari

-cillin-

-cyclin-

-mycin-

} – antibiotiklar

-barb- –barbituratlar, uxlatadigan, narkotik, barbiturat kislotasining unumlari, hosilasi

-mal-, -al (soʻz oxirida)-	}	- uxlatadiganlar
-somm-		
-hypn-		
-dorm-		

145 – mashq. *Tez-tez takrorlanadigan boʻlaklarni ajrating va ularning ahamiyatini koʻrsating.*

Depridol, Algolysin, Bicillinum, Lanocordalum, Furacilinum, Ferrocolum, Viprosalum, Pyromecainum, Cardigin, Anginal, Capresin, Dibazolum, Phoxymethylpenicillinum, Sovcainum, Tenormal, Anacardiol, Hexenalum, Barbamylum, Somnafin, Conferon, Tetracyclinum, Streptomycinum, Carminomycinum, Chendal, Valocormidum, Phenaminum, Methindionum, Napnthyzinum, Analginum, Novocainum, Norsulfazolium, Furoplast, Dicainum, Cordalen, Presinol, Vasocil, Methicillinum, Valocordin, Diazolinum, Vasculat, Tetracor, Aprepressinum, Xycainum, Sulfamonomethoxinum, Dolgit, Barbenyl, Cardiazol, Furosemidum, Vasolanum.

102 -§. Quyidagi dorivor preparatlar nomlarini yod oling!

Furacilinum, i, n – furatsilin
 No – spa, ae, f – no –shpa
 Valocordinum, i, n – valokordin
 Cordiaminum, i, n – kordiamin
 Analginum, i, n – analgin
 Validolum, i, n – validol
 Depressinum, i, n – depressin
 Novocainum, i, n – novokain
 Dicainum, i, n - dikain
 Synthomycinum, i, n – sintomitsin
 Tetracyclinum, i, n – tetratsiklin
 Phoxymethylpenicillinum, i, n – fenoksimetilpenitsillin
 Erythromycinum, i, n – eritromitsin
 Streptomycinum, i, n – streptomitsin

Retseptlarni tarjima qiling!

1. Recipe: Oxacillini – natrii 0,25
 Da numero 40 in capsulis gelatinosis.
 Signa: Kuniga 4 marta 2 ta kapsuladan qabul qilinsin.
2. Recipe: Novocaini 0,5
 Aquae destillatae 200 ml

- Misce. Da.
 Signa: 1 osh qoshiqdan ichilsin.
3. Recipe: Linimenti Synthomycini 1% cum Novocaino 0,5% 25
 Da.
 Signa: Kuniga 1 marta kuygan joyga surtilsin.
4. Oling: Tetratsiklin surtmasidan 0,2% 25,0
 Bering.
 Belgilang: Surtma
5. Oling: Kardiovalendan 15 ml
 Bering.
 Belgilang: Kuniga 1-2 marta 15-20 tomchidan ichilsin.
6. Oling: Geksametilentetramindan 0,25
 Belladonna ekstraktidan 0,015
 Shunday dozalarda 10 (son)ta tabletkalarda bering.
 Belgilang: Kuniga 3 marta 1 ta tabletkadan qabul qilinsin.

Uyga vazifa

I. «Dorivor vositalarga trivial nomlarni berish qoidalari va dorivor preparatlar nomlarining jahon sinonimiyasi» mavzularini o'zlashtirib oling. Quyidagi savollar yordamida bilimlaringizni tekshirib ko'ring.

1. Dorivor preparatlarning trivial nomlari qanday talablarga mos kelishi kerak?

2. Dorivor preparatlarning trivial nomlari bo'yicha belgilangan to'rtta talabni aytib bering.

3. Dorivor preparatlar nomlarining jahon sinonimiyasi deganda nimani tushunasiz?

4. Sinonimiyani kamaytirish uchun qanday ishlar amalga oshirilmoqda?

5. Dori moddalariga xalqaro nom berish ishlarini qaysi tashkilot amalga oshiradi?

II. 101, 102-§ lardagi tez-tez takrorlanadigan bo'laklar va dorivor preparatlar nomlarini yod oling.

III. Tez-tez takrorlanadigan bo'laklarni ajrating va ularning ahamiyatini ko'rsating.

Methylmelubrinum, Aethacizinum, Algofenum, Dolocainum, Dormicum, Prestarium, Vasaginum, Tensicor, Hexamethonium, Laevomycesinum, Erythromycinum, Cordiaminum, Cyclamycinum.

IV. Retseptlarni tarjima qiling.

1. Recipe: Unguenti Furacilini 0,2% 25,0

Da.

Signa: Surtma

2. Recipe: Sulfocamphocaini 10% 2 ml
Da tales doses numero 6 in ampullis.
Signa: Mushaklar orasiga 2 ml. dan yuborilsin.
3. Recipe: Validoli 0,05 in capsulis numero 20.
Da.
Signa: Kuniga 2-4 marta 1 ta kapsuladan qabul qilinsin.
4. Oling: Vinilindan 20,0
Kungaboqar moyidan 80,0
Aralashtiring.
Bering.
Belgilang: Sirtidan ishlatish uchun.
5. Oling: Pantokrindan 1 ml
Shunday dozalardan 6 (son)ta ampulalarda bering.
Belgilang: Kuniga 1 marta 1 ml. dan teri ostiga yuborilsin.
6. Oling: Kseroform surtmasidan 10% 50,0
Bering.
Belgilang: Surtma

V. To'g'ri o'qishni o'rganing!

Amylum Solani, Amylum Triticum, Amylum Maydis, Amylum Oryzae, Althaea officinalis, folia Plantaginis majoris, herba Plantaginis psyllii recens, Thalli Laminariae, Laminariae saccharina, Laminaria digitata, Linum usitatissimum, Tussilago farfara, gummi Tragacanthae, Astragalus pileocladus, Astragalus microcephalus, gummi Armeniacae, Armeniaca vulgaris, fructus Ribis nigri, Fragaria vesca, Sorbus aucuparia, Hippophaë rhamnoides, Calendula officinalis, Urtica dioica, stigmatis Zeae maydis, cortex Viburni, Lagochilus inebrians, Capsella bursa pastoris, Theobroma cacao, Ricinus communis, Amygdalus communis, Persica vulgaris, Armeniaca vulgaris, Prunus domestica, Prunus divaricata, Olea europaea, Zea mays, Helianthus annuus, Linum usitatissimum, Gossypium, oleum jecoris Aselli, Cera flava, Cetaceum, adeps Lanae, Mentha piperita, Salvia officinalis, Eucalyptus viminalis, Eucalyptus cinerea, Carum carvi, Pyrethrum carneum, Pyrethrum cinerariaefolium.

32 - dars

103 -§. Kombinatsiyalashtirilgan dorivor preparatlarning nomlanishi

Kombinatsiyalashtirilgan dorivor preparatlar ikki yoki undan ortiq dorivor moddalardan iborat bo'ladi va ma'lum dori shaklida (tabletkalar, shamcha, surtma) ishlab chiqariladi.

Kombinatsiyalashtirilgan preparatlarning nomi abbreviaturadan iborat

bo'lib, hamma yoki ba'zi ingrediylarning nomidan ixtiyoriy ajratib olingan bo'laklardan tashkil topadi.

Masalan: «**Pyrcophenum**» abbreviaturasi pyr+co+phen(um) bo'laklardan tashkil topgan. Bu bo'laklar Amidopyrinum, Coffeinum, Phenacetinum kabi preparatlar nomidan ajratib olingan.

Odatda bunday shartli nom dori shaklining ma'lum ko'rinishiga birlashtirib qo'yiladi va qo'shtirnoq ichiga **Nominativus Singularis**da yoziladi: tabulettae «Pyrcophenum», suppositoria «Bethiolum», dragees «Undevitum».

Kombinatsiyalashtirilgan tarkibli tabletkalar va shamchalardagi «tabletkalar» va «shamchalar» so'zlari retseptda **Accusativus Pluralis** da yoziladi:

Masalan: **Recipe: Tabulettas «Pyrcophenum» numero 10.**

Recipe: Suppositoria «Anusolum» numero 20.

146-mashq. Lotin tiliga tarjima qiling.

- | | |
|----------------------------|--------------------------|
| 1.«Dekamevit» tabletkalari | 6.«Apilak» shamchalari |
| 2.«Ankofen» tabletkalari | 7.«Anuzol» shamchalari |
| 3.«Sefekon» shamchalari | 8.«Betiol» shamchalari |
| 4.«Psoriazin» surtmasi | 9.«Askofen» tabletkalari |
| 5 «Sitramon» tabletkalari | 10.«Denta» tomchilari. |

104 -§. Quyidagi tez-tez takrorlanadigan bo'laklarni yod oling!

- | | |
|----------------|--|
| -sed- | - sedativ, tinchlantiruvchi |
| -stress- | - psixosedativ trankvilizatorlar, antidepressantlar |
| -tranqu- | |
| -atrax- | |
| -ze (a,i) pam- | |
| -trast- | - diagnostik, rentgenoktrast |
| -gnos- | |
| -graf- | |
| -chol- | 1) o't haydovchi |
| -bil- | |
| -ur- | 1) siydik haydovchi |
| | 2) «diagnostik» tez-tez takrorlanadigan bo'laklar bilan birgalikda tanosil (a'zolari) sistemasini tekshirish uchun |

-lax-	}	- surgi
-verm-		- gijjaga qarshi
-helm-		- allergiyaga qarshi
-allerg-		- yallig'lanishga qarshi
-flog-, -phlog-	}	- yallig'lanishga qarshi
-vom-		- qusishga qarshi
-emet-		

147-mashq. *Tez-tez takrorlanadigan bo'laklarni ajrating va ularning ahamiyatini ko'rsating.*

Pentalgin, Algopyrin, Betoxicainum, Quinalgen, Allergan, Bilignostum, Aethyotrastum, Bicolax, Cardiotoxin, Aprestinum, Cardiovalenum, Diuretinum, Urofinil, Urolesan, Allocholium, Methioninum, Carbenicillinum, Corvalolum, Azaphenum, Aprophenum, Trimecainum, Diabil, Erythromycinum, Sulfacylum–natrium, Vipraxinum, Furadoninum, Ferrocero-num, Fercovenum, Nozepamum, Vomidrine, Flogistin, Tranquipanum, Dormital, Sedamyl, Anastréss, Allergol, Vermox, Verophen, Laxin, Tetracor, Cholevid, Sedalginum, Cholan, Bisalax, Bilignostum.

105 -§. Quyidagi dorivor preparatlar nomlarini yod oling!

Phenobarbitalum, i, n – fenobarbital
 Bromisovalum, i, n – bromizoval
 Noxyron, i, n – noksiron
 Protargolum, i, n – protargol
 Collargolum, i, n – kollargol
 Ichthyolum, i, n – ixtiol
 Hexamidinum, i, n – geksamidin
 Resorcinum, i, n – rezorsin
 Pepsinum, i, n – pepsin
 Amidopyrinum, i, n – amidopirin
 Antipyrinum, i, n – antipirin
 Thecodinum, i, n – tekodin
 Themisalum, i, n – temizal
 Anaesthesinum, i, n – anestezin

Retseptlarni tarjima qiling!

1. Recipe: Suppositoria «Anaesthesolum» numero 20.

Da.

Signa: Kechasiga 1 ta shamchadan qo'yilsin.

2. Recipe: **Tabulettas «Citramonum» numero 6.**
Da.
Signa: **Kuniga 3 marta 1 ta tabletkadan qabul qilinsin.**
3. Recipe: **Tabulettas «Haemostimulinum» numero 50.**
Da.
Signa: **Kuniga 3 marta 1 ta tabletkadan qabul qilinsin.**
4. Recipe: **Tabulettas Antipyrini 0,25 numero 10.**
Da.
Signa: **Kuniga 2-3 marta 1 ta tabletkadan qabul qilinsin.**
5. Recipe: **Tabulettas Laevomycetini 0,25 numero 10.**
Da.
Signa: **Kuniga 4 marta 2 ta tabletkadan qabul qilinsin.**
6. Recipe: **Cyclobarbitali 0,2**
Da in **tabulettis numero 10.**
Signa: **Kechasiga yarim tabletkadan qabul qilinsin.**
7. Recipe: **Tabulettas Analgini 0,5 numero 10.**
Da.
Signa: **Kuniga 2-3 marta 1 ta tabletkadan qabul qilinsin.**
8. Oling: **Anestezin surtmasidan 5% li 10,0**
Bering.
Belgilang: **Sirdan ishlatish uchun.**
9. Oling: **«Pentalgin» tabletkalaridan 10 (son)ta**
Bering.
Belgilang: **Kuniga 2-3 marta 1 ta tabletkadan qabul qilinsin.**
10. Oling: **Furatsilindan 0,1**
20 (son)ta tabletkalarda bering.
Belgilang: **Kuniga 4 marta 1 ta tabletkadan qabul qilinsin.**
11. Oling: **Dibazol tabletkalaridan 0,02 12 (son)ta**
Bering.
Belgilang: **1 kunda 3 marta 1 tabletkadan qabul qilinsin.**
12. Oling: **Apressin tabletkalaridan 0,01 20 (son)ta**
Bering.
Belgilang: **Kuniga 3 marta 1 ta tabletkadan qabul qilinsin.**
13. Oling: **Sulfadimezin tabletkalaridan 0,5 20 (son)ta**
Bering.
Belgilang: **Kuniga 4 marta 1 ta tabletkadan qabul qilinsin.**
14. Oling: **Raunatin tabletkalaridan 0,002 50 (son)ta**
Bering.
Belgilang: **Kuniga 1-2 marta 1 ta tabletkadan qabul qilinsin.**

Uyga vazifa

I. «Kombinatsiyalashtirilgan dorivor preparatlarning nomlanishi» mavzusini o'zlashtirib oling va quyidagi savollar yordamida bilimlaringizni tekshirib ko'ring.

1. Kombinatsiyalashtirilgan dorivor preparatlar deganda nimani tushunasiz?

2. Kombinatsiyalashtirilgan dorivor preparatlar nomi qanday hosil qilinadi?

3. Retseptlarda tabletkalar va shamchalar nomi qanday yoziladi?

II. 104,105-§ dagi tez-tez takrorlanadigan bo'laklar va dorivor preparatlar nomlanishini yod oling.

III. Tez- tez takrorlanadigan bo'laklarni ajrating va ularning ahamiyatini ko'rsating.

Regutensin, Exalgin, Stenicardol, Prodorm, Triacillin, Butaflogin, Thiobutalum, Allercur, Dipidolor, Panangin, Chologonum, Dibazolum, Gentamycinum, Norsulfazolum, Furazolidonum, Ferroplex, Olivomycinum, Viperalgin, Phenazepamum, Benzylpenicillinum - kalium, Uregit, Cordiaminum, Neozepam.

IV. Retseptlarni tarjima qiling.

1. Oling: Korazol tabletkalaridan 0,1 10 (son)ta

•Bering.

Belgilang: Kuniga 2 marta 1 ta tabletkadan qabul qilinsin.

2. Oling: Diazolin drajesidan 0,05

Shunday dozalarda 20 (son) ta bering.

Belgilang: Kuniga 2 marta ovqatdan keyin 1 ta drajedan qabul qilinsin.

3. Oling: Naftalan surtmasidan 50,0

Bering.

Belgilang: Kompresni namlash uchun.

4. Oling: Fenoldan 0,5

Glitserindan 10,0

Aralashtiring.

Bering.

Belgilang: Quloq uchun tomchi.

V. To'g'ri o'qishni o'rganing!

Aesculus hippocastanum, Dioscorea nipponica, Tribulus terrestris, Dryopteris filix mas, Arctostaphylos uva ursi, Vaccinum vitis idaea, Rhodiola rosea, Schizandra chinensis, Eleutherococcus senticosus, Podophyllum peltatum, Aloë ferox, Aloë succotrina, Aloë arborescens, Rhamnus frangula,

Rhamnus cathartica, Rheum palmatum, Rumex confertus, Ribia tinctorum, Centaurea cyanus, Crataegus sanguinea, Crataegus laevigata, Leonurus quinquelobatus, Sophora japonica, Aronia melanocarpa, Helichrysum arenarium, Tanacetum vulgare, Polygonum aviculare, Polygonum hydropiper, Ononis arvensis, Scutellaria baicalensis, Equisetum arvense, Gnaphalium uliginosum, Bidens tripartita, Hypericum perforatum, Hypericum maculatum, Viola tricolor, Tilia platyphyllos, Ammi majus, Pastinaca sativa, Phlojodicarpus sibiricus, Anethum graveolens, Psoralea drupacea, Melilotus officinalis, Ruta graveolens, Visnaga daucoides, Quercus busitanica, Rus semialata, Cotinus coggygria, Bergenia crassifolia, Sanguisorba officinalis.

33 - dars

106- §. Vitaminlar va fermentlarning lotincha nomlanishi

Vitaminlar trivial nomlar (Retinolum, Thiaminum) bilan bir qatorda harfli belgilarga ega: **A, B, D, E, K, H, P.**

Bitta harf bilan belgilangan ayrim vitaminlar bir-biriga yaqin, lekin har xil birikmalar bo'lsa, ularning harfli belgisiga tartib soni qo'shiladi.

Masalan: vitaminum B₁
vitaminum B₂
vitaminum B₆
vitaminum B₁₂

Kombinatsiyalashtirilgan vitamin preparatlari ko'pincha – vit - tez-tez takrorlanadigan bo'lak bilan uchraydi.

Masalan: Dragees «Undevitum»

Fermentlar nomi biokimyoviy nomenklaturaga binoan – as- suffiksi yordamida hosil bo'ladi.

Masalan: Lydasum, Ronidasum.

107- §. Quyidagi tez-tez takrorlanadigan bo'laklarni yod oling!

- vit - vitamin saqlaydiganlar, vitamin saqlovchilar
 - as - fermentlarga tegishli
 - abol - anabolik steroidlar (organizmda oqsil sintezini stimullashtiradi)
 - oestr - estrogen preparatlar (ayollar jinsiy gormonlarining preparatlari)
 - test-
 - andr-
 - vir-
 - stan-
 - ster-
- } – androgen steroidlar (erkaklar jinsiy gormonlarining preparatlari)

- thyr- – qalqonsimon bezni va qalqonsimon bez yonidagi bezlarni davolash yoki tekshirish uchun preparatlar
- cort- } – kortikosteroidlar (buyrak usti bezi po‘stlog‘i ishlab chiqaradigan gormonlarning preparatlari)
- cortic- }
- t(h) romb- – 1. antitrombotiklar (trombga qarshi)
 2. antikoagulantlar (qon ivishiga qarshi)
- coum- } – antikoagulantlar
- cum- }
- arolum- }

148- mashq. *Tez-tez takrorlanadigan bo‘laklarni ajrating va ularning ahamiyatini ko‘rsating.*

Neodicumarinum, Trombolysan, Syncumar, Cholan, Cardiovalenum, Catapresan, Trom-bophen, Cardiotoxin, Hexavitum, Ribonucleasum, Anabolin, Locacorten, Oestronum, Testosteronum, Agovirin, Corticotropinum, Thyrotropinum, Flucort, Diiodthyrosinum, Sterandryl, Octoes-trolum, Primotest, Methyltestosteronum, Androral, Ronidasum, Bionabol, Oestradiolum, Testoral, Methylandrostendiolum, Decorton, Thyranon, Cortisonum, Desoxyribonucleasum, Danabol, Tetravitum, Thyrotan, Phthorocort, dragees «Decamevitum», Trombostop, Normopressan, Intencordin.

108- §. Quyidagi dorivor preparatlar nomlarini yod oling!

Nitroglycerinum, i, n – nitroglitserin
 Chloraminum, i, n – xloramin
 Prednisolonum, i, n – prednizolon
 Dermatolum, i, n – dermatol
 Streptocidum, i, n – streptotsid
 Urodanum, i, n – urodan
 Riboflavinum, i, n – riboflavin
 Tannalbinum, i, n – tanalbin
 Platyphyllinum, i, n – platifillin
 Euphyllinum, i, n – eufillin
 Plantaglucidum, i, n – plantaglutsid
 Vikasolum, i, n – vikasol
 Allocholum, i, n – alloxol.

149- mashq. O'zbek tiliga tarjima qiling.

- | | |
|-----------------------------|---------------------------------|
| 1) Tabulettae Bromcamphorae | 5) Suppositoria «Anusolum» |
| 2) Tabulettae «Camphotalum» | 6) Tabulettae «Pyraphenum» |
| 3) Suppositoria «Cefeconum» | 7) Guttae «Denta» |
| 4) Unguentum Heliomycini | 8) Unguentum «Antipsoriaticum». |

Retseptlarni tarjima qiling!

1. Recipe: Ronidasi 5,0
Da.
Signa: Yara uchun sepki.
2. Recipe: Tabulettas «Decamevitum» – 1 numero 40.
Da.
Signa: Kuniga 2 marta ovqatdan keyin 1 ta tabletkadan qabul qilinsin.
3. Recipe: Aristocorti 0,002
Da numero 20 in tabulettis.
Signa: Kuniga 3–4 marta 1–2 ta tabletkadan qabul qilinsin.
4. Recipe: Tabulettas Oxaphenamidi 0,25 numero 50.
Da.
Signa: Kuniga 3 marta ovqatdan oldin 1 ta tabletkadan qabul qilinsin.
5. Recipe: Tabulettas Methylandrostendioli 0,025 numero 30.
Da.
Signa: Kuniga 2 marta til ostiga 1 ta tabletka qo'yilsin.
6. Oling: Tifen drajesidan 0,03 25 (son)ta
Bering.
Belgilang: Kuniga 3 marta 1 ta drajedan qabul qilinsin.
7. Oling: Fenolfalein tabletkalaridan 0,1 24 (son)ta
Bering.
Belgilang: Kuniga 2 marta 1 ta tabletkadan qabul qilinsin.
8. Oling: Etinilestradiol tabletkalaridan 0,0001 10 (son)ta
Bering.
Belgilang: Kuniga 1–2 marta 1 ta tabletkadan qabul qilinsin.
9. Oling: Tireoidin tabletkalaridan 0,1 50 (son) ta
Bering.
Belgilang: Kuniga 2–3 marta 1 ta tabletkadan qabul qilinsin.
10. Oling: Diazolin drajesidan 0,05 20 (son) ta
Bering.
Belgilang: Kuniga 2 marta ovqatdan keyin 1 ta drajedan qabul qilinsin.

Uyga vazifa

I. "Vitaminlar va fermentlarning lotincha nomlanishi" mavzusini o'zlashtirib oling va quyidagi savollar yordamida bilimlaringizni tekshirib ko'ring.

1. Vitaminlar qanday nomlanadi?
2. Vitaminlar nomi bilan qaysi tez-tez takrorlanadigan bo'lak ishlatiladi?
3. Fermentlar nomi qanday hosil qilinadi?

II. 107-108- § dagi tez-tez takrorlanadigan bo'laklar va dorivor preparatlar nomlarini yod oling.

III. Chap ustundagi tez-tez takrorlanadigan bo'laklarning o'ng ustundagi ahamiyatini toping.

- | | |
|-------------|--|
| 1) -vit- | a) qalqonsimon bezni va qalqonsimon bez yonidagi bezlarni davolash yoki tekshirish uchun preparatlar |
| 2) - test - | b) kortikosteroidlar |
| 3) - thyr - | c) fermentlarga tegishli |
| 4) - cort - | d) vitamin saqlaydiganlar |
| 5) -thromb- | e) androgen steroidlar |
| 6) -as - | f) antitrombotiklar |
| 7) - oestr- | g) anabolik steroidlar |
| 8) -abol - | h) estrogen preparatlar. |

IV. Tez-tez takrorlanadigan bo'laklarni ajrating va ularning ahamiyatini ko'rsating.

Cordigen, Testoenatum, Polyvitaplex, Butaflogin, Penicillinasum, Allercur, Dekavit, Asvitolum, Perandren, Nicotensyl, Sulfacetamidum, Uritol, Contalax, Dipidolor, Cholevid, Androlin, Pabestrol, Angiotrophinum, Tensonal, Stanolon, Laboestrin, Agovirin, Sulfadimezinum.

V. Retseptlarni tarjima qiling.

1. Recipe: Tabulettas Menthandrastenolini 0,005 numero 100.
Da.
Signa: Kuniga 2 marta 1 ta tabletkadan qabul qilinsin.
2. Recipe: Unguenti Furacilini 0,2 % 25,0
Da.
Signa: Surtma
3. Recipe: Suppositoria cum Cordigito 0,001 numero 10.
Da.
Signa: Kuniga 1-2 marta 1 shamchadan qo'yilsin.

VI. To'g'ri o'qishni o'rganing!

Pinus silvestris, Terebinthina communis, Oleum Terebinthinae rectificatum, Pinus pallasiana, Cinnamomum camphora, Gcimum menthaefolium,

Abies sibirica, Pimpinella anisum, Foeniculum vulgare, Trachyspermum ammi, Thymus vulgaris, Thymus serpyllum, Origanum vulgare, Ocimum gratissimum, Camelia sasanqua, Ledum palustre, Chamomilla recutita, Matricaria suaveolens, Arnica chamissonis, Inula helenium, Artemisia cina, Betula verrucosa, Artemisia absinthium, Achillea millefolium, Acorus calamus, Humulus lupulus, Capsicum annuum, Sphaerophysa salsula, Ephedra equisetina, Ephedra intermedia, Colchicum speciosum, Senecio platyphylloides, Senecio rhombilolius, Anabasis aphylla, Mimosa pudica, Thermopsis lanceolata, Thermopsis alterniflora, Thermopsis turkestanica, Vexibia pachycarpa, Securinega suffruticosa, Nuphar luteum, Hupersia selago, Atropa caucasica, Hyoscyamus niger, Datura stramonium, Datura innoxia, Scopolia carniolica, Cinchona succirubra, Salsola richteri, Chelidonium majus, Glaucium flavum.

34- dars

109 - §. Orttirma darajadagi sifatlar

- **Farmatsevtika atamashunoo ligida orttirma darajadagi sifatlar uchraydi. Ular I-II turlanishdagi sifatlar kabi turlanadi va otlarga rodga, sonda va kelishikda moslashadi.**

Masalan: oleum purissimum – juda toza moy

110- §. Quyidagi orttirma darajadagi sifatlarni yod oling!

subtilissimus, a, um – juda mayday
purissimus, a, um – juda toza
optimus, a, um – eng yaxshi
grossissimus, a, um – juda yirik, eng yirik.

Mashqlar

150-mashq. Qavs ichidagi sifatlarni otlarga moslashtiring va o'zbek tiliga tarjima qiling.

- 1) oxydum (subtilissimus, a, um)
- 2) acidum (subtilissimus, a, um)
- 3) pulvis (subtilissimus, a, um)
- 4) solutio (purissimus, a, um)
- 5) Natrii carbonas (purissimus, a, um)
- 6) Vaselineum (optimus, a, um)

151-mashq. Quyidagi atamalarni Nom. va Gen. da lotin tiliga tarjima qiling.

- | | |
|--------------------------|------------------------------|
| 1) juda mayda rux oksidi | 5) yirik kukun |
| 2) juda toza vazelin | 6) juda mayda oq streptotsid |
| 3) juda mayda kukun | 7) juda toza efir |
| 4) juda yirik kukun | 8) juda yaxshi oq vazelin. |

Retseptlarni tarjima qiling!

1. Recipe: Aetheris purissimi pro narcosi 100,0
Da tales doses numero 5.
Signa: Narkoz uchun.
2. Oling: Kseroformdan 0,3
Vazelin moyidan 2,0
Eng yaxshi oq vazelindan 8,0
Surtma hosil bo'lguncha aralashiring.
Bering.
Belgilang: Qovoqqa surtish uchun.
3. Oling: Juda mayda oq streptotsiddan 5,0
Shunday dozalardan 6 (son) ta berilsin.
Belgilansin: Sepma dori

Retseptlarning to'liq shaklini yozing va tarjima qiling!

1. Rp.: Pulv. Ac. borici subtilissimi 10,0
D.S.: Quloqqa purkash uchun.
2. Rp.: Dermatoli 10,0
Zinci oxydi 20,0
Talci 30,0
M.f. pulv. subt.
D.S.: Sepma dori.
3. Rp.: Sol. Synoestrolu 2 % 1 ml
D.t.d. № 30 in amp.
S.: Kuniga 2 ml dan mushakka yuborilsin.
4. Rp.: Kalii acetatis 3,0
Aq. dest. 200 ml
D.S.: Kuniga 4 marta 1 osh qoshiqdan ichilsin.

111- §. Farmatsevtika atamashunosligida qo'llaniladigan ravishlarni yod oling!

ana – teng, teng miqdorda
cito – darrov, tez, tezda, tezlik bilan
sitissime – juda tez
minutum – mayda
optime – eng yaxshisi
caute – avaylab, ehtiyotlik bilan
lente – sekin (ta'siri bo'yicha)
ultralente – juda sekin (ta'siri bo'yicha).

Uyga vazifa

I. "Orttirma darajadagi sifatlar" mavzusini o'zlashtirib oling va quyidagi savollar yordamida bilimlaringizni tekshirib ko'ring.

1. Orttirma darajadagi sifatlar qanday turlanadi?
2. Orttirma darajadagi sifatlar otlarga qanday moslashadi?

II. 110, 111- § dagi orttirma darajadagi sifatlarni va ravishlarni yod oling.

III. Atamalarini Nom. va Gen. da lotin tiliga tarjima qiling.

- | | |
|----------------------|--------------------|
| 1) eng yaxshi vosita | 3) eng toza vosita |
| 2) eng yirik qism | 4) juda mayda barg |

IV. Retseptlarning to'liq shaklini yozing va tarjima qiling.

1. Rp.: Streptocidi albi subtilissimi 2,0

Vaselini flavi 10,0

M.f. ung.

D.S.: Ko'z uchun surtma.

2. Rp.: Sol. Antipyrini 10 % 30 ml

D.S.: Burundan qon oqqanda qo'yiladigan tamponlarni namlash uchun.

3. Rp.: Aethylmorphini hydrochloridi 0,03

Sir. Althaeae

Aq. dest. āā 50 ml

M.D.S.: 3 yoshli bolaga kuniga 2-3 marta 1 choy qoshiqdan berilsin.

4. Rp.: Calcii lactatis

Calcii glycerophosphatis āā 0,25

D.t.d. N 20 in tab.

- S.: Kuniga 2-3 marta 1ta tabletkadan qabul qilinsin.
5. Rp.: Zinci sulfatis 0,25 %
Plumbi acetatis āā 0,3
Aq. dest. 200 ml
M.D.S.: Purkab yuvish uchun.
6. Rp.: Tab. Neomycini sulfatis 0,1 10
D.S.: Kuniga 2 marta 1 tadan tabletkaga qabul qilinsin.
7. Rp.: Ol. Vaselini purissimi pro us. int. 200,0
Ol. Menthae gtt. II.
M.D.S.: Kuniga 2 marta 1 osh qoshiqdan ichilsin.

35- dars

112 - §. Son. Sanoq va tartib sonlar

Lotin tilida sonlar o‘zbek tilidagidek sanoq va tartib sonlarga bo‘linadi.

Quyidagi sanoq va tartib sonlarni yod oling!

Rimcha raqam	Arabcha raqam	Sanoq son	Tartib son
I	1	unus, a, um – bir	primus, a, um – birinchi
II	2	duo, duae – ikki	secundus, a, um – ikkinchi
III	3	tres, tria – uch	tertius, a, um – uchinchi
IV	4	quattuor – to‘rt	quartus, a, um – to‘rtinchi
V	5	quinque – besh	quintus, a, um – beshinchi
VI	6	sex – olti	sextus, a, um – oltinchi
VII	7	septum – yetti	septimus, a, um – yettinchi
VIII	8	octo – sakkiz	octavus, a, um – sakkizinchi
XI	9	novem – to‘qqiz	nonus, a, um – to‘qqizinchi
X	10	decem – o‘n	decimus, a, um – o‘ninchi

113 - §. Sonlar yordamida soʻzlarning yasalihi
Ayrim tibbiy, farmatsevtika va botanika atamalari lotin tilida sonlar yordamida yasaladi:

dno-, bi-, bin- ikki – **bifolia** – ikki bargli
ter-, tri- uch – **tricolor** – uch rangli
quadr-, quadri- toʻrt – **quadrangulum** – toʻrt qirrali
quinque-, quinqui - besh – **quinquefolia** – besh bargli
sex-, sexi-, – olti – **sexdentatus, a, um** – olti tishli
septem-, septi- – yetti
octo- – sakkiz

Masalan : **Platanthera bifolia** – ikki bargli platantera;
Bidens tripartita – uch boʻlakli qoraqiz (ittikanak);
Hypericum quadrangulum – toʻrt qirrali dalachoy;
Leonurus quinquelobatus – besh boʻlakli arslonquyruq;
Panax quinquefolia – besh bargli jenshen.

Mashqlar

152-mashq. Quyidagi atamalarni Nom. va Gen. da tarjima qiling.

- | | |
|---|---|
| 1) uchbargli meniantes bargli | 6) uch rangli gunafshaning yer ustki qismini |
| 2) uch boʻlakli qoraqiz | 7) meniantesning quyuk ekstrakti |
| 3) besh boʻlakli arslonquyruq | 8) arslonquyruq suyuq ekstrakti |
| 4) uch rangli gunafsha | 9) qoraqiz yer ustki qismi damlamasi |
| 5) dala qirqboʻgʻimining yer ustki qismi | 10) eman poʻstlogʻining qaynatmasi. |

Retseptlarning toʻliq shaklini yozing va tarjima qiling!

1. Rp.: **Natrii thiosulfatis 10,0**
Aq. dest. 100 ml
M.D.S.: Har 5-10 daqiqada 1-2 osh qoshiqdan ichilsin.
2. Rp.: **Tab. Furacilini 0,02 ad.us. ext. № 10.**
D.S.: Chayqash uchun 100 ml suvda 1 ta tabletka eritilsin.
3. Rp.: **Sol. Furacilini 0,02 % 10 ml**
Sterilisetur!
D.S.: Koʻz uchun tomchi.
4. Rp.: **Perhydroli 5,0**
Aq. dest. 15 ml
M.D.S.: Milkka surtish uchun.

5. Rp.: Sol. Ac. salicylici spirituosae 1 % 40 ml
D.S.: Sirtidan qo'llash uchun.
6. Rp.: Methyleni coerulei 0,5
Spir. aethylici 70 % 50 ml
M.D.S.: Terining zararlangan joyiga surtish uchun.
7. Rp.: Picis liquidae
Saponis viridis $\bar{a}\bar{a}$ 15,0
Spir. aethylici 35% 15 ml
M.f. lin.
D.S.: Sirtidan qo'llash uchun
8. Rp.: Euphyllini 0,1
Ephedrini hydrochloridi 0,025
Sacchari 0,2
M.f. pulv.
D.t.d. № 12 in caps. gel.
S.: Kuniga 2-3 marta 1 ta kapsuladan qabul qilinsin.
9. Rp.: Sol. Ammonii chloridi 2,5 % 200 ml
D.S.: Kuniga 5 marta 4 osh qoshiqdan ichilsin.
10. Rp.: Decocti fol. Uvae ursi 3,0:100 ml
D.S.: 5 yoshli bolaga kuniga 4 marta 1 desert qoshiqdan ichirilsin.

Dori shakllari to'g'risida ma'lumot.

Tabletta, ae, f – tabletka

Ichish, sirdan ishlatish yoki in'yeksiya qilish (tegishli erituvchida eritilgandan so'ng) uchun mo'ljallangan, dorivor moddalarni presslab olingan, dozalangan qattiq dori turi.

Tinctura, ae, f – nastoyka

Ichishga yoki sirdan ishlatishga mo'ljallangan, dorivor o'simlik mahsulotining qizdirilmagan va spirtli, spirt-suvli, spirt-efirli tiniq ajratmasidan iborat bo'lgan suyuq dori turi.

Gutta, ae, f – tomchi (guttae - tomchilar)

Tomchi holda ichishga yoki sirdan ishlatishga mo'ljallangan suyuq dori turi.

Capsula, ae, f – kapsula

Ichish uchun mo'ljallangan ichiga dorivor vosita solingan g'iloqcha (jelatin, kraxmal yoki boshqa polimerlardan tayyorlangan)dan iborat bo'lgan dozalangan dori turi.

Pilula, ae, f – habdori

Ichishga mo'ljallangan, tarkibida dorivor vosita va yordamchi moddalar bo'lgan bir xil plastik massadan tayyorlangan sharcha holdagi dozalangan qattiq dori turi.

Pasta, ae, f – pasta

Tarkibida 20-25 % dan ortiq kukun holdagi moddalar bo'lgan surtma.

Sirupus, i, m – sharbat

Ichish uchun mo'ljallangan, qandning suvdagi konsentrlangan eritmasidagi dorivor moddalarning eritmasidan iborat suyuq dori turi.

Infusum, i, n – damlama va **decoctum, i, n** – qaynatma

Ichish yoki sirdan ishlatishga mo'ljallangan dorivor o'simlik mahsulotining suvli ajratmasi yoki shu maqsad uchun maxsus tayyorlangan konsentrant eritmasidan iborat bo'lgan suyuq dori turlari.

Damlama va qaynatma bir-biridan tayyorlash usuli (olov ustida yoki suv hammomida qizdirish va keyinchalik damlash vaqti) bo'yicha farq qiladi.

Extractum, i, n – ekstrakt

Ichishga yoki sirdan ishlatishga mo'ljallangan, dorivor o'simlik mahsulotining konsentrlangan ajratmasidan iborat bo'lgan dori turi.

Emulsum, i, n – emulsiya

Ichish, sirdan ishlatish yoki in'yeksiya qilish uchun mo'ljallangan, o'zaro aralashmaydigan suyuqliklardan iborat dispers sistemadan tashkil topgan suyuq dori turi.

Unguentum, i, n – surtma

Sirdan ishlatishga mo'ljallangan yopishqoq konsistensiyali yumshoq dori turi.

Linimentum, i, n – liniment

Suyuq surtma.

Suppositorium, i, n – shamcha

Tana bo'shlig'iga yuborish uchun mo'ljallangan, uy haroratida qattiq va tana haroratida eriydigan dori turi.

Emplastrum, i, n – malham

Sirdan ishlatishga mo'ljallangan, tana haroratida yumshash va teriga yopishish qobiliyatiga ega bo'lgan plastik massa holdagi yoki yassi narsa ustiga surtilgan o'sha plastik massa holdagi dori turi.

Granulum, i, n – granula

Ichish uchun mo'ljallangan, yumshoq, silindrsimon yoki boshqacha shaklli bir xil bo'lakchalar (zarrachalar, donachalar) dan tashkil topgan qattiq dori turi.

Aërosolum, i, n – aerosol

Gaz yoki gazlar aralashmasidan iborat dispers muhitdan, qattiq modda zarrachasi yoki suyuqlikdan iborat dispers fazadan tashkil topgan, maxsus qolip yordamida olinadigan dispers sistemali dori turi.

Briketum, i, n – briket

Presslash yo‘li bilan yirik maydalangan ma‘lum miqdordagi dorivor o‘simlik mahsulotidan tayyorlangan dozalangan dori turi.

Pulvis, eris, m – kukun

Ichish, sirtidan ishlatish yoki in‘yeksiya qilish (tegishli erituvchida eritilgandan so‘ng) uchun mo‘ljallangan kukun holiday qattiq dori turi.

Solutio, onis, f – eritma

In‘yeksiya qilish, ichish yoki sirtidan ishlatish uchun mo‘ljallangan bitta yoki bir nechta dorivor moddalarni eritish yo‘li bilan olingan suyuq dori turi.

Charta (ae) sinapina (ae) – gorchichnik

Yog‘sizlantirilgan xantal urug‘ining kukuni bilan yupqa qilib qoplangan qog‘oz varag‘i.

Dragee –draje

Ichish uchun ishlatiladigan, granula ustiga dorivor vosita va qo‘shimcha moddalarni qavat-qavat qilib surtish yo‘li bilan olinadigan dozalangan qattiq dori turi.

Species, ei, f - yig‘ma

Ichish yoki sirtidan ishlatishga mo‘ljallangan damlamalar va qaynatmalar tayyorlash uchun qo‘llaniladigan maydalangan yoki butun bir necha tur dorivor o‘simlik mahsulotining va ba‘zan dorivor vositalar qo‘shilgan aralashmasi.

A

acidum, i,n – kislota
 Acorus (i) calamus (i),m – oddiy igir
 activatus, a, um – faollashtirilgan
 addo, ere, 3 – qo‘shmoq
 adeps, ipis, m – yog‘
 adeps (ipis) suillus (i) – cho‘chqa yog‘i
 adhaesivus, a, um – yopishqoq
 adjuvo, are, l – yordam bermoq
 Adonis, idis, m – adonis
 Adonis (idis) vernalis (is) – bahorgi adonis
 Adonis (idis) turkestanicus (i) – turkiston adonisi
 adsorbens, ntis – shimadigan
 adstringens, ntis – burushtiruvchi
 adulti, orum – kattalar
 aeger, aegri, m – bemor, kasal
 aegrota, ae, f – kasal ayol, bemor ayol
 aegrotus, i, m – bemor, kasal
 aër, is, m – havo
 aërosolum, i,n – aerezol
 aequalis, e – bir xil, bab-barobar
 Aethamidum, i,n – etamid
 Aethazolum, i,n – etazol
 aether, eris, m – efir
 aethereus, a, um – efirli
 Aethimizolum, i,n – etimizol
 Aethinyloestradiolum, i,n – etinilestradiol
 aethylicus, a, um – etil –i (-si)
 agito, are – chayqatmoq
 albus, a, um – oq
 alcaloidum, i,n – alkaloid
 aliter – boshqacha
 Allium (i) sativus (i) – sarimsoq piyoz
 Allocholum, i, n – alloxol
 Alnus, i, f – qandag‘och, olxa
 Aloë, ës, f – aloy

Althaea, ae, f – gulxayri
alumen, inis, n – achchiqtosh
amarities, ei, f – achchiq ta'm, taxir maza
amarus, a, um – achchiq
Amidopyrinum, i, n – amidopirin
Aminalonum, i, n – aminalon
Aminazinum, i, m – aminazin
ammoniatum, a, um – ammiakli
ampulla, ae, f – ampula
amurensis, e – amur –i (-si)
Amycazolum, i, n – amikazol
Amygdala, ae, f – bodom
amylaceus, a, um – kraxmalli, kraxmalga tegishli
amylum, i, n – kraxmal
ana – teng miqdorda, teng
Anaesthesinum, i, n – anestezin
anaestheticus, a, um – og'riqsizlantiruvchi
analgeticus, a, um – og'riqni qoldiruvchi, og'riqsizlantiruvchi
Analginum, i, n – analgin
anhydricus, a, um – suvsiz
animal, alis, n – hayvon
anisatus, a, um – arpabodiyonli
Anisum, i, n – arpabodiyon, anis
annuus, a, um – bir yillik
antiasthmaticus, a, um – astmaga qarshi
antidiarrhoicus, a, um – ich ketishiga qarshi
antidiphthericus, a, um – bo'g'maga qarshi
antidotum, i, n – zaharga qarshi dori
antigangraenosus, a, um – gangrenaga qarshi
antihaemorrhoidalis, e – bavosilga qarshi
antipestosus, a, um – o'latga qarshi
antipyreticus, a, um – issiqni pasaytiruvchi
antirabicus, a, um – quturishga qarshi
antisepticus, a, um – antiseptik
antitetanicus, a, um – qoqsholga qarshi
antituberculosicus, a, um – silga qarshi
apis, is, f – asalari
Apomorphinum, i, n – apomorfin

Aprenalum, i, n – aprenal
 Apressinum, i, n – apressin
 Aprophenum, i, n – aprofen
 aqua, ae, f – suv
 aquosus, a, um – suvli
 Arachis, idis, f – yeryong‘oq
 Aralia, ae, f – araliya
 arenarius, a, um – qumli, qumloq
 Argentum, i, n – kumush
 Armeniaca, ae, f – o‘rik
 Arnica, ae, f – arnika
 aromaticus, a, um – xushbo‘y
 ars, artis, f – san‘at
 Arsenicum, i, n – margimush
 Artemisia (ae) absinthium (i) – achchiq shuvoq, ermon
 arvensis, e – dala -i (-si)
 aspersio, onis, f – sepma dori
 aspersio (onis) puerilis – bolalar sepma dorisi
 auctor, oris, m – muallif, retsept yozgan kishi
 Aurum, i, n – oltin
 axungia, ae, f – moy, yog‘

B

bacca, ae, f – danaksiz meva, rezavor meva
 bacillus, i, m – tayoqcha
 bactericidus, a, um – bakteritsid
 bacterium, i, n – bakteriya
 balsamum, i, n – balzam
 balsamum (i) Shostakovsky – Shostakovskiy balzami
 Barium, i, n – bariy
 basis, is, f – asos, negiz
 Belladonna, ae, f – belladonna
 Bellasthesinum, i, n – bellastezin
 benzoicus, a, um – benzoyli
 Berberidaceae – zirkdoshlar
 Berberis, idis, f – zirk
 Berberis (idis) vulgaris – oddiy zirk
 Betula, ae, f – qayin

Bidens, ntis, f – qoraqiz (ittikanak)
Bidens(ntis) tripartita (ae) – uch bo‘lakli qoraqiz
Bismuthum, i, n – vismut
Bistorta, ae, f – ilonsimon toron
bofus, i, f – gil, tuproq
borax, acis, f – bura
briquetum, i, n – briket
Bromisovalum, i, n – bromizoval
Bromum, i, n – brom
brucellicus, a, um – qora oqsoq (brutsellyoz) ga oid
bulbus, i, m – piyoz boshi, piyoz
Bursa (ae) pastoris – jag‘ - jag‘
butyrolum, i, n – butirol

C

Cacao (turlanmaydi) – kakao
Calcium, i, n – kalsiy
Calendula, ae, f – tirnoqgul
~~camphora, ae, f – kamfora~~
camphoratus, a, um – kamforali
Capsicum, i, n – qalampir, garmdori
capsula, ae, f – kapsula
carbo, onis, m – ko‘mir
carbonicus, a, um – ko‘mir -i (-si)
cardiacus, a, um – yurakka ta’sir etuvchi, yurak -i(-si)
Carolinus, a, um – Karlsbad (Karlovi Vari) -i (-si)
catharticus, a, um – ich suradigan, surgi
caute – ehtiyotlik bilan
cella, ae, f – hujayra
cellula, ae, f – hujayracha
Centaurium, i, n – tillabosh
cera, ae, f – mum
ceratus, a, um – mumlangan
Chamomilla, ae, f – moychechak
charta, ae, f – qog‘oz
charta (ae) Sinapis – xantal qog‘ozi, gorchichnik
chartaceus, a, um – qog‘ozga tegishli
chinensis, e – xitoy -i (-si)

Chininum, i, n – xinin
 Chloraminum, i, n – xloromin
 Chloroformium, i, n – xloroform
 Chlorum, i, n – xlor
 cholagogus, a, um – o‘t haydovchi
 chole, es, f – o‘t, safro
 cholericus, a, um – vaboga oid
 cinereus, a, um – kulrang
 cito – tez, tezda, tezlik bilan
 Citrus, i, f – limon (daraxti)
 Citrus (i) unshiu – mandarin (daraxti)
 claudo, ere, 3 – yopmoq, zichlab berkitmoq
 clavus, i, m – qadoq
 Codeinum, i, n – kodein
 coeruleus, a, um – ko‘k, zangori
 Coffea, ae, f – kofe
 Coffeinum, i, n – kofein
 colatio, onis, f – suzish, suzib tindirish
 colatura, ae, f – suzilgan suyuqlik
 colla, ae, f – yelim
 collagenicus, a, um – kollagenli
 Collargolum, i, n – kollargol
 colligo, ere, 3 – yig‘moq
 colo, are, 1 – suzmoq, suzib tinitmoq
 color, oris, m – rang
 communis, e – oddiy
 compositus, a, um – murakkab
 concentratus, a, um – konsentrlangan
 concido, ere, 3 – kesmoq, qirqmoq
 concisus, a, um – maydalangan, kesilgan, qirqilgan
 conservatus, a, um – konservatsiya qilingan
 conspergo, ere, 3 – har tomonga sepmoq
 constituens, ntis – shakl hosil qiluvchi
 contero, ere, 3 – ishqalamoq
 contra – qarshi
 contundo, ere, 3 – to‘ymoq
 contusus, a, um – yanchilgan, tuyilgan
 Convallaria, ae, f – marvaridgul

coquo, ere, 3 – pishirmoq, qaynatmoq
cor, cordis, n – yurak
Corazolum, i, n – korazol
Cordiaminum, i, n – kordiamin
Cordigitum, i, n – kordigit
Coriandrum, i, n – kashnich
cornu, us, n – muguz (shox)
corrigen, ntis – tuzatuvchi, yaxshilovchi
cortex, icis, m – po‘stloq
Cortisonum, i, n – kortizon
Crataegus, i, f – do‘lana
creta, ae, f – bo‘r
crudus, a, um – tozalanmagan
crystallisatus, a, um – kristall . . .
crystallus, i, f – kristall
Cucurbita, ae, f – qovoq
Cucurbitaceae – qovoqdoshlar
Cuprum, i, n – mis
~~curatio, onis, f – davolash~~
cutis, is, f – teri

D

da in ampullis – ampulada ber
da in capsulis – kapsula shaklida ber
da in charta – qog‘ozda ber
da in scatula – qutichada ber
da in tabulettis – tabletka shaklida ber
da in vitro nigro – qora shisha idishda ber
Datura (ae) stramonium (i) – oddiy bangidevona
decoctum, i, n – qaynatma
dens, ntis, f – tish
dentes, ium – tishlar
Depressinum, i, n – depressin
depuratus, a, um – tozalangan
depuro, are, l – tozalamoq
Dermatolum, i, n – dermatol
desicco, are, l – quritmoq
Desoxycorticosteronum, i, n – dezoksikortikosteron

destillatio, onis, f – distillatsiya
destillatus, a, um – distillangan
destillo, are, l – distillatsiya qilmoq
diaphoreticus, a, um – terlatuvchi
Diazolinum, i, n – diazolin
Dibazolium, i, n – dibazol
Dicainum, i, n – dikain
dies, ei, f – kun, kunduzgi
Digitalis, is, f – angishvonagul
Digitalis(is) grandiflora(ae) – yirik gulli angishvonagul
Digitalis(is) purpurea(ae) – qizil angishvonagul
diluo, ere, 3 – suyultirmoq
dilutus, a, um – suyultirilgan
Dimedrolum, i, n – dimedrol
Diprophenum, i, n – diprofen
Diuretinum, i, n – diuretin
divido, ere, 3 – bo‘lmoq, ajratmoq
divisus, a, um – bo‘lingan
diureticus, a, um – siydik haydovchi
do, are, l – bermoq
doceo, ere, 2 – o‘qitmoq, o‘rgatmoq
doctrina, ae, f – ilm, fan
dosis, is, f – doza
dragee (turlanmaydi) – draje
dragees (plur.) – draje
dulcis, e – shirin
durus, a, um – qattiq, mustahkam

E

Echinopanax, acis, n – exinopanaks
Echinopanax (acis) elatum (i) – baland exinopanaks
elasticus, a, um – elastik
electrocardiographia, ae, f – elektrokardiografiya
Eleutherococcus, i, m – eleuterokokk
elixir, iris, n – eliksir
emplastrum, i, n – malham
endocrinologia, ae, f – endokrinologiya
Ephedra, ae, f – efedra, qizilcha

Erysimum, i, n – qirqbo‘g‘im
Erythromycinum, i, n – jeltushnik
Eucalyptus, i, f – evkalipt
Eucommia, ae, f – evkommiya, xitoy guttapercha daraxti
Euphyllinum, i, n – eufillin
exacte – sinchiklab
exactus, a, um – sinchiklab, diqqat bilan
exemplar, aris, n – nusxa
exitus, us, m – natija, oqibat
expectorans, ntis – balg‘am ko‘chiruvchi
exsiccatus, a, um – quritilgan
exsicco, are, l – quritmoq
ex tempore – keragida, kerak paytida
extendo, ere, 3 – surtmoq
extensus, a, um – surkalgan
externus, a, um – tashqi, sirtqi
extraho, ere, 3 – chiqarmoq, siqib chiqarmoq

F

Fabaceae – dukkakdoshlar
fabrico, are, l – tayyorlamoq, tayyorlab qo‘ymoq
factitius, a, um – sun‘iy
familia, ae, f – oila, botanik oila
faex, faecis, f – achitqi
Farfara, ae, f – oqqaldirmoq
fel, fellis, n – o‘t, safro
Ferrum, i, n – temir
Filix, icis, f – paporotnik, qirqquloq
Filix mas, Filicis maris – erkak paporotnik
filtratus, a, um – filtrlangan
filtro, are, l – filtrlamoq
flavus, a, um – sariq
flos, floris, m – gul
fluidus, a, um – suyuq
Fluorum, i, n – ftor
Foeniculum, i, n – ukrop, fenxel
folium, i, n – barg
formo, are, l – tuzmoq, shakllantirmoq

fortis, e – kuchli ta'sir qiladigan
Frangula, ae, f – frangula
frigeo, ere, 2 – muzlab qolmoq
frigidus, a, um – sovuq
fructus, us, m – meva
fungus, us, m – qo'ziqorin, zamburug'
Furacilinum, i, n – furatsilin

G

gargarisma, atis, n – chayish, chayqash
gaster, tris, f – oshqozon, me'da
gastricus, a, um – oshqozon –i (-si)
gelatina, ae, f – jelatin
gelatinosus, a, um – jelatinli
gelu, us, n – muz, yax
gemma, ae, f – kurtak
Gentiana, ae, f – gazako't, erbahosi
Ginseng (turlanmaydi) – jenshen
glaber, bra, brum – tekis, silliq
glandula, ae, f – bez
globulus, i, m – sharcha
Glucosum, i, m – glukoza
glycerinosus, a, um – glitserinli
Glycerinum, i, n – glitserin
glycosidum, i, n – glikozid
Glycyrrhiza, ae, f – qizilmiya, shirinmiya
Gossypium, i, n – paxta
granulum, i, n – granula
grossissimus, a, um – juda yirik
grossus, a, um – yirik
gummi (turlanmaydi) – daraxt yelimi
gustus, us, m – maza, ta'm
gutta, ae, f – tomchi
Guttae Botkini – Botkin tomchisi

H

habitus, us, m – tashqi ko'rinish
Haematogenum, i, n – gemotogen

haemostaticus, a, um – qon to‘xtatuvchi
Haemostimulinum, i, n – gemostimulin
Helianthus, i, m – kungaboqar
Helichrysum, i, n – bo‘znoch
hepar, atis, n – jigar
herba, ae, f – o‘t, yer ustki qismi
herbaceus, a, um – o‘tsimon
heroicus, a, um – kuchli ta’sir qiladigan
Hexamethylentetraminum, i, n – geksametilentetramin
Hexamidinum, i, n – geksamidin
Hippophaë, ës, f – chakonda
hirudo, inis, f – zuluk
homo, inis, m – odam
hora, ae, f – soat
Hydrargyrum, i, n – simob
hydricus, a, um – suvli
Hydrogenium, i, n – vodorod
hydroxydum, i, n – gidroksid
Hyoscyamus, i, m – mingdevona
Hypericum, i, n – dalachoy, qizilpoycha, sariqchoy
hypertonia, ae, f – gipertoniya (qon bosimining ko‘tarilishi)
hypnoticus, a, um – uxlatadigan, uyqu keltiradigan
hypotonia, ae, f – gipotoniya (qon bosimining pasayishi)

I

Ichthyolum, i, n – ixtiol
in – da, ichida
infans, ntis, m, f – bola
infantes, ium – bolalar
infectio, onis, f – infeksiya
infundo, ere, 3 – quymoq
infusum, i, n – damlama
inhalatio, onis, f – ingalyatsiya
injectio, onis, f – in’yeksiya
insolubilis, e – erimaydigan
internus, a, um – ichki
intracutaneus, a, um – teri orasiga
intramuscularis, e – mushak orasiga

intravenosus, a, um – ko‘k tomir ichiga, vena ichiga
Inula, ae, f – andiz
Iodoformium, i, n – yodoform
Iodum, i, n – yod
Ipecacuanha, ae, f – ipekakuana
isotonicus, a, um – izotonik

J

japonicus, a, um – yapon -i (-si)
jecur, oris, n – jigar
Juglans, ndis, f – yeryong‘oq
Juniperus, i, f – archa

K

Kalanchoë, ës, f – kalanxoy
Kalium, i, n – kaliy

L

laboro, are, f – ishlamoq
lac, lactis, n – sut
lacteus, a, um – sutli
Laevomycesinum, i, n – levomitsetin
Lagochilus, i, m – bozulbang, lagoxilus
lana, ae, f – jun
Lanolinum, i, n – lanolin
lavo, are, f – yuvmoq
~~laxans, ntis – ich suradigan, surgi~~
Ledum, i, n – ledum
Leonurus, i, m – arslonquyruq
letalis, e – o‘ldiradigan
Leuzea, ae, f – levezeya
Liliaceae – lolaguldoshlar
limpidus, a, um – tiniq, shaffof
Linaceae, ae, f – zig‘irdoshlar
lingua, ae, f – til
linimentum, i, n – liniment
linteum, i, n – kanop, polotno
Linum, i, n – zig‘ir

liquidus, a, um – suyuq
Liquiritia, ae, f – qizilmiya, shirinmiya
liquor, oris, m – suyuqlik, eritma
